

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

ISAXOJAYEVA NASIBA

**RANGTASVIR. KOMPOZITSIYA
(NATYURMORT)**

(5110800 - tasviriy san'at va muxandislik grafikasi
bakalavr yo‘nalish talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT – 2014

Annotatsiya

Mazkur «Rangtasvir. Kompozitsiya» (natyurmort) o'quv qo'llanmasi 5110800 - «Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi» bakalavr yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kun talablarini hisobga olgan holda tuzildi.

O'quv qo'llanma talabalarni rangtasvirning natyurmort haqidagi nazariy hamda amaliy bilim asoslari bilan chuqur tanishtiradi. Mazkur qo'llanma besh qismdan iborat bo'lib, unda badiiy natyurmort rangtasvir asoslari, chet el, rus va milliy tasviriy san'atning natyurmort janri haqidagi ma'lumotlar qiziqarli va tushunarli tilda bayon etiladi. Natyurmort rangtasvirining tarixi, ranglar ilmining asosi va ularning natyurmort kompozitsiyasidagi o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek natyurmortni akvarel, guash va moybo'yoqlar bilan ishlash texnikasi ham tavsiya etilgan. Rangtasvir dasturining asosiy mazmuni bo'lgan natyurmort va uning amaliy mashg'ulotlarda tasvirlanishi, shuningdek, turli mashqlar va ijodiy topshiriqlar bajarilishi ko'zda tutilgan. O'quv qo'llanmadagi har bir bob so'nggida talabalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollar berilgan hamda tasviriy san'at terminlari va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati keltirilgan. O'quv qo'llanma katta hajmdagi rangli illyustratsiyalardan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2014 yil 23 avgustdagi 335-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Аннотация

Данное учебное пособие составлено на основе учета сегодняшних требований и предназначено для студентов по направлению бакалавриата 5110800 - «Изобразительное искусство и инженерная графика».

Учебное пособие знакомит студентов теоретическими и практическими основами живописи натюрморта. Состоит из пяти частей, в которых в интересной и доступной форме рассказывается об основах художественной живописи натюрморта, и даются сведения о русском, зарубежном и национальном изобразительном искусстве натюрморта с древнейших времен до наших дней. В ней рассматриваются основы науки о цвете, особое внимание уделяется вопросам натюрморта, а также их композиции. Предлагаются техника работы акварельными, гуашевыми и масляными красками натюрморта. Рассматривается основное содержание программы по живописи изображения натюрморта на занятиях, выполнение упражнения и творческие задания на практических занятиях разнообразными живописными средствами. В учебном пособии после каждой главы приводятся вопросы для закрепления пройденного материала, словарь терминов изобразительного искусства и рекомендуемая литература. Учебное пособие содержит большое количество цветных иллюстраций.

KIRISH

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san'at muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari talabalarning pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak rassom-o'qituvchi, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ularning foydalanish yo'llarini mukammal egallashi shart. O'qituvchi qalam va bo'yoqlar bilan rasm ishlash malakasiga ega bo'lish bilan birga, shu sohadagi nazariy hamda amaliy bilimlarini o'quvchilarga etkaza olishi ham zarur. Ushbu o'quv qo'llanmada rangtasvir natyurmorti haqidagi nazariy, amaliy, metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritilgan.

Rangtasvir natyurmorti haqidagi tushuncha va uning rivojlanishining qisqacha tarixi, oddiy geometrik jismdan tashkil topgan natyurmortdan boshlab, vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va materiali har xil bo'lgan bir qator buyumlardan iborat natyurmortlar tuzib, ularni tasvirlash rassomchilik sirlarini o'rgatishda ishonchli va sinalgan yo'l hisoblanadi.

Tasviriy san'atning nazariyasini muntazam o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. Ayniqsa, rangtasvir sohasida amaliyot xamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi.¹

Tasviriy san'atning tarixi rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan.

¹ Мастера искусства об искусстве М., 1936, Т.1, 124-бет.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bergan, deb bo'lmaydi.

Ta'lim olish jarayonida talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari – natyurmortda rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirida qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida xajmli buyumlarni fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, ranglar ilmi, ranglarning asosiy xususiyatlari, yorug'-soya qonuni, natyurmortni metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir. Mazkur o'quv qo'llanmada natyurmort rangtasvir nazariyasiga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar keltirilgan.

NATYURMORT RANGTASVIRI – TASVIRIY SAN'ATNING ASOSIY MAKTABI

Natyurmort - rangtasvir fanida asosiy o'rinni egallaydi. Bu fanni o'rganishdan maqsad kelajakda tasviriy san'at o'qituvchisini natyurmort rangtasvirining nazariyasi va amaliy ko'nikmalarini chuqur egallash, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Rassom-o'qituvchi natyurmort rangtasviri bo'yicha olgan bilim va malakalariga asoslangan holda o'zining kuzatishlari, badiiy tasvir yaratish oldidan qilinadigan izlanishlarida, ayniqsa eskizlar, ular asosida katta ko'lamdagi san'at asarlarini yaratishda rangtasvirning o'rni beqiyosdir.

Rangtasvir darslari talabalarga nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-o'qituvchilarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhimdir.

Mazkur o'quv qo'llanmaning maqsadi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini natyurmort rangtasviri orqali chuqur ijodiy mavzuga ega

bo'lgan asarlar yaratishga tayyorlash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, tasviriy san'at asarlari bilan chuqur tanishtirishdan iborat.

Rangtasvir – tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblangan bo'lib unda muhim o'rinni rang egallaydi.

Rangtasvirga qattiq tekislik yuzasiga bo'yoqlar orqali tushirilgan san'at asarlari kiradi.

Rangtasvir degani hayotni jonli, ya'ni borliqni to'liq va ishonarli tarzda tasvirlanishini bildiradi.

Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko'ra monumental, dastgohli, miniatyura, teatr-dekoratsiyasi, bezakli naqqoshlik va boshqa turlarga bo'linadi.

Ularining har bir turi ishlash texnikasi va badiiy obrazini bajarilish vazifasiga ko'ra o'z xususiyatiga bog'liq holda farqlanadi. Rangtasvirning badiiy obrazi ko'rgazmali va aniq ravshandir. Rassomlar asarni tasviriy va plastik vositalari (qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko'rsatuvchi vosita esa rang hisoblanadi.

Rangtasvir inson hissiyotining murakkab hayotini ko'rsatishga, tabiatdagi nozik o'zgarishlarni tasvirlashga, boqiy falsafiy g'oyalarini va fantastik obrazlarini yaratishga qodir.

Rangtasvir tarixi ibtidoiy odamlarning g'orlardagi devor tasvirlaridan boshlanadi.

Uning rivojlanish taraqqiyotida juda katta ma'naviy boyliklar yig'ilgan. O'rta Osiyodan topilgan devoriy rangtasvirlar millodan avvalgi VII-V asrlarga oid bo'lib bir vaqtning o'zida o'sha davrning hayotini tasvirini aks etgan rangtasvir namunasi ham muqaddas milliy iftixor hisoblanadi. Ranglar shartli va dekorativ tarzda bezatilgan. Uyg'onish davriga kelib inson rangtasvir asarlarida asosiy qahramoni sifatida namoyon bo'ladi. Madonnalarni tasvirlash barkamollik yuksak ideali hisoblandi. Rassomlar haqqoniy kartinalar yaratishni boshladi. Rangtasvir texnikasi doim takomillashib borardi. Rangtasvirchilarni rang-barang syujetlar qiziqтира boshladi. Buning natijasida XVII asrda janrlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Eng qadimiy janrlardan biri bu natyurmort hisoblangan. Buyumlarni o'ziga xos portretlarini, ularning tinch hayotini rassomlar natyurmort orqali tasvirlashadi. Bu janr XVII asrda paydo bo'ldi. Taniqli golland natyurmortlari maishiy xursandchilikni namoyish etadi, ularni kuzatganda meva, ichimlik, baliqlarning ta'm mazasini his qilish mumkin.

Rossiyada esa P.Konchalovskiy, I.Mashkov, K.Petrov-Vodkin, M.Saryan va boshqalar natyurmort ustalari bo'lgan. Shu qatorda O'zbekistonda ham natyurmort janrida rassom-ustalarni aytish joizdir, bular: S.Kolibanov, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, Yu.Elizarov, R.Ahmedov, G'.Abduraxmanov, Ya.Salpinkidi.



PITER KLAS. Nonushta. Gollandiya

NATYURMORT – fransuzcha so'z «nature morte» - jonsiz tabiat, ma'nosini anglatib, *tasviriy san'at* janri hisoblanadi. Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi.

Natyurmortda «jonsiz buyumlar» masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, turli atributlar, meva-sabzavotlar, gullar, qush va hayvonlarning tulumlari, qurol-aslahalar tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin.

Natyurmortda tasvirlayotgan buyumlar o'z egasining fe'l atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko'rsatishga qaratilgan.

Natyurmort qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda qush va gullardan kompozitsiya bo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan. Yevropada XVI-asr oxiri XVII-asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga

ega bo'lib, eng taraqqiy etgan davri XVII-asrga to'g'ri keladi. XVIII-asrdan «Natyurmort» atamasi qo'llanila boshladi. Italyan rassomi M.Karavajo va uning izdoshlari natyurmortning keng tarqalishida muhim rol o'ynadi. Ularda gul va mevalar, dengiz in'omi - baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiyalik V.K.Xeda, P.Klas, Flandriyalik F.Sneyders, Ya.Feyt, Ispaniyalik F.Surbaran, Fransiyalik J.B.Sharden va boshqalarda natyurmort janri yuksak taraqqiyotga erishdi. P.Sezann, A.Matiss, J.Brak va boshqalar natyurmortga ko'proq o'z e'tiborlarini qaratganlar. XX-asrda natyurmort janrining realistlik an'analarini Meksikada D.Rivera, D.Sikeyros, Italiyada R.Guttuzolar davom ettirdilar. Rossiyada natyurmort XVIII-asrda paydo bo'ldi. XIX-asr birinchi yarmida M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va boshqalar natyurmort janrida haqqoniylikka, borliqni o'zidan go'zallik topishga harakat qildilar.

O'zbekiston tasviriy san'atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san'atida masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar, miniatyura san'atida Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan siyohdon, qamchi kabi buyumlar uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX-asrning 30-50 yillariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo'ldi: L.Nasriddinovning «Nonli natyurmort», Sh.Hasanovanning «Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort»i fikrimiz dalilidir. M.Kurzin, V.Rojdestvenskiy, V.Ufimsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O.Tatevosyan, S.Abdullayev, V.Fadeyev, Yu.Elizarov va boshqalar turli mavzularda natyurmort kompozitsiyalarini yaratdilar. 60-80 yillarda L.Salimjonova, Yu.Taldikin, R.Choriyev, V.Burmakin, E.Melnikovlar ijodida natyurmort janri keng o'rin tutadi. Rassomlar R.Ahmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, Ya.Salpinkidi, G'.Abduraxmanov va boshqalar natyurmort janrida samarali ijod qilib, uning taraqqiyotini ta'minladilar.

Rangni turlicha qabul qilish mumkin, rang bilan fikrlash va loyihalash ham mumkin. Rangshunoslik asoslarini, «rang» bilan «bo'yoq» tushunchalarning farqini o'rganish lozim. Rangtasvirda kerak bo'lgan rangni, odatda, palitrada bo'yoqlarni aralashtirish orqali hosil qiladi. Keyin rassom kartina tekisligida bo'yoqni ranglar majmuasini – kolorit yaratib, rangga aylantiradi. «Rang» so'zining o'zi bitta, lekin rangtasvir jarayonini ko'pchilik sifatini belgilaydi, shuning uchun rang bu san'at turining asosi hisoblanishi haqlidir.

Tasavvur qiling-chi, agarda barcha ranglar atrofdagi hayotimizdan yo‘qolib ketsa, unda biz faqat oqimtir kul rangni ko‘ramiz. Qandaydir ma‘yus, bir xillik va odatlanmagan surat hosil bo‘ladi. Demak, ma‘lumki rang bizning hayotimizda qanchalik ko‘p o‘rinni egallashi.




Salpinkidi Ya.P. Anorlar



Abduraxmanov G'. Natyurmort

Har bir buyum o‘z rangiga ega. Ayrim ob‘yektlarni ranglar orqali idrok etamiz. Masalan, uchta do‘maloq shakli va o‘lchami bo‘yicha ham bir xil ob‘yektni olamiz. Ularni taalluqli ranglarga bo‘yab, xohlansangiz zarg‘aldoq apelsin, qizil pomidor yoki yashil olmaga aylantirish mumkin.



Uchta do‘maloq ob‘yekt

Rang orqali mevalarni pishkanini yoki kuzning kirib kelishini bilish mumkin, chunki yashil rangdagi daraxtlar sarg‘ayib, qizaradi. Keyin havo olisdagi o‘rmon yoki tog‘larni turlicha rangda ko‘rsatadi, u esa kenglikda

turgan joyini aniqlashda yordam beradi. Kunning turli vaqtida yorug'lik rangiga bog'liq holda osmon, yer va suvni rangdorligi o'zgaradi.

Tong yorishgan yoki qosh qoraygan paytda yashil rang ancha yorqin tuyuladi. Qorong'i tushishi bilan qizil siyoh ranglar qorayadi, yashil ko'k ranglar esa ocharadi.

Dunyoning barcha go'zaligini, shakl va material, kenglik va yorug'ligini ranglarning turli tumanligi orqali ko'ramiz.

Rang – bu ko'rish hissiyoti anglagan narsalardagi ko'rinayotgan belgilardan biri.

Har doim yilning turli fasllaridagi meva va sabzavotlarning rang-barangligi o'zgacha bizlarni quvontiradi. Har bir yil fasllariga taa'lluqli bo'yoqlarni aralashgan palitrasi mavjud. Sizlar o'z tanlovingizni bahorgi nozik va yozgi tiniq bo'yoqlari, yorqin kuzgi va qishqi xiralashgan tuslariga qaratishingiz mumkin. Albatta, ijodiy ishlarda ranglar monandlik prinsiplariga asoslaning, o'shanda bajarilgan suratlar haqiqatdan ham jozibali chiqadi.

Yozgi bo'yoqlar tiniq, ravshan va quvonchlidir. Palitrasi o'tsimon yashil, qizil (alvon), malina rangi, ko'k, to'q-sariq va zarg'aldoq ranglardan iborat. Har bir lokal ranglarga turli murakkab nozik rang turlaridan jozibali gammasi tuziladi.

Bahor tabiati nozik juda ham yorqin bo'lmagan raglardan hosil bo'ladi. Shuning uchun bahorgi palitra yumshoq pastel tuslaridan: kremli, pushti rang, o'rik rangi, havorang, och-sariq va oxradan iborat bo'ladi. Kontrast uchun – yashil o't rangi, ko'knari-qizil va xiralashgan jigarranglar qatnashadi.

Kuzgi palitrani illiq asosiy tusli bo'yoqlar tashkil qiladi, go'yo-ki yorug'lik nurini tarqatayotgandek. Ko'k va zarg'aldoq, sariq va siyohrang, qizil va sariq kontrast ranglarda tuzilgan kompozitsiya, shuningdek, to'q qizil-jigarrang, to'q qizil va siyohranglar och oxra tuslari bilan aralashmasida ham yorqin, ko'rinarli va samarali bo'ladi. Asosiy rangdor gammasini ignabargni yashil rangi to'ldirishi mumkin.

Qish palitrasi uchun och havo, siyohrang, muzning yaltiragan ko'kimtir tusi, oq va qora ranglarning kontrastidagi ranglar taalluqlidir. Odatda, kompozitsiyalar toza, ochiq-oydin, aniq, lo'nda-ixcham.

Ranglar insonni nafaqat hursand qiladi, ayrim holda g'azablantirishi (achchiqlanish), tashvish solishi (vahima), qo'msash (sog'inish) yoki xafalik (qayg'u) keltirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda rang emotsional ta'sir etadi.

Ayrim ranglar nerv sistemasini tinchlantirsa, boshqalari, aksincha, g'azablantiradi. Tinchlantiruvchi ranglar: yashil, havorang, ko'k bo'lsa, to'liqlantiruvchi esa – qirmizi, qizil, zarg'aldoq, sariq ranglar hisoblanadi.

Odamlar qadimdan ranglarga alohida ahamiyat kasb etgan. O'rta asrlarda qirmizi ranglar - kuch, qudrat, qadr-qimmatni; lojuvard (havorang) rangi esa – go'zallik, ulug'vorlik, muloyimlikni; to'y-shodiyonalikdagi ranglar katta ahamiyatga ega. Masalan, qizil rang - tantanavorlik, ulug'vorlikni; qora esa – kulfat, o'lim, qayg'uni; oq esa – tozalik, aybsizlikni; yashil esa – umidvorlikni va shu kabilarni anglatgan.



O.Tatevosyan. Bizning anorlar

Savollar:

1. Natyurmortni rangtasvir, grafika va haykaltaroshlikda tasvirlash mumkinmi?
2. Natyurmortda nimalarni ifodalash mumkin?
3. Natyurmortlar qanday ko'rinishda bo'ladi?
4. Natyurmortni san'atning qaysi turlarida kuzatish mumkin?
5. Natyurmort janrida ijod qilayotgan rassomlarni sanab o'ting.
6. Rassomlar yaratgan natyurmort janri orqali qanday voqea hodisalarni bilish mumkin?
7. Natyurmortdagi ob'yekt ranglari qanday idrok etiladi?
8. Natyurmortdagi ranglar ahamiyati to'g'risida gapirib bering.

1-BOB. NATYURMORT VA UNING TASVIRLASH MASALALARI

Natyurmortning qalamtasviri

Naturadan haqqoniy tasvirlash atrofimizdagi voqea-hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash – bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialligi, hajm va nisbatlarni ifodalash, qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan ob'ektlar va narsalarning xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Haqqoniy tasvirlash savodini dastlabki ta'lim bosqichlarida o'quv natyurmortlarini bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Darxaqiqat, savodli tasvirlash asoslarini o'rganishda **natyurmort** qimmatli tasviriy ob'yekt bo'lib hisoblanadi. Masalan, N.Tenning «Natyurmort» asari misol bo'la oladi.



N.Ten. Natyurmort


Natyurmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish, ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlarini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi. Badiiy Akademiyaning akademigi T.Ko'ziyev, o'quv

jarayonida natyurmortning muhim ekanligini ta'kidlab: «Natyurmort, – shunday zaminki, unda badiiy maktab mustahkam joylashgan bo'lishi kerak», – deydi.



Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa, o'z navbatida, o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq, so'ngra esa, narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasining tashkiliy qismini (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash. O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak.



Perspektiva qonun-qoidalari



Natyurmort qalamtasviri

Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Talabalar natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalaridan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi, mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum g'oyani ilgari surishi kerak. O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida bir oz bo'lsa-da, shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo'yilmasini tuzmasdan ilgari fikr yuritiladi. O'quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo'lajak natura qo'yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo'ladi.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi qo'yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tug'diradi.

Natyurmort qo'yilmasining ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashgani ma'qul, chunki buyum va narsalarning otski qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizonta tekisligi ko'rinmay qoladi, bu esa natyurmortning fazoviy yechimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natyurmort tuzish vaqtida narsalarning balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir tomonga yig'ilib qolishi noto'g'ri. Yirik buyumlar qisman bo'lsa-da, boshqa buyum bilan biroz to'silgan bo'lishi mumkin. Qo'yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin.

Natura qo'yilmasidagi narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och-to'qligi barobarida kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilarli

ko'rinib turadi. Qoramtir fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish eta oladi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (solning gorizontall tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'mida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

O'quv natyurmortning kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realitsik san'atda tabiat va bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoqda: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv-metodik vazifalarning mavjudligi.

Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Masalan, «Qulupnayli natyurmort» nomli bitiruv malakaviy ish ijodiy natyurmort kabi misol bo'la oladi. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallilik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.



Qulupnayli natyurmort



Natyurmort qalamtasviri


Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u, ko'z qarashiga qat'iy ravishda, kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilgan va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo, ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa, naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluyet tarzida ko'rish mumkin.

Natyurmortni tasvirlash jarayonida to'plamdagi barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi, yorug'-soya va tus munosabatlari obrazli ko'rinishga bo'ysundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, u qaysi nuqtadan kuzatilganda ham uning yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liq. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varag'i yoki mato qanday o'lchamda bo'lishligini aniqlash zarur. Qog'oz varag'ida ifodalanadigan natyurmort qo'yilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlyab olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog'oz varog'i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat'iy rioya qilish, samarali natija garovidir.

Natyurmort kompozitsiyasining qurilishi dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarning puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdagi qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida «tiqilinch», yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinmaydi.



Natyurmortni joylashtirish.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo'lib xizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagi qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasining xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan, keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash, so'ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo'yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab, so'ngra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi. Buning uchun narsalar to'plamini yyengil chiziqlar bilan belgilab chiqish, tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o'ta zarur.


Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda, yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbati, hajmini hamda buyumlarning konsruktiv qurilish kabi vazifalarini to'liq bajarishmaydi. Ularning diqqat-e'tibori narsalarning kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Ular narsaning sirtqi ko'rinishini chizishsa, shakl ham to'g'ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko'rinishini

4-7796/2

tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o'zaro joylashuvi, itsagan qirrasining yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi, hamda naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontaal (yotiq) chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, sol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizontaal yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib qurish hamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini va ularning o'zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to'plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan, ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda «muallaq» bo'lishi yoki biri ikkinchisiga «o'yib» kirgandek ko'rinishi mumkin.



Noto'g'ri o'zaro joylashtirish

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarning va ular qismlarining katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Moybo'yoqli rangtasvir uchun matoda, ko'mir yordamida, yorug' va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarning hajmdor shakli yorug' soyalar bilan qurilsa, qalamtasvir aniq ko'rinadi. Tayyor bo'lgan tasvirning tashqi ko'rinishini tush bilan chizib chiqib, ko'mirmi esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa, bo'yash uchun zarur bo'lgan natyurmortning aniq ko'rinishi qoladi.

Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishning boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

RANGSHUNOSLIK ASOSLARI

Akvel bo'yoqlarni o'ziga xos xususiyatlari

Tasviriy san'atda, ayniqsa rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmunini va g'oyasini to'la ochilishiga uning tomoshabiniga emotsional ta'sirini kuchaytirishga, shuningdek kompozitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Ranglar haqida fikr yuritish va bo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning nomlari, turlari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim ular:

Och sariq oxra (*Охра светлая*) - Bo'yoq sovuq tusda, shaffofli va birmuncha bo'g'iq ko'rinishda. Och sariq oxrani afzallik tomoni u quriganda qog'ozga kirishib moysimon bo'ladi. Och sariq oxra yuqori yorug'ga chidamli bo'yoq. Yorug'likga chidamliligi 5 ball, ikki yulduzchali. Oxrani temir idishda qorishtirish tavsiya etilmaydi.

Kadmiy limon rang (*Кадмий лимонный*) - O'ziga xosligi uni qancha qatlam bo'yamang u yaltiramaydi, guashga yaqinlashadi, lekin shaffofligi va rangini toza yoriqligi bilan guashga o'xshamaydi. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Kadmiy sarig' (*Кадмий желтый*) - Bo'yoq aynan kadmiy limonliyligiga o'xshash, lekin undan ko'ra shaffofli. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Tabiiy siena (*Сиена натуральная*) - Bo'yoq sariq-jigarrang tusda, o'ziga xosligi och oxraga o'xshash, lekin yuksak yorqin tiniqligi undan ajralib turadi.

Oltin-sariq "JX" (*Золотисто-желтая "ЖХ"*) - Kelib chiqishi organik bo'yovchi. Bo'yoq juda ham shaffof, iliq tusda. Qog'ozga juda ham yaxshi suriladi. Bo'yalganda shoyisimonligi bilan ajralib turadi. Yorug'likga chidamliligi 4 ball.

Kadmiy qizg'ish-sariq (*Кадмий оранжевый*) - Bo'yoq fakturasi kadmiy limon rang va sariqga aynan o'xshash biroq, ularga nisbatan ancha shaffofli. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Qizil oxra (*Охра красная*) - Qizg'ish jigarrang bo'yoq, shaffofligi, balandligi bilan ajralib turadi. Yupqa qatlamlarda yumshoq jigarrang-sariq tusda ko'rinadi. Qog'ozga oson bo'yaladi va oson yuviladi. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Binafsharang kraplak (*Краплек фиолетовый*) - Binafsha rang bo'yoq o'ziga xosligi bilan qizil kraplakga yaqin. Binafsha rang kraplak ultrafioletoviy nurlanishi orqali jigarrang tusga ega bo'ladi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Ultramarin - Bo'yoq ko'klar guruhiga kiradi, iliqroq tusda. O'ziga xos xususiyati, oz suvga bo'yoqni eritib surtganda, qog'ozda och suyuq kulranglar orasida to'q ko'k nuqtalar paydo bo'ladi (ushbu xolat aglomeratsiya deb ataladi) tarkibidagi juda ham oz xlor ushbu xolatni paydo qiladi. Ushbu dog' nuqtalarni kamaytirish uchun distillirlangan yoki yomg'ir suvidan bo'yoqni eritishda foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yorug'likka chidamliligi 3 ball.



Ko'k ko'balt rang (*Кобальт синий*) - Yangi surilgan bo'yoq nozik ko'k rangga ega, bo'yoq intensiv emas, qog'ozga tekis surkalmaydi; suv bilan ko'proq aralashganda arimas bodroqsimon dog'lar paydo bo'ladi. Ko'k kobalt vaqti o'tgach (yoriqda qanday bo'lsa qorong'ilikda ham shunday) yashil rangga va qorayishiga qog'oz sarg'ayishi orqali olib keladi.

Ko'k moviy rang "FS" (*Голубая "ФС" (фталоцианная)*) - Juda ham intensivli sovuq tusga ega bo'yoq, tayyor aralashma bo'yoqga namlangan mo'yqalamni yengil tegishi bilan bo'yoq mo'yga singib oladi va qog'ozga tekis bo'yaladi. Qog'ozga qatlamlarni to'yintirib borganda extiyotkorlik talab etiladi. Chunki bo'yoq qog'ozdan yuvilishi qiyin. Yorug'likka chidamliligi 4 ball.

Yashil zumrat rang va yashil ko'kat rang (*Изумрудная зелёная и зелёная травяная*) - Juda ham intensiv yashil ranglar. Bo'yoq tiniq shaffofligi bilan

ajralib turadi. Bo'yoqlar rangi bilan bir-biridan farq qiladi lekin xususiyati bilan bir-biriga o'xshashligi bor. Ikkala bo'yoqlarni o'ziga xos xususiyati to'liq yuvilmasligi. Ushbu xolatni e'tiborga olgan holda bo'yoqlar bilan ishlaganda juda ham extiyotkorlik kerak. Yorug'likga chidamliligi 4 ball.

Yashil permanent (*Перманент зелёный*) - Juda ham toza, yorqin-yashil bo'yoq, yashil bo'yoqlar guruhidan eng ulug'i. Shaffof va tiniqligi yuqori. Qog'ozga tekis va oson bo'yaladi, yuvilishi ham yaxshi. Mo'yqalamga bo'yoq tezda shimiladi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Tabiiy umbra va kuydirilgan umbra (*Умбра натуральная и умбра жжёная*) -Tabiiy umbra-sovuq tusda (tamakirang). Kuydirilgan umbra-iliq tusda (shokolad rang). Bo'yoqlar yarim shaffof, qoniqarli, mo'yqalam to'yinadi va qoniqarli darajada qog'ozdan yuviladi. Rangi va fakturasi birmuncha bo'g'iq. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Kuydirilgan siena va temirli qizil (*Сиена жжёная и железная красная*) - Ikkalasi ham qizg'ish jigarrang intensiv bo'yoqlar, bir-biridan farqli tomoni kuygan siena iliq tusga ega. Biroq temirli qizil-sovuqroq, yupqa bo'yalgan qatlamlarda yana ham ko'proq ajralib ko'rinadi. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Yorqin qizil (*Алая*) -Juda ham shaffof intensiv bo'yoq, yorqin qizil rang bilan ishlash jarayonida extiyotkorlik kerak. Bo'yoqni suv bilan eritganda mo'yqalamni to'yintiradi, chunki qog'ozda intensiv bo'yalgan maydon juda qiyin yuviladi.

Qizil kraplak (*Краплек красный*) - Intensiv bo'yoqlardan biri qizil malina rangli bu bo'yoq mo'yqalamga tezda kirib oladi va qog'ozda qatlam tekis surtiladi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Karmin - Juda ham intensiv bo'yoq qizil malina rang, shaffofli kraplakga nisbatan sovuqroq tusga ega. O'ziga xosligi bilan karmin kraplakga yaqin. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Jigarrang mars (*Марс коричневый*) - Bo'yoq iliq tusda, kuydirilgan umbraga nisbatan bir muncha sovuq. Bo'yoq shaffofli va intensivli. Qog'ozga yaxshi bo'yaladi va yuviladi. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Sepiya - Ushbu bo'yoqni o'ziga xosligi birmuncha rangda o'zgaruvchanligida. To'yingan qatlamida u to'q jigarrang sovuqroq tusda. Nozik, yupqa, shaffof qatlamlarida kulrangsimon jigarrang. Qog'ozga surtilishi yaxshi. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

Ganza limonli, ganza sariq, qizg'ish sariq litol (*Газна лимонная, газна желтая, литол оранжевая*) - Barcha bo'yoqlar yorqin va toza rangli. Intensivligi va yarim shaffofligi bilan ajralib turadi, bo'yoqni mo'yqalam tez shimib oladi. Yorug'likga chidamliligi 4 ball.

Kinovar (*имитация*) - Bo'yoq juda ham yorqin va toza qizil, ozroq nim sariq seziladi, qog'ozga tekis yoyiladi. Yupqa va qalin surtilgan bo'yoqlar yaxshi yuviladi. Shu bilan birga qog'ozda bilinar bilinmas iz qoldiradi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Pushti rang lok (*Лак розивый*) - Yorqin rangli pushti bo'yoq sovuqroq tusga ega. Bo'yoq intensivli, shaffofli, mo'yqalamga yengil shimiladi. Qog'ozga yupqa qatlam surtilganda oldindan bo'yoqni ko'proq suv bilan aralastirib olish kerak. Qog'ozga tekis surtiladi. Qog'ozdan bo'yoq yuvilganda iz qoladi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Tioindigo qizil rang (*Тюиндиго красная*) - Rangi bilan och qizil kraplakga yaqin, iliqroq tush bilan undan farq qiladi, intensiv va shaffofli.

Pushti rangli lok (*Лак фиолетовый*) - Sovuq tusli intensiv bo'yoq, yarim shaffofli, tekis surtiladi va yuviladi. Qog'ozdan yuvilganda nim rang iz qoldiradi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

Antraxinonli qora rang (*Антрахиноновая черная*) - Bo'yoq yuqori shaffofligi bilan ajralib turadi. To'q qatlamlarda suyakga (kost jjeniyga) nisbatan, lekin keragidan yuqori kul kukunli gazli qorani (saja gazovaya) intensivligiga ega emas. Bo'yalishi va qog'ozdan yuvilishi yaxshi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.



Rossiyada ishlab chiqarilgan akvarel bo'yoqlar sifati yuqori, ayniqsa Sankt- Peterburg badiiy bo'yoqlar zavodi mahsuloti. Bo'yoqlar yarim quriydigan jajji plastmass qolipcha idishlarda, bog'lovchisi gummiarabik. Yana bog'lovchisi kazeinli suyultirilgan holda tyubiklarga joylashgan qattiq berkitilgan holda bo'ladi. Akvarel uchun palitra farforlisi eng qulayi, plastmass va orksteklodan badiiy jamg'arma zavodi ishlab chiqaradi.

Akvarelli rangtasvir eng murakkab badiiy usullardan biri xisoblanadi. Ushbu rangtasvir turi uzoq muddat amaliyot bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Bunga nafaqat toza badiiy usul bilimiga ega bo'lmoq, shu bilan birga bo'yoqlarni o'zaro nisbiy uyg'unligini xis etish ham lozimdir.


Akvarel bo'yoqlarini yorqin va shaffofligi qog'ozni oqlik darajasi bilan bog'liq, shuning uchun qog'oz tanlashda nafaqat uni sifati muhim, qolaversa uni qanchalik oqligi ham katta ahamiyatga ega. Qog'ozni sifat darajasi shunday bo'lishi kerakki, agar qog'ozni bir joyini bir necha marotaba bo'yoq qatlami ustma-ust berilganda ham, qatlamlar orasidan yaxshi yoritib berishi lozim.

Akvarelni eng muhim qadr qimmatini shaffofligida. Qog'oz juda ham oq yuksak sifat darajali bo'lishi shart. Sarg'ayib borayotgan qog'oz akvarelli rangtasvirni barcha rang tizimini o'zgartirib yuboradi. Qog'oz oppoqligi bu rangtasvirni ichidan yorug'lik sochuvchi manba, shuning uchun qog'oz ushbu rangtasvir turida yorug'lik beruvchi ekran xisoblanadi. Bundan tashqari oq qog'oz akvarel bo'yoqni optik oqartiruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu rangtasvir turini palitrasida esa oq bo'yoqni o'zi yo'qligidan dalolat beradi.

RANGNING XUSUSIYATLARI VA ULAR HAQIDA TA'LIMOTLAR

Ma'lumki, inson tashqaridagi ma'lumotlarning 90 foizini ko'rish organi orqali qabul qiladi. Ko'z esa inson xatti-harakatini amalga oshirishda 70-90 foizini tashkil etadi. Demak inson faoliyatida rangni ahamiyati juda ulkandir. Shuning uchun ham atrof-muhitni ongli ravishda rang tanlanishi, ilmiy asoslangan hamda estetik nuqtai nazardan yondoshilgan bo'lishini taqozo qiladi.

Ranglarning ta'sirini tadqiqot sifatida birinchi o'rganuvchilardan I.Gyote bo'lgan, chunki bitta ko'rinishdagi manzarani yashil, sariq, qizil va boshqa rangli shishalar orqali kuzatishni yaxshi ko'rgan va uni inson qanday idrok etishi va his qilish holatini o'zgarishlarini o'rgangan.



Rangli shishalar orqali manzarani idrok qilish

Buyuk nemis olimi Iogann Volfgang Gete (1749-1832) "Rang haqida ta'limot"ida rangni odam organizmiga ta'siri oqibatida sodir bo'ladigan ruhiy (emotsional) o'zgarishlar, har bir rangni o'ziga xos ruhiy holat qo'zgovchi kuchga egaligi asarda alohida o'ringa ega. I.Gyote - "Rang yorug'lik maxsuli, emotsiya qo'zg'ovchi maxsul, nur-rang-emotsiya bir zanjirning bo'laklari" - degan edi. Gyote ranglar haqidagi ta'limotini aniq tizim tarzida izohlab berdi. Ammo Gyote ta'limoti Nyutonning fizikaviy qonuniyatlarga asoslanib, ko'plab tajriba va izlanishlar orqali yaratgan kashfiyotiga nisbatan ancha primitiv, ilmiy jihatdan asoslanmagan tarzda edi.

Shunga qaramasdan Gyotening rang haqidagi g'oyalari rassomlar uchun ma'lum miqdorda tayanch ta'limotlardan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Nyuton birinchi marta optik prizma orqali yuborilgan yorug'lik rangli nurlarga aylanganligini isbotladi va uni ilmiy tarzda tushuntirib, spektr ranglarini yetti bo'lakka bo'lib uni doira shaklida joylashtirdi. Ranglarni belgilash uchun uning qo'llagan terminologiyasi juda aniq. Shunday kilib Nyutonning bunday ixtirosi bizni ranglarning fizik tabiati haqida aniq tasavvurga ega qildi.

Tasvirlash faoliyatida birikmalarga eng boy ranglardan qizil hisoblanadi – to'lqinlantiruvchi, isituvchi, tetiklashtiruvchi, faollik, g'ayratli, serharakatli; sariq rang – iliq, ko'ngilni ko'taruvchi, xushtabiat, jozibali; zarg'aldoq rang – shodlantiruvchi, quvonchli, alangali, yoqimli; yashil rang ham birikmalarga juda boy, u sokinlik, yoqimli va tinchlik kayfiyatini yaratadi.

Ranglar xususiyatlari bilan tanishtirish yo‘llaridan biri ranglarni tovush bilan qiyoslash imkoniyatidir. I.Nyutonning soddalashtirilgan ko‘rinishdagi chizmasi musiqa oktavalarini ranglar spektrasi bilan shartli qiyoslash asosida taqdim etgan. Rang bilan yorug‘lik harakatini rangli musiqaviy qurilmalarda jozibali ko‘rinishni hosil qilish mumkin.

Filip Otto Runge (1777-1810) Gyotening zamondoshi, buyuk rassom (romantizm davri) rang ta‘limotiga katta hissa qo‘shgan.

Runge ranglarni joylashuv tizimini, globusni eslatuvchi shar tartibi haqidagi taklifni kiritdi. Ekvator chizig‘i bo‘ylab rang doirasidagi toza ranglarni joylashtirdi.

Shimoliy kutbda oq va janubiy kutbda qora ranglarni joylashtirdi. Meridianlarida esa oq va qora ranglarni toza ranglarga qo‘shib bordi. Bu bilan u oq va qora ranglar qo‘shilmasidan kelib chiqadigan ranglar majmuasiga erishdi.

U tarixda birinchi marta ranglarni fazoviy bo‘shlikda joylashuvini, ulardan estetik, badiiy foydalana olgan tarzda bog‘lay olishga sazovor bo‘ldi.

Rungeni rassom sifatida yorqin ranglarga kulrang (axromatik) qo‘shish bilan ulla xiralashtirib, rang perspektivasiga erishish masalasi bilan shug‘ullangan.

Nemis tabiatshunos olimi German Lyudvig Gelmgols (1821-1894) ikki nurni-birini ustiga ikkinchisini qo‘shib yo‘naltirib, ular tushgan yuza alohida tushgan nurga qaraganda yorug‘roq bo‘lganini hamda bir necha rangli nurlar birga qo‘shib yo‘naltirilganda yana oq nurga aylanishini ochib berdi. Bu jarayonni u "additiv aralashma" deb nomladi.

Keyinchalik Gelmgols qizil va ko‘k pigmentlarni aralashmasi yuzaga tushadigan nurning bir qismini yutishini aytdi. Bu holni u "Subtraksiya" deb, pigmentlarni aralashmasini esa "Subtraktiv aralashma" deb atadi.


Bu tajribalar asosida u xilma xil aralashmalarga ilmiy asos yaratdi. Gelmgols ranglarga aniq xarakteristika berish uchun uchta o‘zgaruvchan komponent tanladi. Rang tusi, rangni tuyinganliligi va rang yorqinligi (och-to‘qligi). Kolorometriyaning bu yangi prinsipi 1931 yilda (MKO) yoritish bo‘yicha xalqaro komissiya tomonidan ma‘qullanib o‘lcham birligi sifatida qabul qilindi.

Och ko‘k rang musiqiy tasvirlashda fleyta tovushiga xos, to‘q ko‘k esa – violoncheli ohangini eslatadi. Borgan sari kontrabasning ajoyib tovushiga o‘xshab ketadi. Ko‘k rangning ohangi tantanali ko‘rinishda organ tovushlariga teng ...

Rang bilan ohang monandligini rassom M.Chyurlenis o'z asarlarida topishga harakat qilgan, uning ko'p kartinalari «Prelyudiya» (kichik musiqiy asar), «Fuga», «Sonata» va h.k. nom bilan ataladi. Bu asarlarning doiraviy shakli keng va turli tuman. Masalan, «Fuga» asari jiddiy konseptual ko'rinishda aniq musiqiy rangtasvir g'oyasini namoyish etadi.

ASOSIY VA QO'SHIMCHA RANGLAR

Ma'lumki, mutaxassislar ranglarni ikki turga bo'lishadi. 1. Asosiy ranglar. 2. Qo'shimcha ranglar. Asosiyga qizil, sariq zangori ranglar kiradi. Qo'shimcha ranglar ana shu asosiy ranglarni bir-birlari bilan aralashtirish orqali olinadi. Masalan qizil va sariq rangdan zarg'aldoq, sariq va zangori rangdan yashil, qizil va zangori rangdan binafsha ranglar olinadi. Bu olingan ranglarni ikkinchi bor aralashtirish orqali yanada yangi ranglarni hosil qilish mumkin. Yangi ranglarni hosil qilishda oq va qora ranglar ham ishtirok etishlari mumkin.



1. Asosiy ranglar. 2. Qo'shimcha ranglar. 3. Rang doirasi (24 rang)

AXROMATIK VA XROMATIK RANGLAR

Rangshunoslikda ranglarni **xromatik** va **axromatik** turlari ham bo'ladi. Xromatik so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, rang ma'nosini anglatadi, axromatik so'zi rangsiz degan tushunchadir.


Birinchi guruhda axromatik ranglar: qora, oq va barcha kulranglar (eng to'q tusdan to och tulgacha).

Boshqa guruhdagiga xromatik ranglar kiradi – qora, oq va kulranglardan tashqari barcha ranglar, ya'ni qizil, sariq, ko'k, yashil, binafsha, havorang va hokazolar.



Xromatik ranglar


Bu xodisani ilk bor ingliz fizigi I.Nyuton kashf etgan. U oq nurdan spektr ranglari tarqalishini topdi. I.Nyuton spektrdagi yetti ranglarni aniqladi.



Oq yorug' nurni spektr ranglarini bo'linishi

SPEKTR RANGLARI

Qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsha ranglar spektrni hosil qiladi. Spektr ranglari har doim ko'rsatilgan ketma-ketlikda joylashadi.



Rangli spektr Xromatik ranglar (spektr)



Ranglar doirasi (12 rang)



Iliq va sovuq ranglar

ILIQ VA SOVUQ RANGLAR

Rangshunoslik fanida **iliq va sovuq rang** tushunchalari ham bor. Mutaxassislar **iliq ranglar** qatoriga sariq, qizil, zarg'aldoq, sabza pushti, sadaf, malla, qirmizi, lolaro'y, gulgun, zafaron, noranjvash, somoniy, barikaram kabilarni kiritishadi. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra bir ko'rishda kishilarda iliqlik kayfiyatini hosil qiladilar.

Sovuq ranglarga esa zangori, xavorang, moviy, yashil, binafsha, moshrang, to'tiy, lojuvard, to'tigiy, firuza, novshadil, zumrad, nofarmon kabilarni kiritiladi. Ular kishilarda ko'proq sovuq kayfiyat hosil qiladilar. Iliqlik ham sovuqlik ham kayfiyat uyg'otmaydigan ranglar ham bo'ladi. Masalan, kulrang, jigarrang, nilgun, siybob shular jumlasidandir.

Iliqli rangli gamma



Z.Kovalevskaya. Binafsha bilan natyurmort. VAN-GOG. Kunboqarlar




Issiq fondagi natyurmort. Guash.

Sovuq fondagi natyurmort. Guash.

Har bir rassom ma'lum davrda u yoki bu ranglar gammasiga katta e'tibor bilan ijod qiladi. Masalan, ispan rassomi P.Pikasso bir paytlari sovuq ranglar bilan ijod qilgan bo'lsa, boshqa davrda – iliq (uning ijodida havorang va pushti rang bilan ishlagan vakti). Ayrim rassomlar iliq tusli bo'yoqlar bilan (Rembrandt, Rubens, D.Levitskiy, Titsian, V.Tropinin), boshqalari esa sovuq tusli bo'yoqlarga e'tibor qaratishgan (E.Greko, Murilo, V. Borisov-Musatov).

RANGNING FAZOVIIY XUSUSIYATI

Olingan to'g'ri to'rtburchaklarning o'lchami bir hil, biroq turli ranglar hisobiga shaklning biri yaqin, boshqasi esa olisda joylashganini osongina sezish mumkin. Sariq rangdagi to'rt burchak bizlarga eng yaqin joylashgandek, ozgina orqaroqda esa - to'q qizilni ochrog'i, yanada orqaroqda to'q qizil rangi chuqurlikda turgandek tuyuladi.



Chuqurlik tasavvurini rangga bog'liqligi

Haqiqiy o'z rangiga yaqin bo'lgan - bo'rtib chiqib turadigan ranglar, asosan, iliq ranglar bo'ladi. Tekislikda joylashgan haqiqiy o'z rangidan uzoqlashgan ranglarga esa - sovuq ranglar kiradi.

Bunday hodisalar ko'rinishidan rassomlar unumli foydalanib ranglar orqali tekislikda fazoviy chuqurlik tasavvurini yaratadi.



T.Pirmatov. Hosil



Yu.Taldikin. Biznikiga mehmonga keling

Ranglarni og'iri ham yengili ham bo'ladi. **Og'ir ranglar** qatoriga ko'proq to'q, yengiliga och ranglar kiradi. Xususan ranglar qora, jigarrang, yashil, binafsha, to'tiyov, lojuvard, oq, sariq, xavorang, moviy, malla, pushti, pistoqi, novvoti, sabza kabilarga nisbatan kuzatuvchiga og'irroq tuyuladi.

Ranglar nazariyasida **ranglar qarama-qarshiligi** (kontrast ranglar) atamasi ham ishlatiladi. Ranglarni o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki ular bir-birlarini yonlarida turganlarida alohida turganidan ko'ra boshqacha ko'rinadi. Ular bir-birlarini tuslarini aniqroq, kuchliroq ko'rinishiga yordam beradilar. Ularning bu xususiyatlaridan rassomlar o'rinli foydalanib, asardagi asosiy obrazni ajratib ko'rsatish maqsadida qarama-qarshi rang xodisidan foydalanadilar. Masalan, asosiy obrazni och rangda tasvirlasalar uning atrofini yoki fonini to'q rangda oladilar va aksincha.

Ranglar qarama-qarshiligini quyidagi ko'rinishlarda ishlatilishi mumkin.

1. Bir rangni ikki och va to'qlikda qo'llash.
2. Ikki rangni och va to'q tuslarini qo'llash.
3. Bir rangni ko'p tuslarini qo'llash.

Ranglar qarama-qarshiligi qoidasi suratdagi asosiy obraz bilan fon, asosiy obraz bilan muhit o'rtasida qo'llanadi.

Rangning asosiy xususiyatlari uning yorqinligi (och-to'qligi) tusi va to'yinganligi bilan belgilanadi.

RANGNING ASOSIY XUSUSIYATLARI: RANG TUSI, OCH-TO‘QLIGI VA TO‘YINGANLIGI

Har bir rangning asosiy xususiyatlari mavjud: rang tusi, to‘yinganligi va och-to‘qligi.

Bundan tashqari, rangning muhim och-to‘qlik va rangdorlik qarama-qarshilik tavsifnomalarini bilish, buyumlarni lokal-asl rangi tushunchasi bilan tanishish va ranglarni ayrim fazoviy xususiyatlarini his qilish.

RANGNING TUSI


Bizning ongimizda rang tusi yaxshi tanish bo‘lgan buyumlarning rangi bilan mos tushadi. Ranglarning ko‘pgina nomlari tabiatdagi narsalarning o‘ziga xarakterli ranglaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan bo‘lgan: qum rang, dengiz to‘lqini rangi, zumrad rang, shokolad rang, marjon rang, malina rang, olcha rang, qaymoq rangi va kabilar.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya’ni ularning birini qizil, ikkinchisini ko‘k, uchinchisini sariq deb atalishiga asos bo‘lgan belgisi rang tusi deyiladi. Qizig‘i shundaki, kunduzgi tabiiy yorug‘likda inson ko‘zi 180 gacha rang tuslarini va 10 yaqin to‘yinganlik darajasini ajratishga qodir ekan. Umuman olganda, rivojlangan inson ko‘zi 360 yaqin rang tuslarini farqlash qobiliyatiga ega ekan.


RANGNING TO‘YINGANLIGI

Rangning to‘yinganligi deganda kulrangning och-to‘qlik darajasini rang bilan teng bo‘lgan farqi tasavvur qilinadi. Kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini tozaligini tushunish kerak.

Agarda biron bir rangga kulrang bo‘yoqni qo‘shsak, uning rangi xiralashadi, to‘yinganligi o‘zgaradi.




Rangning to'yinganligini o'zgarishlari



Iliq va sovuq ranglarning to'yinganligini o'zgarishlari

OCH-TO‘QLIK



Rangning uchinchi belgisi – och-to‘qlik. Har qanday rang va bo‘yoqlarni rangdor tusiga bog‘liq bo‘lmagan holda, ularni och-to‘qligi bo‘yicha qaysi biri to‘qroq, qaysi biri ochroq ekanligini aniqlash mumkin. Rangning och-to‘qligini oq bo‘yoq qo‘shib yoki suv bilan aralashtirib o‘zgartirish mumkin, shunda qizil rang - pushtiga, ko‘k - havorangga, yashil – bargikaramga va hokazolarga aylanadi.



Oq bo‘yoq orqali rangning och-to‘qligini o‘zgarish.

Och-to‘qlik - ham xromatik, ham axromatik ranglarga tegishli bo‘lgan sifat. Och-to‘qlikni oqartirish bilan chalqashtirish kerak emas (narsaning rangi sifati kabi).

Rassomlar och-to‘qlik munosabatlarni tusli deb atashadi, shuning uchun och-to‘qlikni va rangli tus bilan, yorug‘-soyalini asarning ranglar qatori bilan chalqashtirmaslik lozim. Agarda kartina och tusda tasvirlangan deyilsa, avvalom bor, och-to‘qlik munosabatlarni nazarda tutish kerak, rang jihatdan esa u oq kulrangli, pushti-sariq, och sirenli ham bo‘lishi mumkin.

Bunday turning farqlanishini rangtasvirchilar valera deb atashgan.

Har qanday ranglar va tuslarni och-to‘qligi bo‘yicha taqqoslash mumkin: oqargan yashilni to‘q yashil bilan, pushtini ko‘k bilan, qizilni siyohrang bilan va h.k.

Anglasangiz qiziq, qizil, pushti, yashil, jigarrang va boshqa ranglar yo och-to‘q, va to‘q ranglar ham bo‘lishi mumkin.



Och-to'qligi bo'yicha ranglarning farqlanishi

Atrofimizdagi barcha narsalar rangini bilamiz va ularning och-to'qligini tasavvur ham qilamiz. Masalan, sariq limon ko'k dasturxonga nisbatan ancha ochroq, bilamizki, sariq rangning o'zi ko'k rangga nisbatan ancha och ekanligini.

Axromatik ranglar, ya'ni kulrang, oq va qoralar, faqat och-to'qligi bilan ta'riflanadi. Och-to'qligini farqlanishi shundan iboratki, bittasi to'qroq bo'lsa, boshqalari esa ochroq bo'ladi.

Har bir xromatik rangi och-to'qligi bo'yicha axromatik ranglar bilan taqqoslanishi mumkin.

24 ranglardan tashkil topgan ranglar halqasini olamiz. Ranglarni solishtirish mumkin: qizil va kulrang, pushti va och kulrang, to'q yashil va to'q kulrang, siyohrang va qora va h.k. Axromatik ranglar och-to'qligi bo'yicha xromatik ranglarga tenglashtirib olingan.



OCH-TO'QLIK VA RANGLI QARAMA-QARSHILIK

Har qanday narsa rangi sharoitiga bog'liq holda o'zgaradi. Bu yerda muhim o'rinni yorug'lik manbai kasb etadi. Agarda kuzatsangiz bitta buyumning o'zi qanday darajada o'zgarishini ko'rasiz. Masalan, narsaga tushayotgan yorug'lik sovuq tusda bo'lsa, unda soyasi iliq bo'lib yoki aksincha tuyuladi.

Yorug'lik bilan rangning qarama-qarshiligi shaklining «singan» joyida, ya'ni narsalarning shakllar burilish joylarida hamda qarama-qarshi foni bilan kesishgan chegaralarida aniq va ravshan ko'rinadi



Natyurmortlarda och-to'qlik va rangdorlik qarama-qarshilik

OCH-TO'QLIK QARAMA-QARSHILIK

Och-to'qlik bo'yicha qarama-qarshilikni rassomlar narsalarning turli tusliligini tasvirda belgilash uchun qo'llashadi. Och ko'rinishdagi narsalarni to'qroqlari bilan bir qatarga joylashtirib, ular ranglarning jarangdorligi va qarama-qarshiligini kuchaytiradi va shu bilan shaklning ifodaliligiga erishadi.



Och-to'qligi bo'yicha qarama-qarshilikka misol

Qora kvadratdagi kulrang ancha ochroq, oq kvadrat ichidagisi esa ancha to'qroq ko'rinadi. Bunday hodisa – och-to'qlik ranglarning bir vaqtdagi qarama-qarshiligi deyiladi.

RANGLI QARAMA-QARSHILIK

Narsalar rangini atrofda sharoitga – yoritilishiga, qo'shni rangiga, foniga bog'liq holda qabul qilamiz. Oq dasturxon havo rangda bo'lib ko'rinadi, agarda unga zarg'aldoq apelsinlarni qo'ysak, va och qizil bo'ladi qachon-ki, agarda yashil olmalar joylashtirilsa. Buning bo'lishini sababi, fonning ranglari narsalar rangiga nisbatan qo'shimcha ranglar tusini o'ziga oladi. Qizil narsalar yonida kulrang foni sovuq tuyuladi, ko'k va yashil bilan yonma-yon bo'lganda - iliq.

Masalan, rasmda berilgan uchta kulrang kvadrat bir hil, ko'k fondagi kulrang zarg'aldoq rangida tulsansa, sariqdagi - siyohrangda, yashildagi - pushti, ya'ni fon rangiga qo'shimcha ranglar tuslarini o'zlashtiradi. Narsalar rangi och fonda ancha to'qroq, to'qrog'ida esa ochroq bo'ladi.



Rangli qarama-qarshilikka misol

Rangli qarama-qarshilik hodisasi shundan iboratki, rang boshqalar ta'sirida, uning atrofidagi ranglar, yoki ranglar ta'sirida o'zgaradi.



Rangli qarama-qarshilikka misol

Kolorit asosan tabiatni, maishiy buyumlarni, insonlarni milliy xususiyatlarini ko'rsatishda asosiy vosita hisoblanadi. Bunday vaziyatda milliy kolorit haqida gapirishadi. Misol tariqasida O'.Tansiqboyev asarlari aytish mumkin. Ayrim vaqtda rassom koloritini uning palitrasi orqali bilish mumkin.

Rangtasvir san'ati – ranglar va yorug'lik munosabatlarini mahorati.

TABIAT VA RANGTASVIRDAGI RANGLAR

"Rangtasvir – tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin" – deb aytgan edi K.F.Yuon.

Manzara etyudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och to'qligi va to'yinganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va

ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi.

Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma'lum buyum va narsalarning o'ziga xos ranglari ongimizda singib boradi (paxta-oq, o'tlar – yashil, osmon – havo rang, dengiz – ko'k va boshqalar). Bu ranglar buyum va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo, buyum va narsalardagi shaxsiy rang turli yorug'lik ta'sirida o'zaro o'zgaruvchan bo'ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta'sirida buyumning rangi turlicha ko'rinadi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko'kimsir-yashil tusga kiradi, yashil muhitda – pushtisimon, sariqda esa – ko'kimsir bo'ladi.

Qizil qog'ozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qog'oz ustiga qo'yilsa kulrang qog'oz yengil yashilsimon rangda bo'lib ko'rinadi. Agar qizil doiraning o'rniga yashilni qo'ysa, kulrang qog'ozda qizg'ish tus hosil bo'ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tuslari (qo'shimcha) hosil bo'ladi. Shu sababli ham tabiatda "xira" neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdagi soyalar ham nozik yengil ranglar bilan to'yingan. Yonma-yon bo'lgan qo'shimcha ranglar o'zining yorqinligini kuchaytiradi (qo'shimcha va qarama-qarshi ranglar – bu qizil va yashilsimon – havorang, zarg'aldoq va havorang, sariq va ko'k, sarg'ish-yashil va binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o'zgaradi (havo perspektivasi).

Yuqorida sanab o'tilgan ta'sirlar natijasida buyumning rangi, rangning tusi bo'yicha ham, yorug'ligi va to'yinganligi bo'yicha, yoki uchala xususiyatlar bo'yicha bir vaqtda o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgargan rang endi buyumning shaxsiy rangi emas, balki u shartlidir.

Manzarani tasvirlash qonuniyatlari to'g'risida Florensiyalik buyuk rassom Leonardo da Vinchi o'z risolalarida ko'z oldida turgan manzarani to'g'ri tasvirlash mahorati qonuniyatlarini bayon qiladi, shuningdek, tasvirda yorug'lik va soya mutanosibliqi qoidalarini batafsil tushuntirib beradi. Tabiatning shunday bir ajoyib qonuniyatiga e'tibor qiladi: olis masofadagi narsa nafaqat kichrayib, balki rangi ham birmuncha xiralashgan tarzda ko'rinadi. Shunga

asosan, ulug' rassomning nazariyasiga ko'ra, manzarani tasvirlashda uzoqroqdagi narsalarning shaklini kichraytirib chizish bilangina kifoyatlanmaslik kerak. Oldinda, birinchi ko'rinishda turgan narsalarni o'ziga mansub tabiiy bo'yoqda tasvirlash, orqaroqdagi manzarani esa yengilgina xira ko'rinishda, nim havorang bo'yoq bilan tasvirlash zarur. Leonardo da Vinchi mo'yqalamiga mansub sehrli manzaralarda ana shu qonuniyat yaqqol aks etadi.

Buyumlarning shakl va ranglarini haqiqiy va tabiiy holatda ko'rish va qabul qilish odatini ruhshunoslar odatiy ko'rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko'rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang dog'larini ko'rishadi, balki narsalarni haqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini ham shu qatorda qabul qiladi.

Tajribali rassomlar yorug'lik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlarni ham bo'yoqlar vositasida mohirona tasvirlaydilar.



S.Kolibanov. Unutilgan buyumlar

Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko'zdan kechirsak, hammasida ko'kimtir - yashil tuslar yig'indisini ko'ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun'iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg'ish - olovrang yoki qizg'ish koloritni ko'rish mumkin.

V.Serov, I.Repin, M.Nabiyev, O'.Tansiqboyev, R.Ahmedov, A.Mo'minov, I.Haydarov, P.Benkovlarning ko'plab asarlarida sun'iy elektr

yorug‘ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligini guvohi bo‘lamiz.

Naturadan tasvirlanayotgan ranglavxa koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yorug‘lik manbai bilan yoritilganligiga bog‘liq.

KOLORIT

Rang birikmalari rangtasvirda g‘oyat muhim vazifani bajaradi. Odatda yorqinligi va tusi bir-biriga yaqin bo‘lgan ranglar o‘zaro birlashadilar. Ranglar o‘zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jarangdorlik kasb etib sifat o‘zgarishlariga yuz tutishi ko‘zga tashlanadi. Umumiy “kolorit”dan ajralib qolgan rang nomuvofiq - begona bo‘lib ko‘rinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur yetkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o‘zaro bog‘liqligi asosida quriladi.

Kolorit (italyancha *Colonio*, lotincha *color* – rang, bo‘yoq) – tasviriy san‘at asarlarida voqelikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o‘zaro mutanosibligi¹.


Tasvirdagi turli ranglarning garmonik, go‘zal tus birikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi “**kolorit**” deb ataladi.

Voqelikni ta’sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo‘lgan kolorit asarning g‘oyasi, mazmuni, davri, uslubi hamda muallifning shaxsiga bog‘liq. Tarixda voqelik tasvirida mahalliy ranglar ozmi-ko‘pmi cheklanib, ramziy ranglardan ko‘proq foydalanish (o‘rta asrlar san‘atida) va voqelikni barcha bo‘yoqlarda (uning rang, tus, yorug‘-soya va boshqalardan foydalanib) rangdor ifodalash an’anasi shakllangan. Kolorit ranglar uyg‘unligiga ko‘ra, iliq (qizil, sariq, zarg‘aldoq) yoki sovuq (ko‘k, yashil, binafsha), sokin va jiddiy, och yoki to‘q, rangdorligiga ko‘ra, yorqin, xira va boshqa bo‘lishi mumkin. 1-2-rasmlar.

¹ O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 2002. O‘zbek milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 4-tom, 664-bet.



N.Bannikov. Qovoq bilan natyurmort



Sovuq ranglar gammasi

Ranglar uyg'unligi, uning to'ldirilishi va keskinligiga amal qilib, betakror va murakkab kolorit yaratiladi (Velaskes, Titsian, V.I.Surikov, I.E.Repin, O'zbekistonlik rassomlaridan P.Benkov, U.Tansiqboyev, Z.Kovalevskaya, Ch.Ahmarov va boshqalarning asarlari.)

Kolorit bizga olamning boy, rang-barang va go'zalligini ochib beradi. U musavvirga tasvir xolatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlatiruvchi, xavotirli, mayus bo'lishi mumkin, shuningdek iliq va sovuq, yorqin va bo'g'iq bo'ladi. O'tmish ustozlarning rangtasvir asarlari quyidagi ayrim davrlarda kolorit rivojini kuzatish imkonini beradi. Kolorit tushunchasi XV asrning oxirlarida shakllanib, Borokko davrida ravnaq topdi. Undagi dastlabki o'zgarishlar asr oxirlarida namoyon bo'la boshladi. Bu davrda bo'yoqlarni alohida-alohida qo'ymasdan ranglarni silliq yedirma qilib, ishlashgan. Keyinchalik konstebelga, ayniqsa, impressionistlarga kelib bu hol yana keskinlashdi. Shu sabab ajoyib rus san'atshunos olimi B.Vippening ilmiy asarlari aynan rangtasvir koloriti tarixiga ham bag'ishlanganligi bilan e'tiborlidir.



T.Oganessov. Anorlar

Rang va shakl bir butunlikka ega bo'lib, bo'yoqni yorug'lik bilan fazo bo'shlig'ida bir-biridan ajratib bo'lmay qoladi. Bellinidan Titsian va Tintorettagacha bo'lgan davr – bu asl koloritning tuslarga aylanish davridir.

Agar XVI asr rangtasvirida rang umuman hayotni bildirgan bo'lsa, ularning qamrovi tobora osha bordi. Yangi aks tuslar paydo bo'la boshladi: Korovadjoda - yorqin-qizil, iliq-yashil, jigarrang-sariq, och havorang-ko'k; Velaskesda - qora atrofida ko'z ilg'amas yedirmalar, kulrang, oq, pushti ranglar jilolandi va hokazo...

Rembrandt o'z palitrasini to'q tuslar bilan chegaralaydi, biroq unda rang yangicha jonlantiriladi va sirli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Uyg'onish davri rangtasvir ustalari, masalan, Titsian rangdan asl hayotning bir ko'rinishi sifatida foydalanadi. Borokko davrida rang ko'p jihatlar bilan rangtasvir fantaziyasida estetik vazifalarni bajaruvchi bir element sifatida ishtirok etadi.

O'tmish ustozlar o'z asarlarini ifodalashda ko'rkam, rang-barang uyg'unliklar, tuslar aralashmalari, murakkab texnik uslublarni asos qilib olganlar. Ular kuchli rang va tus kontrastlarini ishga solganlar. Shuningdek, ular istagan rang tuslariga erishish uchun lessirovka usulidan foydalanaganlar.

XVIII asrga kelib rang bilan bog'liq estetik rang-baranglik yanada antiqa va murakkab tus ola boshladi. Musavvirlar inson siymosi, sochlari va kiyimlari

uchun yagona rangning nozik tuslarini tatbiq etdilar. Oq, och sariq, och jigarranglar birinchi planga chiqdi. Turli g'oyalar kurashi, rang va shakl o'rtasidagi qarama-qarshiliklar XIX asrga mansubdir. Bu davrda rang tadqiqotlarning asosiy manbai bo'lib qoldi. XIX asr rang tasvirlari, ayniqsa impression guruhlari yorqin rangdan ham yorqinini ajratib, oftob nurlari taralishini ifoda etishni o'zlashtirdilar. Ular rangning optik birikmalari taassurotlaridan foydalangan holda rang kontrastiga ko'proq e'tibor qilganlar va toza bo'yoqlarni ishlata boshlaganlar.

Ma'lumki koloritni sezib, idrok qilish juda muhim qobiliyatdir. I.Repin, V.Surikov, K.Korovin, M.Vrubel, P.Benkov, O'.Tansiqboyev, Sh.Abdurashidov va shu kabilar haqiqiy koloristlar edi. I.Repin asarlari iliq ranglar – tilla rang, sariq, qizillar bilan tasvirlanganligi uchun rangtasvir koloritining yorqin ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

V.Surikov xush ko'rgan kolorit – havorang, ko'k, sovuq ranglardan tashkil topgan edi. Uning ko'pchilik asarlari kumushrang koloritda tasvirlangan.

F.Malyavinning ko'pchilik asarlari olovrang – qizil kolorit bilan ajralib turadi. Ko'pincha kolorit milliylik, tabiiylik, insoniylik xususiyatlari va ro'zg'or buyumlarini aks ettirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu xususida “Milliy kolorit” tushunchasi to'g'risida so'z yuritiladi. Yu.Elizarov, Ch.Axmurov, S.Kolibanov, R.Axmedov asarlari bunga misoldir. Har bir musavvirning o'ziga mansub koloriti mavjud bo'lib, bunga uning ishlangan tasviriy asarlari – umumiy palitrasi guvoh bo'la oladi.



Yu.Elizarov. Natyurmort. Qovunlar

Rangtasvir san'ati – rang va nur uyg'unligi san'atidir.

Musavvirlar o'z ijodiy ishlarida rang uyg'unliklari ustida bosh qotiradilar. R.Axmedovning “Yoz ne'matlari” asarida havo rang yetakchi bo'lib, u havo rang koloritda bajarilgan.



R.Axmedov. Yoz ne'matlari

Asarning tabiat qismiga qarasak sovuq koloritda bajarilgan. Uning natyurmorti, ya'ni birinchi planda berilgan yoz ne'matlari tasviri qismi esa iliq rang koloritida bajarilgan. Lekin manzara koloriti ham natyurmort qismidagi iliq kolorit ham shunday uyg'unlikda topilganki, natijada asar yaxlitligi ta'minlangan. Birinchi plandagi shaftoli, uzum, qovun va boshqalar tabiatdagi ranglar bilan uyg'unlikda ishlangan. Tushdagi tabiat tasviri orqali natyurmort ko'rinishi jonli taassurot qoldiradi.

Birinchi planning iliq koloritda bajarilganligi tomoshabinni o'ziga jalb etadi va o'ylarga toldiradi.

Unda ranglardan kontrast ranglardan deyarli foydalanilmagan. Shuning uchun ham asar mayin sokin holat tassurotini beradi. Tabiat va natyurmortning yozgi ne'matlarni yetilib pishgan laxzaga ishora qiladi. Ushbu asar sokin koloritda bajarilgan. Birinchi plandagi turli-tuman ranglar ikkinchi va orqa plandagi narsalar rangi bilan havo perspektivasi asosida uyg'unlashib ketgan. Shu tarzda asar koloriti ta'minlangan.

Xulosa qilib aytganda kolorit asar mazmunini va g'oyasini musiqadagi dirijor vazifasini bajaradi. Kolorit tushunchasini qiyomiga chiqarib o'rgatish tayyorlayotgan kadrlarimizni kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Savollar

1. Tabiat ranglari haqida so'zlab bering. Spektr ranglarni sanab o'ting.
2. Axromatik va xromatik ranglar nima?
3. Qaysi ranglarni iliq va sovuq deb atashadi. Iliq gammada bajarilgan badiiy asarlardan misol keltiring.
4. Rangning asosiy uchta xususiyatini sanab o'ting.
5. Rangtasvirda rangli va och-to'qlik tuzlarni qo'llashi haqida gapirib bering.
6. Narsalarning lokal rangi deganda nimani tushunasiz?
7. Narsalarning lokal rangi turli-tuman ottenkalardan hosil bo'lishi mumkinmi?

2–BOB. NATYURMORT RANGTASVIRI XUSUSIYATLARI NATYURMORT ISHLASHDA RANGTASVIR MATERIALLARIDAN FOYDALANISH

/Akvarel, guash, tempera va moybo‘yoq /

Akvarel - rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o‘zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko‘pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan.

Akvarel lotincha so‘z bo‘lib “suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo‘yoqlar” ma‘nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo‘yoq moddasi (o‘simlik yoki ma‘danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda sifatida olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo‘lgani uchun bo‘yoqqa suv qo‘shib suyultirib ishlatiladi.



Akvarelda oq rang ishlatilmaydi, uning o‘rnini oq qog‘ozning o‘zi o‘taydi. Qog‘oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budur bo‘lishi zarur. U agar juda silliq bo‘lsa, satxida ranglar yetarli darajada tekis yotmaydi. Narsa va buyum tasvirlarini bo‘yash jarayonida umumiydan xususiya yoki aksincha xususiya umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Rassom uchun eng muhimi o‘tkir nigoh, mohir qo‘l, tinimsiz mehnat orqali akvarel bilan ishlash texnikasini mukammal egallashdir. Bunga tarixdan juda ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

Masalan, XV asr oxirida Uyg‘onish davrining mashhur nemis rassomi A.Dyurer akvarelda juda ko‘plab ajoyib asarlar yaratgan. Go‘zal va betakror tabiat manzaralari, hayvonot dunyosi va o‘simliklarni ajoyib qilib tasvirlash,

shu mo'yoqalam sohibining naqadar yuksak mahorat egasi bo'lganligining isbotidir.

Rangtasvir texnikasini egallash birinchi bosqich talabalari akvarel texnikasida ishlashni o'qituvchi rahbarligida boshlang'ich sessiya davrida o'rganadilar. O'quv dasturi talabalardan rangshunoslik fanining ilmiy negizlarini egallashni, rangtasvirda ishlatiladigan turli ashyolarning xususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo'llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun dastur amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtihon paytida esa amaliy vazifalar ko'rigidan tashqari, og'zaki so'rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir san'ati nazariyasi va metodlarini o'rganishdan maqsad vazifalarni mukammal bajarib borishdir. Talabalar auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim.

Natyurmortning qalamtasvirini bajarishga qo'yiladigan talablar, narsalarning hajmli shaklini tasvirlashdan iborat bo'lsa, bo'yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug'-soya, tus ham rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat och-to'qligini ko'rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar ~~bu~~ un majmuasi va barcha sifatlari bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni bo'yoqlar ~~bilan~~ tasvirlashda narsa va buyumlar o'zining aniq rangi bilan emas, balki atrofdagi boshqa turli ranglar bilan bog'lanishda ko'zga ko'ringan rangi ifodalanadi.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin.

Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora), qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va x.k) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar, o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldog' ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k rangning aralashmasidandir. Binafsha esa qizil va ko'k rangni aralashtirishdan hosil bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori **sovuq** rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq

rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Huddi shunday, binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, natyurmortning rangtasvirini ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek rang nisbatlarini ham ochib ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushoxada orqali erishish mumkin.

Natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangli bo'yoqda yozish usuli grizayl deb ataladi. Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu uslub bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan natyurmort rangtasvirini ishlashga o'tish mumkin.

GUASH. Guash bo'yoqlari akvareлга nisbatan o'laroq, nursiz tiniq emal. Guash bo'yoqlarining tarkibida ham akvarel bo'yoqlari singari moddalar (pigment va bog'lovchi) mavjud. Chunki uning har bir rangini tayyorlashda turli miqdorda oq bo'yoq (belila) qo'shilgan bo'ladi. Aynan guash bo'yoqlarida bajarilgan tasvir qurigach bir muncha mayin va oqimtir ko'rinishga ega bo'ladi.

Guash bo'yoqlari suvda oson eriydi, tekislikni silliq qoplaydi va nursiz bo'lib ko'ringanligi uchun ulardan asosan amaliy bezak san'atida foydalaniladi. Guash bilan ishlash qiyinligi bo'yoqlar qurigach oqaradi, shuning uchun rassom ranglardagi jiloni avvaldan tasavvur qilish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun guash bilan ishlashda tayyor murakkab bo'yoqlarda ish olib borgan afzalroq, u ham oldindan ranglar qo'shilmasidan tayyorlanib sinab ko'rilgan bo'ladi: tasvirlashdan oldin asarning rang yechimi asosini ta'riflaydigan asosiy ranglar aniqlanadi. Tayyor murakkab bo'yoqlarni aralashtirish orqali ikki rang o'rtasidagi tusalarni hosil qilish mumkin. Oldindan tayyorlangan zarur bo'yoqlar monumental naqshlarda, plakatlarda va turli bezatish ishlarida unumli foydalanish mumkin.



Etyudda guash bo'yoqlari bilan nozik tusli o'tishlarni namoyish etish uchun (masalan, inson gavdasini tasvirlashda) shaklni tuzish uchun yuqori malaka talab etiladi. Qisqa muddatli etyudni bajarishda (masalan, manzara) va turli kompozitsiyalarga eskizlar ishlashda xamirsimon va yupqa qatlam qoplash birligida quruq bo'yicha ishni yurgizib muallif g'oyasiga muvofiq rangli dog' o'yinini yaratib surtma uslubida tasvirlash o'rindir.

Taniqli rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatib guash texnikasidan foydalanish qanchalik rang-barang ekanligini ko'rish mumkin.

Guash texnikasida B.M.Kustodiyev ham talaygina ish bajargan. Uning «Yarmarka» nomli asari rassomlarga xos keng, ma'noli, bezatuvchanlik uslubida tasvirlangan.

Rangtasvir ustalari akvarel ishlarida tez-tez guashdagi oq rangdan (belila) foydalanib, kartinani ayrim qismlarini tasvirleydilar. Bunga misol tariqasida K.F.Yuon va S.V.Gerasimovning bir qancha akvarel ishlari misol bo'la oladi.

Guash bo'yoqlaridan teatr dekoratsiyasi eskizlarini, manzara, interer, uy jihozlari, buyumlarini umumlashtirilgan holda hamda sahnalardagi yoritg'ichlarni keskin farqlarini yetkazishda keng ko'lamda qo'llaniladi. Aktyorlarni (kiyimlarining) kostyumlarining eskizlari ham ko'proq guashda bajariladi, chunki u yorqin tus berishi bilan birga uning yuzida jozibali naqshlar tasvirlashga ham imkon tug'iladi.

Bezak ishlari uchun fluoressentli guash bo'yoqlari ishlab chiqarilmoqda.

Bu bo'yoqlar ultrabinafsha va ko'zga ko'rinarli binafsha, ko'k va yashil nurlari ta'sirida fluoressentlanish qobiliyatiga ega. Natijada pigmentdan aks etgan va nur sochayotgan yorug'lik sariq, zarg'aldog' va qizil nurlarni kunduz

kuni tushayotgan yorug'likdagiga nisbatan ko'proq bo'ladi, shular hisobiga bo'yoqlar yorqinligi va to'yinganligi ikki-uch barobar kuchayadi.

Fluorescent guashi sun'iy yoritishda (ultra binafsha nurlari bilan nurlantirilganda) o'zining yorqinligini kuchaytirish xususiyatiga ega, chunki dekoratsiya effektlari hamda qorong'ida foydalaniladi.

Bo'yoqlarni ultra binafsha nurlar bilan nurlantirish uchun odatda kvars lampalari bilan birgalikda ultra binafsha yoritg'ich filtrlar qo'llaniladi. Bunday nozik yoritish ko'k, yashil va binafsha tuslarni ancha yorqin va to'yinganliroq bo'lishiga imkon beradi, kunduzgi yoritg'ichlarda ularni yorqinligi pastroq bo'ladi. Oq bo'yoqni yoritish natijasida ko'kimtir nurlanish beradi.

Amaliy topshiriq:

Guash bo'yoqlari suvda suyuq qaymoqsimon holatga kelguncha aralashtiriladi. Guashni qog'ozga yoki mato ustiga yupqa silliq qoplanishi uchun, dastlabki qatlamning namligida ustma-ust boshqa rang bilan bo'yash lozim.

Tekislikni rang qatlami bilan silliq bo'yash uchun, dastlab mo'yqalam suvda ho'llanadi, keyin esa u bilan bo'yoqni olish mumkin. Ishni boshlashdan oldin bo'yoqlar alohida kosachalarda eritib olinadi, (so'ngra undan me'yoriga yarasha foydalaniladi).

Ishlash jarayonida zarur tuzatishlar faqat bo'yoqlar namlangach yoki esa o'tkir olmos bilan amalga oshiriladi.

Guash bilan ishlashda yumshoq, yapaloq va yumaloq egiluvchan mo'yqalamlar qo'llaniladi: ayrim rassomlar esa egiluvchan yumaloq yoki dag'al junli mo'yqalamlardan foydalanishadi.

Guash bo'yoqlari bilan ishlashda asosiy qiyinchilik shundaki, bo'yoq qurish natijasida yorug'ligini yaqqol o'zgartirib rassomga ijod vaqtida ranglar va tusli munosabatlarni to'g'riligini kuzatib borishiga qiyinchilik tug'diradi.

Qurigan guash rangini oldindan aniqlash uchun bo'yashga tayyorlangan bo'yoqdan foydalanish mumkin. Umuman olganda guash bilan ishlash ma'lum bir ko'nikmalarni talab etadi.

Guashni uy haroratida zich yopilgan shisha idishda saqlash lozim.

Mabodo, guash qurib qolgan bo'lsa unga osongina qayta ishlov berish mumkin. Buning uchun bo'yoqqa suv quyiladi yoki yaxshisi 1 foizli jelatin eritmasi yoki yog'och yelimi bilan 2-3 kun davomida eritilib bir xil qaymoqsimon modda hosil bo'lgunga qadar aralashtiriladi.

Guashda bajarilgan ishlarni papkada saqlash lozim. Bunday ishlarni bo‘yoq qatlami sinuvchanligi tufayli, trubka shaklida o‘rash aslo mumkin emas, chunki juda qalin qatlamda berilgan bo‘yoq ko‘chib tushishi mumkin.

TEMPERA.

Tempera bo‘yoqlari emulsiyaning bog‘lovchi moddalaridan tayyorlanadi. Emulsiyani barcha turlari uchta qismdan iborat: suv, har turli yelim (kazein, tuxum oqi va sarig‘i, gummiarabik, dekstrin, sovun) va moy. Yelim eritmasini, moy bo‘laklari bilan mexanik ravishda aralashtirishda emulsiya xosil bo‘ladi. Bog‘lovchi modda tarkibiga moy qo‘shilib bo‘yoqlarni muloyim qiladi va yorilishni oldini oladi.

Moybo‘yoqqa nisbatan tempera bo‘yoqlari tez vaqtda quriydi, shuning uchun birinchi qatlami butunlay qurigandan keyin kunaro takroran ustidan bo‘yash mumkin. Tempera bo‘yoqlari chidamlidir. Qadimgi ustalarni tempera bo‘yog‘ida bajargan asarlari shu kungacha yaxshi saqlanib kelmoqda.

Tempera bo‘yoqlarida rangtasvir bajarishning turli usullaridan foydalanish mumkin, ya‘ni nam holda, ko‘p qatlamli rangtasvir, alohida bo‘yoq surtmalari bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. Qisqa vaqtli etyudlarda «alla prima» usulini qo‘llash juda ham maqsadlidir, chunki ranglar munosabati birdaniga olinadi, buyumlar shakli erkin mustaqil surtmalarda bajariladi va qo‘yilgan bo‘yoqlar hali qotib ulgurmasdan tugatiladi.

Rassom yengil nozik tusli o‘tishlarni (masalan, osmon, bulutlarni tasvirlash, suvdagi aksini ko‘rsatish, kiyimlarning burmalari, uzoqdagi narsalarni ko‘rinishlari va h.k.) tasvirlashda ho‘l qatlam ustiga qo‘yish usulidan foydalanib, yengil bir-biriga yaqin tuslarni mohirona bajaradi.

Temperaning rangli tasvirida asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun bir qator maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni bajarish tavsiya etiladi.

Birinchi natyurmortni masalan, sopol qumg‘on, qizil olma va xavo rang matodan tuzish mumkin. Asosiy vazifa ranglar munosabati va tasvirdagi shakllarning yorug‘ va soya bo‘laklarini umumlashtirilgan holda ko‘rsatishdan iborat.

Tempera bo‘yoqlarida bajarilgan natyurmortlar jozibali ko‘rinishi va bezakli bajarilishi bilan ajralib turadi. Masalan, dekorativ natyurmort ya‘ni, sopol ko‘za, gullar, (shakli jihatidan kattaroq, masalan, ko‘knori guli yoki kuzgi barglar bilan), bezakli burmali gulli ornamentlar bilan bezatilgan mato ustida rang jihatdan to‘yingan ikkita-uchta yirik olmalar bo‘lishi mumkin. Bir nechta gul yoki barglarni stol ustiga qo‘yish ham mumkin. Och fondagi qo‘yilma

kunduzgi yorug'likda gullar dastasi umumlashgan holda idrok etilib yaxlit siluyetda fonga nisbatan to'qroq bo'lishi kerak.

Asosiy e'tibor natyurmortni umumiy ranglar gammasini yetkazishga qaratish lozim. Tempera bo'yoqlarini katta rangli surtmalar yuritish imkoniyatini afzalligidan foydalanib ishni to'yingan bezakli munosabatlari bilan olib borish lozim.

Keyinroq esa murakkab bo'lgan natyurmort, san'at atributlaridan tuzishni tavsiya qilamiz. Bu yerda rassom ashyolari (bo'yoqlar, mo'yqalamlar, antik gipsli kalla, qog'oz ruloni, mato va h.k.) bo'lishi mumkin.

Tempera bo'yoqlari dastgohli dekorativ (bezakli) va monumental rangtasvirlarda keng qo'llaniladi (plafon, panno bezashlarida).

MOYBO'YOQLI RANGTASVIR.

Moybo'yoqli rangtasvirda ham akvareldagidek uzoq muddatli ish jarayonini boshlashdan oldin ushbu qo'yilmadan kichik o'lchamda etyud eskizini bajarish zarur, undan maqsad qo'yilma kompozitsiyasini va rang munosabatlarini aniqlashdir. Etyud-qoralamadan tashqari bo'yoq bilan ishlash oldidan qalamtasvir bajariladi. Akvarel bo'yog'i bilan ishlashga mo'ljallangan tayyorlov qalamtasviridan farqli matoda faqat eng muhim va asosiy shakllar tasvirlanib, mayda-chuyda ikkinchi darajali narsalar tushirib qoldiriladi. Shunday bo'lsa ham buyumlarni kompozitsion joylashuvi, nisbatlari, perspektiv va konstruktiv qurilishi, narsalarning kenglikdagi joylashuvi aniq bo'lishi kerak.



O.Bakirov. Anorlar

Bo'yoq bilan ishlashga shoshilmang. Avvalo etibor bilan natura qo'yilmasini kuzating, narsalarni rangi och-to'qligi, rang kuchi, ya'ni shu uchta xususiyati bo'yicha rang farqlarini anglab yetmaguncha taqqoslang. Shu bilan birga hajmdor shaklni, uning ranglarini va fazoviy yorug'lik muhitning o'zaro murakkab tasirini tushunish kerak. Yoritilishning umumiy tusli va rangli holatini yoddan chiqarmaslik, hamda shu holatni natura qo'yilmasining o'zida aniqlash zarur. Faqat naturaning to'liq tahlilidan so'ng etyuddagi rang munosabatlarini qurish va naturaga taaluqli koloritni berish mumkin.

Qalamtasvirni tugallagach matoga yupqa qatlamli bo'yoq berishga o'tiladi. Dastlabki bo'yoq berishda asosiy tusli va rangli munosabatlarni aniqlab borib, matoning katta joylarini oq bo'yoqdan kamroq foydalanib bo'yab chiqiladi.

Ishlash jarayonida doim munosabatlar bilan fikr yuritish, narsalarning bir-biridan (uning uchta sifatida) rang bo'yicha qanday farqlanishini o'ylash, qo'yilmani yaxlit idrok etishga va rang munosabatlarini, yorug' qismlarini yarimsoyalari, soyalari va reflekslarini taqqoslashga intilish kerak.

Agar natyurmortda kamerton sifatida xizmat qiluvchi (masalan, to'q sopol ko'za) to'qroq narsa bo'lsa, ishni shundan boshlagan ma'qul. Keyin esa bu to'q narsani yonidagi bilan, ancha yorug'roq bo'lgan narsalar va fon bilan bo'lgan munosabatlarini aniqlash zarur. Natyurmortning asosiy to'qroq qismlarini ranglar bilan qoplagach, yarimtusli va reflekslarga o'tiladi.

Rangtasvirda biror buyumni uzoq vaqt tasvirlash mumkin emas. Agarda ish shu zaylda davom ettirilsa, unda alohida tasvirlangan narsalar to'plami hosil bo'ladi. Shuning uchun tez-tez bitta narsadan boshqasiga, fonga, stol tekisligiga va h.k. o'tish kerak. Tasvirdagi narsani yorug'ligi yetarli emasligini ko'rib talabalar uni yoritishga harakat qiladi, aslida esa uning yonidagi joylarni va atrofdagilarni hammasini to'qlashtirish kerak.

Ishning keyingi bosqichi narsalarning shakllaridagi yaxlit rang munosabatlarini aniqlash bilan davom etadi. Yana bir marta ta'kidlaymizki, ranglash jarayonida narsalar alohida tasvirlanmasdan, bir vaqtda doimiy taqqoslash bilan iliq va sovuq tuslarning murakkab o'zaro munosabatlarini namoyon etib yarimsoya, soya va reflekslari hamda yorug' qismlari aniqlashtiriladi. Molbertni o'ziga yaqin joylashtirish noto'g'ri, chunki bu narsalarni alohida izohlashga, tasvirni esa yaxlit idrok eta olmaslikka olib keladi. Shuning uchun molbertdan tez-tez uzoqlashib turish tavsiya qilinadi: bu esa ishni unumlashtirib samarali bo'lishiga imkon beradi.

Etyudni tasvirlashdan oldin qo'yilmaning umumiy ranglar qatorini hisobga olib, yorug' joylarini soya qismlari bilan taqqoslab rang munosabatlarini umumlashtirib olish kerak. Narsalarni yoritilgan joylarini yaxlit bo'yash, to'qroq joylarini yupqa qatlam bilan imkon boricha oq bo'yoqlarni qo'llamasdan tasvirlash kerak.

Narsalarning och-to'qligi, ranglari bo'yicha va yorug' soya tomonlarini taqqoslayotib ularni umumiy rangdor nozik bo'yoqlar bilan birlashganini sezish mumkin. Natiyurmortdagi hamma soyalar xona devorlaridan aks etayotgan yorug'lik bilan yoritilgan. Agarda natiyurmortning atrofidagi devor zarg'aldog' rangda bo'lsa, unda barcha soyalar iliq rangda bo'ladi. Agarda derazadan tushayotgan yorug'lik havo rang bo'lsa, u holda yoritilgan joylarni hammasi sovuq rangda bo'lib, sovuq yoritish bilan soyalardagi iliq ranglar qarama-qarshiligi yanada sezilarli bo'ladi.



G'.Abduraxmanov. Samovar
bilan natiyurmort



G'.Abduraxmanov
Baliq bilan natiyurmort.

Yirik ko'rinishdagi ranglar va yorug'-soya munosabatlari topilgandan so'ng, hajmdor narsalarni yorug' soya bilan (rang bilan ifodalangan) modellashga o'tamiz.

Hajmdor narsalarning (qovoq, tarvuz, olma, pomidor, aylana idish) silliq sirtlarini tasvirlashda shaklni «yasash» zarur. Qirrali narsalarda tus va rang farqlari yaqqol ko'rinadi: kubda uchta qirra va mos ravishda uchta har xil tus va ranglari mavjud. Kubda qirralar sonining ko'payishi asta sekin shaklni sharli sirtga yaqinlashtiradi. Bunday jismning har bir qirrasi turli yorug'lik va turli rang farqiga (reflekslar kuchiga) ega bo'ladi. Shuning uchun ko'p qirralilar kabi

sharning yoki silindrning yumaloq sirti ham, rangi va tusi jihatdan ikkita bir xil joyga ega bo'lishi mumkin emas. Bular hammasi turli joylarda turlicha bo'ladi.

Rassom ish jarayonida barcha bo'yoqlar farqini bir vaqtda ko'rib, sezib turishi, ularning och-to'qlik munosabatlarini, ranglar farqi va ranglarning to'yinganligini aniqlab olishi va bu munosabatlarni matoda xaqqoniy tasvirlashni bilishi zarur.

Albatta, ikkita bir – biridan farq qiladigan ranglarni ko'rish va uning munosabatlarini tushunish qiyin, uchta yanada mushkulroq barcha naturani yaxlit qabul qilinishi esa yanada murakkabroq.

Narsaning o'ziga qarab ishlash jarayonida qayerda narsalarni tashqi ko'rinishi keskin namoyon bo'ladi, qaysi joyda fon bilan qo'shilib ketishini, hamda qayerda soyaga yengil o'tishini sezib turish zarur. Narsalardagi mayda bo'laklar umumiy shaklga bo'ysunishi kerak. Rangtasvirning asosiy prinsipi-muhitdagi narsalarni barcha sifatlarini uyg'unlikda ko'rsata bilish. Bezakli rangtasvirga moyil rassomlar naturada kuzatilayotgan nozik yorug'-soyali va ranglar gradatsiyasini (bosqichlariga o'tish izchilligini) inkor etib soya-yorug' va ranglarning nozik farqlarisiz tasvirning rangli qurilishi, narsalarni shaxsiy yoki shartli ranglarning jarangdorligiga va faolligiga asoslanadi. Bu yo'l to'laqonli dastgohli rangtasvirdan boshqa tarafga yo'naltirib, uning hissiyotli ta'sirini kuchsizlantiradi.

Daraxtning soyasida joylashgan natyurtmortni tasvirlayapmiz deb faraz qilaylik. Turli rangdagi narsalarni qanday qilib uyg'unlashtiriladi, bunday holatda faqat ma'lum bir joyga xos bo'lgan ranglarga tayanish mumkin emas.

Har bir narsaning shunday rangini topish kerak-ki, u muayyan joyga mos rangni ham, umumiy yashilda yoritilayotgan rangni ham o'z ichiga olish kerak. Agarda hosil bo'lgan bo'yoqlar gammasiga qandaydir yashil rangdagi yoritg'ichga tasir qilmaydigan erkin rangni qo'shsak, uning monandligi buziladi.



G.Chernuxin. Paxta maydonidagi natyurmort

Shunday qilib, etyudning ranglar qatorini vazminligi va uning birligi, ranglarning mutanosibligi va ularning orasidagi o'zaro reflekslar va yoritg'ich bilan shartlangan yaqinligini topish orqali yaratiladi.

O'quv natyurmortning bajarilishi eng to'q tusni asos qilib olingan joyini qidirishdan boshlanadi. Shundan so'ng to'qshiroq narsalarni yaqinda joylashgan tusni va boshqa rangini naturada aniqlab uni politrada tanlanadi. Soya joylariga rang berib yonidagi yarim tuslarga esa oq bo'yoqni qo'llamaslikka harakat qilinadi. Dastlabki suyuq bo'yoqni berishda och-to'qligi, rangi va to'yinganligi bo'yicha soyalarni soyalar bilan, yarimtusni yarimtus bilan, yorug' joylarni esa yorug'lari bilan taqqoslanadi. Asosiy rang munosabatlarini boshlang'ich rang berishdayoq nima sovuq va nima iliq ekanligini, narsalarning sirtidagi och va to'q ranglar qanday farqlanishini yetkazib berish kerak.

Ishning bu bosqichida alohida narsalarni, mayda-bo'lak qismlariga e'tibor berish mumkin emas, barcha etiborni oldingi, ikkinchi va uchinchi qatordagi narsalarga, hamda fonga diqqatni qaratish lozim.

Ishning birinchi yarmida katta ko'rinishlar bilan yorug'-soya va rang munosabatlari orasidagi naturaga bo'lgan mutanosiblikni saqlash, shuningdek soya, yarim soya quyuqligi va rangdorligini yetkazib berish muhimdir. Soyalar va yarimsoyalar shunchaki turli och-to'qlikdagi qora dog'lar emas. Agar soya qismlari ozmi-ko'pmi rang jihatdan to'g'ri hal etilgan bo'lsa, unda yorug' joylarini bo'yash ancha yengil ko'chadi.

Natura qo'yilmasidagi narsalarni diqqat bilan kuzatish lozim. Uzoqda joylashgan narsalarning chekka qirralari o'zining aniqligini yo'qotib, fon bilan qo'shilganday tuyuladi.

Naturadan har qanday ishni yakunlash so'nggida umumlashtirish kerak. Chunki natyurmortning ayrim joylari kerakli darajada yorqin bo'lmasa yoki aksincha, umumiy ranglarning o'zaro uyg'unligidan yaltiroq dog' haddan tashqari «chiqib ketayotgan» holatlarda zarur. Shunday ham bo'ladiki qo'yilmaning yoritilgan joylari juda ham ko'zga yaqqol tashlanib, keskin bajarilgan bo'ladi, bunday holatda ularni yumshatish lozim.

Ta'limning boshlang'ich davrida narsalarning hajmdor shakli, ularning materilligini, tekislikda joylashuvi va yoritilgan holatini ko'rsatishdan iborat. Dastlabki ishlarda tabiiyki, bo'yoq surtmalari noaniq va qovushmagan bo'ladi. Muttasil amaliy ishlash natijasida talaba o'zini «uslubi»ga ega bo'lib boradi.

Amaliy mashq.

1. Moybo'yoqlarni aralashtirish. Rangtasvirda moybo'yoq bilan ishlash ancha murakkab hisoblanadi. Ayniqsa, akvarel bo'yog'i bilan ishlashdan o'tilganda bu holat seziladi. Akvarel bo'yog'i bilan ishlashda qog'oz muhim ahamiyatga ega bo'lsa, moybo'yoqda esa matoga berilgan oq grunt xech qanday ahamiyatga ega emas.

Kamalakning yettita asosiy ranglari mavjud: qizil, zarg'aldog', sariq, yashil, ko'k, havo rang, siyohrang. Masalan, qizil rangni sariq bilan qorishtirsa zarg'aldog' rang, sariq rangni ko'k bilan aralashtirsa – yashil rang, ko'k rangni qizil bilan qo'shsa – siyohrang hosil bo'ladi. Faqat uchta rang qizil, sariq va zangori qorishtirish orqali hosil bo'lmaydi. Qolgan ranglar esa uchta rang aralashmasidan hosil bo'ladi. Bularni tajribali rassom aniq bilishi zarur.

Moybo'yoqli rangtasvirda barcha bo'yoqlar oq rang yordamida oqartiriladi. Shuning uchun ham rassom amaliy mashg'ulotlarda turli bo'yoqlarni oq bo'yoq aralashtirish orqali turli ranglarni hosil qiladi.





Bir rangga boshqasini qo'shish natijasida, bo'yoqlar o'zini to'yinganligini (yorqinligini) yo'qotadi. Masalan, ranglarni qo'shish orqali yorqin zarg'aldog', yashil va siyoh ranglarni hosil qilish murakkab. Shuning uchun ham ayrim hollarda palitrada tayyor holatdagi yorqin zarg'aldog', yashil, havorang va siyohrang bo'yoqlar ortiqchalik qilmaydi. Oq bilan qora ranglar aslida nozik rangli farqlarga ega. Ish jarayonida oq bilan qora bo'yoqlarni sof holda ishlatmaslikni yodda tutish kerak. Qora bo'yoqdan unumli foydalanish boshqa bo'yoqlar bilan juda jozibali va nozik aralashmalar hosil qilishga imkon beradi. Masalan, kadmiy zarg'aldog' bilan bo'lgan aralashmasidan iliq yashil rang hosil bo'ladi. Qoraning iliq bo'yoqlar bilan aralashmasi murakkab iliq rang tuslarini, sovuq bo'yoqlar bilan bo'lgan aralashmasidan esa sovuq rang tuslarini beradi.

Shunday qilib, moybo'yoqlar bilan muvaffaqiyatli tasvirlash uchun, etyudnikda beshta bo'yoq bo'lishi mumkin: oq bo'yoq, sariq (limonrang), ko'k («FS» havorang, ko'k kobalt yoki ultramarin), qizil (pushti, qizil kinovar), sof qora (o'tda kuydirilgan suyak rangi). Mavjud beshta bo'yoqdan istalgan rangni hosil qilish mumkin.

Agarda qora bo'yoqqa oqni aralashsaks kulrang hosil qilamiz.

Agarda pushti rangga bir me'yorda limonli qadmiyni qo'shsak, unda bir qator qizildan to sariqgacha zarg'aldog' rang orqali rang turlarini hosil qilamiz. Agar pushti bo'yog'iga bir me'yorda ko'k «FS» qo'shsak, unda qizildan to ko'kgacha siyohrang orqali bir qator ranglarni hosil qilinadi. Maboda limon qadmiyga havorang «FS» qo'shsak, sariqdan to ko'kgacha yashil rang orqali bir qator ranglarni hosil qilamiz. Keyin: agar pushti rangga bir me'yorda to'qroq

yashilni qo'shsak, qizildan to yashilgacha deyarli qora orqali bir qator ranglar, oqartirilsa – kulrang hosil bo'ladi. Agarda ko'k «FS»ga hosil bo'lgan zarg'aldog' rangni bo'laklarda qo'shsak, unda ko'kdan boshlab zarg'aldog' ranggacha deyarli qora rang orqali bir qator ranglar, oqartirilsa – kulrang hosil bo'ladi. Xususan qora rangni yashil «FS»ni to'q qizil kraplak bilan aralashmasidan hosil qilish mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, qora, zarg'aldog', siyohrang va yashil ranglardan foydalanmasdan ishlash ham mumkin.

So'ngra: siqma idishdan xohlagan bo'yoqni, masalan och oxrani palitrage chiqaramiz. Uning yoniga limon rang kadmiyga qora bilan qizil bo'yoqlarni aralastirib xuddi och oxra rangini hosil qilamiz. Boshqa bo'yoqni masalan siqma idishdan zumrad yashilni olamiz. Havo rang «FS» yoniga limon rang kadmiy bilan pushti tiondigo rangini aralastirib zumrad yashil rangini hosil qilamiz.

«FS» havo rang bilan pushti tiondigo rang aralashmalaridan to'q ko'k kobalt rangini hosil qilamiz. Barcha yashil ranglar: zumrad (yashil)dan xrom (och kulrang) okisi orqali to'q yashil kobaltgacha - havorang «FS», pushti tiondigo va limon rang kadmiylardan olinadi. Oq rang qo'shish orqali biz och yashil kobalt, ko'k, oltinsimon sariq va neapoliten va h.k. ranglarni hosil qilamiz.

Agarda pushti tiondigo bo'lmasa, unda och, to'q qizil kadmiy, qirmizi yoki kraplak ranglardan foydalansa bo'ladi. Limon rang kadmiy o'rniga och sariq kadmiyni ham ishlatsa bo'ladi. Havo rang «FS» o'rniga to'q ko'k kobaltdan foydalaniladi, u bo'lmasa ultramarinni ishlatish mumkin.

Bu mavjud bo'yoq aralashmalaridan esa chegaralangan ranglar doirasi hosil bo'ladi. Masalan, och sariq rang kadmiy bilan ultramarin ranglaridan zumrad (yashil) rangini hosil qilib bo'lmaydi, yashil okis rangiga yaqinroq bo'yoq bo'lishi mumkin.

Oq rangni hisobga olmagan holda uchta rangdan ortig'ini aralastirib bo'lmaydi. Ikki-uch bo'yoqdan rang hosil qilish mobaynida ularni uzoq vaqt palitrada qorish kerak emas. Aralashmada toza bo'yoq ranglari saqlanib tursa matoda turli nozik ranglar hosil bo'ladi.

Moybo'yoqlar bilan ishlashda eng yaxshi bo'yoq eritadigan suyuqlik – pinen (4 bo'yoq eritgich) hisoblanadi. Aslida u ranglar yorqinligini pasaytirsam ham qoraytirishga yo'l qo'ymaydi.

2. Moybo‘yoqli rangtasvirda namligicha (bir necha galda qo‘yilgan bo‘yoqlar hali qotib ulgurmasdan tugatiladi) yoki ko‘p qatlamli (yangi bo‘yoq qatlami to‘la qurigan qatlam ustiga qo‘yiladi) uslubda yozish mumkin. Nam bo‘lgan bo‘yoqlar ustiga yangi bo‘yoq qatlami qo‘yilsa ranglar xira tortib asl rangini yo‘qotadi. Maboda asarning ma‘lum bir qismi qayta bo‘yaladigan bo‘lsa eng yaxshisi mastixin bilan bo‘yoq qatlamini sidirib olish mumkin. Qayta ishlashdan avval mato yuzasiga xom kartoshka yoki piyoz bilan ishlov berilsa ish sifati ko‘ngildagidek bo‘ladi.

3. Bo‘yoqlarni betartib va noo‘rin yuritish mumkin emas. Bu esa shaklni buzadi, ranglarni betartib bo‘lishiga olib keladi, materialik, xajm va muhitni ko‘rsatishga xalaqit beradi. Rangtasvirda bo‘yoq berishning shakli... yo‘nalishi va uning xarakteri narsalarning shakli yuzasining o‘ziga xos xarakteriga va materiallariga bog‘liqdir. Juda quyuq (xamirsimon) bo‘yoq surtmasi ham tasvirni tomoshabinga yaqinlashtiradi, yupqa va silliq surilganda - uzoqlashtiradi. Shu sababli natyurmort (yoki manzara) foniga xamirsimon bo‘yoq surtmalarini qo‘llash noo‘rin.

Osmon, tuman rangini yoki uzoqni tasvirlashda quyuq va qalin bo‘yoqni qo‘llash noo‘rin, birinchi qatordagi yer va yorqin buyumlarni tasvirlashda qo‘llash esa ma‘qul. Monumental rangtasvirda, ayniqsa, rangli quyuq dog‘larni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

4. Rassom palitrasi. Palitrada qanday tartibda siqma bo‘yoqlarni joylashtirgan ma‘qul. Masalan, ultramarin rangini bugun palitrani yuqori burchagiga, ertaga – pastki chap tomonga siqib qo‘yish noto‘g‘ri. Rassom bo‘yoqlarni doim odatdagidek bir tartibda joylashtirgani ma‘qul, chunki u shunga odatlanib bo‘yoqni bemalol qo‘llay oladi.

Palitraning chap tomonidan sovuq bo‘yoqlarni ochroqdan to‘qrog‘icha (yashilning ochi, to‘qi, ko‘k va qora). Oq bo‘yoqni esa palitra markaziga qo‘ygan ma‘qul.

5. Palitra rangi. Odatda rassomlar jigarrang yoki oq rangdagi palitradan foydalangan. Oq palitradagi bo‘yoqlar, oq rangdagi kartina tekisligida ham xuddi shunday ko‘rinadi deb taxmin qiladilar.

Palitrada olingan rang bilan naturadagi rangni idroq qilinishi turlicha. Palitrada tayyorlangan narsalarning rangi, naturada yoki xolstda – boshqa narsalar qurshovida o‘zgacha qabul qilinadi.

Qanday palitradan foydalanmaylik oq matoda bo'yoqni birinchi surtmasi kontrast kuchidan to'q va xira bo'lib tuyuladi. Tajribasiz rassom palitrada darrov ochroq yoki to'qroq bo'yoqlarni tanlashga harakat qiladi.

Narsalarni bir xil ranglari turli palitrada tus va rang jihatdan turlicha namoyon bo'ladi. Oq palitrada ochroq dog'lar deyarli sezilarli emas. To'q jigarrang palitrada qoramtir bo'yoqlar yo'qoladi. Faqat palitrada umumiy tus va rang natura qo'yilmasi fonini umumiy rangi va tusiga yaqinligini narsalar bo'yog'ini, naturaga o'xshash munosabatlarda ko'rinadi.

NATYURMORTDA RANG VA TUS NISBATLARI

Natyurmortni ko'p rangli tasvirini yaratish ifoda vositalarini yana ham mukammalroq bilishni talab etadi. Ranglar vositasida natyurmortning haqqoniy tasvirini ifodalash uchun qo'yilgan narsalarning shakli va rangini o'zaro bog'lanishda, yaxlit ko'rish va idrok etishga o'rganish kerak.

Atrofimizdagi o'rab olgan olam xilma-xil ranglarga va ularning iliq va sovuq tuslariga boy. Ulardagi nozik xususiyatlarning jozibasini to'la-to'kis his etish uchun, tabiatni diqqat bilan kuzatishni o'rganish, rassomlar tili bilan aytganda, ko'zni yo'lga qo'yish, ya'ni ko'z o'tkirligini rivojlantirish zarur.

Ko'zni yo'lga qo'yish nimadan iborat? Ma'lumki, bitta narsaning o'zini alohida, atrofidagi boshqa narsalardan xoli ravishda ko'rib bo'lmaydi, ya'ni bir narsaga qarasa, albatta yonidagi narsalarga ham nazarimiz tushadi. Alohida narsani yaxshilab ko'rish uchun unga tikilib qaraladi, bunda qolgan narsalarga yuzaki qarashga to'g'ri keladi. Tikilib qaragan narsamiz ko'rish maydonining markazida bo'lgani uchun u to'la idrok qilinadi, atrofidagi narsalarni esa biz uncha aniq ko'rmaymiz.

Natyurmort bir nechta o'zaro aloqador narsadan tuzilgan mazmunli guruh bo'lgani uchun uning tarkibidagi hamma narsani barobar ko'rish va idrok qilish kerak bo'ladi.

Aks holda natyurmort parchalanib, bo'lak-bo'lak bo'lib ko'rinib qoladi. Bu esa asar mazmuniga va tasvir sifatiga putur yetkazadi.

Narsalarning perspektivada o'zgarib ko'ringan shaklini idrok qilish qiyin bo'lgani kabi, ranglarning atrof-muhit ta'sirida qanday tuslarga kirganligini idrok qilish ham ancha qiyin ish. Chunki biz har bir narsa o'zining muayyan rangiga ega ekanligiga o'rganib qolganmiz. Masalan, oq qog'oz kechqurun

sun'iy yorug'lik ta'sirida sarg'ayib ko'rinadi, lekin buni hamma anglayvermaydi.

Qor ham oq, lekin uni tasvirlash uchun oq bo'yoqning o'zi yetarli? Kungay joyda qor sapg'ish, pushtiroq bo'lib, salqin joyda ko'kish, havo rang turlarda jilvalanadi. Boshqa hamma ranglar ham yoritilish, muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinadi. V.Serovning «Qiz va shaftolilar» suratiga e'tibor beraylik. Unda dasturxon, xona devori, lagancha hammasi oq, lekin rassom ularni faqat oq rangda tasvirlamagan. Devorda biz daraxt barglarining sarg'ish-yashil reflekslarini va qizcha egnidagi pushti ko'ylakdan tushayotgan reflekslarni ko'ramiz. Shuning uchun devor ham, dasturxon ham rangdor va nafis chiqqan.



A.Perov. Natyurmort obi nonlar bilan

I.Grabar «Mart oyida qor» suratida qorni shunday mahorat bilan tasvirlaganki, u oppoq va yumshoq tuyuladi. Lekin suratda qor faqat oq bo'yoqda ishlanmagan. Diqqat bilan qaralsa, polotnoda och havo rang, sariq, pushti, och binafsha kabi iliq va sovuq turlarning uyg'unlashtirib olinganligini ko'ramiz.



A.Mirzayev. Toshkentdagi natyurmort

Daraxtlarning uzoq-uzoqlardan ko'kimtir bo'lib ko'rinishiga qaramay, yashil rangda deyiladi va ko'pchilik rassomlar shunaqa tasvirlashga harakat qiladi. Chunki daraxtning yashil bo'lishi to'g'risidagi tushuncha yoshlikdan ongga o'rnanib qolgan. Uzoqdan daraxtlarning ko'kimtir ko'rinishiga sabab, oraliq masofadagi havo qatlami. Havo o'z holicha tiniq bo'lsa-da, undagi chang zarrachalari, suv bug'lari loyqa muhitni hosil qiladi. Uning o'ziga xosligi shundaki, qizil, olov rang, sariq nurlarni o'zidan oson o'tkazib, ko'k va binafsha nurlarni akslantiradi va har tomonga tarqatadi. Shuning uchun uzoqdagi narsalarning rangi sovuqroq ko'rinadi. Bundan tashqari, ranglarning och-to'qligiga ham havo ta'sir etadi: to'q ranglar uzoqdan ochroq, och ranglar esa to'qlashib ko'rinadi.

Rangtasvirda har bir narsaning haqiqiy rangini tasvirlashga harakat qilgan odam behuda urinadi. Masalan, rangtasvir sirlarini bilmaydigan, tajribasiz odamga limonning o'ziga qarab tasvirlash topshirilsa, uning umumiy shaklini chizib, limon rangini - sariqqa bo'yab qo'yadi. Natijada jonli tasvir o'rniga sariq rangga bo'yalgan oval tasviri yuzaga keladi. Vaholanki, limonning rangi atrofda ranglar ta'sirida o'zgarib ko'rinishi mumkin. Buni farqlash uchun, yuqorida aytganimizdek, atrof-muhit, havo perspektivasi, yoritilish sharoitini hisobga olgan holda maqsadli qarashni o'rganish kerak.



A.Trio. Limon to'la tokcha

Atoqli mo'yqalam sohibi N.Krimov aytganidek, «Haqqoniy rangtasvir - tus va rang orqali narsaning ko'zga ko'rinib turgan shaklini ifodalashdir».

Rangtasvirda ish nisbatlar asosida olib boriladi, ya'ni bitta narsaning rangini ifodalash uchun yonidagi narsalarning ranglarini ham hisobga olish kerak. Masalan, zarg'aldoq shaftolini sariq mato fonida ko'rganda rangi unchalik yorqin ko'rinmaydi, agar zangori fonda qo'yib ko'rilsa, uning rangi jilvalanib ketadi, ya'ni kontrast ranglarning o'zaro ta'sirini amalda ko'ramiz.



A.Trio. Anorlar

Natyurmortning ko'p rangli tasvirini ishlash narsalarning tus va rang nisbatlarini topish ularni o'zaro taqqoslab borish orqali amalga oshiriladi. Tekislikda joylashgan narsalarni solishtirib, ulardan har birining katta-kichikligi tabiiy rangdagi och-to'qligini, rang-tuslarini aniqlash mumkin. Bunda ayrim narsa qismlarini butunga nisbatan solishtirib ko'rishni ham unutmash kerak. Ko'z o'tkirligi unchalik rivojlanmagan odam uchun ana shu taqqoslash ham ancha qiyinchilik tug'diradi. Chunki ko'rish idrokining xususiyati tufayli, ko'rish maydonidagi barcha narsalarni bir vaqtda ko'rsak ham, bir tekisda idrok qilolmaymiz. Qo'yilgan narsalardan faqat bittasi (ko'rish maydonining markazidagisi) yaqqol ko'rinadi, chunki diqqatimiz unga qaratilgan bo'ladi.

Tasvirlash uchun qo'yilgan narsalarning eng xarakterli jihatlarini ifodalash uchun zarur bo'lgan tafsilotlarni tasvirlab, ba'zi zarur bo'lmagan tomonlar (masalan, idishning siri uchib ketgan joyi yoki tasodifan qiyshayib qolgan qismlarga ahamiyat bermaslik, ularni tasvirlamaslik kerak. Naturaning eng muhim, diqqatni o'ziga tortadigan, ta'sirchan tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish, narsalar o'rtasidagi tus va rang nisbatlarini ifodalash haqqoniy rangtasvirning negizini tashkil qiladi. Rang nisbatlarini aniqlash ishini natyurmortdagi eng yorug' va ochiq rangni topishdan boshlab, keyin esa to'q rangni belgilash kerak. Shunda qolgan ohanglar va tuslar shu ikkalasi oralig'idagi kuchga ega bo'ladi.

Natyurmortning rangtasvirini boshlashdan avval, uning umumiy tusi qanaqa bo'lishi, qanday ranglar gammasidan foydalanish mumkinligini hal qilish kerak. Natyurmort rangtasvirini bajarishda, dastlab, ranglarning o'z kuchidan bir oz sustroq qilib qo'ygan ma'qul, chunki ish davomida ba'zi o'rinlarni qisman ochroq yoki chuqur soyalarni to'qroq tasvirlashga to'g'ri kelib qoladi. Aytaylik, muzikada kuy bir tekisda taralib turishi, ma'lum vaqtda avjga chiqishi va kuy jaranglab ketishi mumkin. Shunga o'xshash rangtasvirda ham ba'zi yerlarda rangni «jaranglatish» kerak bo'ladi, shuning uchun boshida rangning ohangi pastroq olinsa (lekin rang o'z sifatini yo'qotadigan darajada sust bo'lishi), kerak vaqtda uni to'qlashtirish oson bo'ladi.

Rang nisbatlarini aniqlashda va tasvirlashda, umumiydan xususiyaqarab borishga odatlanish kerak. Natyurmortning asosiy nisbatlarini, masalan, fon va stol yuzasi o'rtasidagi narsalarning bir-biridan farqi to'g'ri topilsa, tasvirda narsalarning fazoviy holati va materiali aniq seziladi. Dastlabki ranglar qatlamini qo'yish ham, undan keyingi bosqichlar ham, ayni shu natyurmortning umumiy koloritini hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Binobarin, naturaning

umumiy tonalligini va rang birligini to'g'ri tushunish va shunga mos ravishda ifodalay olish lozim.



V.Enin. Sarimsoq bilan natyurmort

Yirik plandagi narsalarning och-to'qligi nisbatlarini aniqlab olgach, rangdor narsalarda yorug'-soyalarning nozik tovlanishini ifodalashga, ya'ni bo'yoqlar bilan har bir narsaning sho'la, yorug', yarimsoya, soya, reflekslarini sinchiklab ishlashga o'tiladi; chunki rangtasvirda tus nisbatlarini ko'rsatish bilan birga, narsalarning ranglari orasida xuddi naturadagi kabi bog'lanish bo'lishiga erishish zarur. Agar naturada qandaydir bir narsaning rangi boshqalaridan yorqin, to'yingan bo'lsa, tasvirda ham u boshqa ranglarga nisbatan yorqin bo'lishi kerak.

Narsalarning yorug' qismida uni materiali va fakturasi aniq ko'rinadi, shuning uchun bunday holatda bir yo'la kerakli ohangdagi bir oz quyuqroq eritma bilan qoplash va ishni «quruqroq» mo'yqalam bilan bajarish mumkin.

Narsalarning soya qismini ifodalashda esa bo'yoqni qatlamlar bilan qo'yib, asta to'qlashtirish orqali kerakli ohangni topish usulini qo'llash mumkin. Soya qismda narsaning chegaralari unchalik aniq ko'rinmagani uchun bunda «namligicha» ishlash usulini qo'llash o'rinli, ya'ni ranglar bir-biriga o'tishi natijasida butun natyurmortda mayin uyg'unlik yuzaga keladi.

Narsalarning hajmdor shaklini mufassal ishlab chiqish bosqichida ham alohida narsani ifodalashga berilib ketib, uning boshqa narsalardan ajralib

qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun, hamma vaqt narsalarni o'zaro solishtirib borish kerak. Narsaning soya qismidagi bilinar-bilinmas o'zgarishlarni ko'rish va ularning umumiy ohangini topish uchun, narsaga tikilib qapash uni, albatta, atrofdagi narsalar bilan taqqoslash kerak. Bunda ham rangning uchta asosiy xossasi – och-to'qlik, rangdorlik va to'yinganlikning farqini topishga, ya'ni tasvirdagi ranglarning naturaga mutanosib bo'lishiga erishish kerak.

Tasvirda hamma nisbatlar to'g'ri topilib, qog'ozning sathi turli bo'yoq qorishmalari bilan qoplab chiqilmaguncha, bo'yoqlarning xususiyati, yorug'likning kuchi va tasvirlanayotgan narsalarning materiali aniq sezilmaydi. Ish yakunida natura bilan tasvir o'rtasida umumlashtirish ishlarini o'tkazib, ularni yaxlitlashib ko'rinadigan qilib qarash kerak. Bunda shakllarning ba'zi mayda tafsilotlari har ikkalasida ham bir xilda yo'qolsa, tasvir to'g'ri bo'ladi. Agar alohida buyum yoki uni ma'lum qismi umumiy tusdan ajralib qolgan bo'lsa yoki refleks yorug'dan kuchli bo'lib qolgan bo'lsa, ularni umumlashtirish kerak. Bo'yoq qatlamlari uchta-to'rttadan oshib ketgan taqdirda, akvarel bo'yoq o'zining tiniqligi hamda jarangdorligini yo'qotadi. Shuning uchun akvarel rangtasvirida bo'yoq eritmasining quyuqlashib va qatlamlar sonining ko'payib ketishidan ehtiyot bo'lish kerak.



G'.Ortiqov. Buyumlar olami

3–BOB. NATYURMORTNING KOMPOZITSIYASI KOMPOZITSIYA

Talabalarda tasviriy san'at borasidagi barcha bilimlarni amaliy hamda nazariy jihatdan rivojlantirish, shuningdek, ijodiy shakllantirishda kompozitsiya sirlarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Har qanday san'at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. «Kompozitsiya» (lat. compositio) – tuzish, ijod qilish demakdir. U asar tuzilishida qismlarning asar g'oyasiga muvofiq joylashtirilishini va o'zaro munosabatini anglatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, munozanat va ritm, turg'unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarning birinchi darajali narsalarga (asosiyga) bo'ysunishi, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm, – tabiiyat yaratgan shakllarda – gul va barglar tuzilishida, ularning daraxt novdasida joylanishida yaqqol ko'rinish turadi. Inson qo'li bilan yaratilgan narsalarda tabiatga taqlid qilish, u yaratgan shakllar chiroyidan nusxa olishga intilish namoyon bo'ladi.


Natyurmort tuzish – ijodiy ish. Unda rassomning didi va layoqati, kompozitsion madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasm chizishga havas hissini uyg'otadigan bo'lishi va, albatta, kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibidagi narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, hajmi, materiali, sirti (fakturasi), rangi va och-to'qligi (tus) bilan bir-biridan farq qilishi kerak. Ammo bu farq juda keskin darajada bo'lishi ham noo'rin. Masalan, katta chelak yoniga qo'yilgan gugurt qutichasini ko'z ilgamaydi, chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi.

Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir-biriga va fon (opqa sath)ga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortning qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi.

Sharden, Surbaran, Kalf, Snayders, K.Korovin, I.Mashkov, P.Konchalovskiy va boshqa natyurmortnavis rassomlar asarlarida hayotiy haqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz. Mashhur rassom-pedagogi B.Loganson mohir mo'yqalam sohibi Shardenning «Piyozli natyurmort»ini ko'rib, mazkur natyurmortning yaratilishini tasavvur qilib, quyidagi fikrni bayon etadi. Aytaylik, Sharden oshxonaga kirganida ko'zi stol ustidagi ko'k piyoz boshlariga tushgan-u, piyozning cho'ziq shakli va nafis rangi uning diqqatini jalb qilib, qiziqtirib qolgan. Xuddi shu narsa surat kompozitsiyasining cho'ziq bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Shakli jihatidan unga zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lgan har xil buyumlarni mis qozon, sopol va shisha idishlarni tanlagan. Rassom ataylab shakli, o'lchami, materiali bir-biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatning o'ziga, undagi narsalarning rang-barang va turli-tumanligiga qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jihatdan juda sodda ko'rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechtasini olgan xolos. Mazmunan bir-biriga monand narsalarni tanlab olgandan keyin ulardan shunday bir yaxlit guruh tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta, uning tasvirini yaratish ishtiyoqini o'yg'otsin.

Sharden natyurmort tuzish uchun tanlagan narsalar – mis qozon, sopol cho'mich, yashil rang shisha idish, ko'k piyoz boshlari, ikkita olma va ikkita tuxum. Bular hammasi ham oshxona ashyolari bo'lib, shakllari, tuzilishlari, sirlari va ranglari har xil. Aytaylik, rassom natyurmortni faqat qozoncha va katta shishadan tuzsa qiziqarli bo'larmidi? Yo'q, albatta. Yana beixtiyor, narsalar tasodifan shunday holatda joylashganmi yoki Sharden ularni ongli ravishda shu tartibda qo'yganmikan, degan savol tug'iladi.

Bu savolga javob topish uchun qo'yilgan natyurmortning qanchalik tabiiyligini tushunishga harakat qilib ko'ramiz. Ikkita-uchta narsadan ham natyurmort tuzish mumkinmi? Mumkin, albatta.



Qo'yilgan natyurmortni ishtiyoq bilan tasvirlasa ham bo'ladi, rassom kompozitsion butunlikka erishgan.

Qo'yilgan narsalarning materiali – mis, shisha, sopol va hokazolar shakllari -cho'ziqroq, do'maloq (tuxumlar), sharsimon (olmalar), silindsimon (qozoncha), shar va silindr birikmasi (katta shisha), yarim shar (yog'log'i), cho'ziq – silindr (piyoz); o'lchamlari – katta qozon, o'rtacha shisha, kichikroq yog'log'i, mayda tuxum va olmalar; ranglari: misning qizg'ish rangi, to'q yashil shisha, kesak rang sopol yog'log'i, yashiltob piyozlar, sarg'ish lola rang olmalar, oppoq tuxumlar - hammasi xilma-xil va rang-barangdir. Bular hammasi ulkan mo'yqalam sohibining yuksak iste'dodi, tabiatning beqiyos boyligini ko'ra olishi va to'g'ri qabul qila olishi natijasidir.

«Piyozli natyurmort»ni diqqat bilan kuzatgan kishi uning uchburchak ichiga joylashtirilganini ko'radi. To'g'ri burchakli uchburchakning uzun tomoni (piyoz boshlari) surat tekisligini diagonal bo'ylab kesib o'tgan. Uchburchak ichida narsalar shunday joylashganki, qozonning qorong'i tomonidan surat tekisligigacha bo'lgan masofa, taxminan, surat tekisligining chap chekkasidan to piyozning ildizlarigacha bo'lgan masofa bilan barobar.

Shuningdek, yuqoridan mis qozongacha bo'lgan masofa, surat tekisligining pastki chegarasidan olmalar asosigacha bo'lgan masofa bilan teng. Shular hammasi birgalikda san'at asarining kompozitsiyasini tashkil qilib, uni «o'qishga» imkoniyat yaratgan.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uning tabiiyligidadir. Demak, natyurmort tuzish vaqtida yaxlitlikka, tugallikka erishishga harakat qilish lozim. Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab tahlil qilib, u yoki bu asar nima uchun odamga shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi, degan savolga javob izlash foydalidir.

Odatda, rasm chizishga o'rganish mashg'ulotlari natyurmort ishlashdan boshlanadi. Chunki natyurmort rasm ishlashning asosiy qonunlarini o'rganishda zarur ko'nikmalar hosil qilish uchun juda qulaydir. Har xil shakllarning tuzilishini tushunish, ularning hajmdorligini, yorug'-soyalarini ifodalashni bilish uchun geometrik jismlar va shakli ularga o'xshash bir qator ro'zg'or buyumlarning rasmi chiziladi.

Natyurmort qo'yilmasi puxta, uzoq vaqt o'ylab mulohaza qilib qo'yladi. Unga juda ko'p narsa kiritilmaydi, lekin ularning shakl va ranglari har xil bo'lishiga e'tibor berish kerak. Bitta qo'yilmada sirtlari har xil narsalarning, masalan, chinni yoki sopol idish, metall yoki yog'och buyum, har xil rangli

sidirg'a gazlamalarning kiritilishi asar mazmunini boyitadi va qiziqarli qiladi. Silliq, yaltiroq sirtli idishni sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni do'maloq shakl bilan yonma-yon qo'yilsa, ularni taqqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug'iladi.

Natyurmortda asosiy talablardan biri narsa o'lcham, rang va tus jihatdan ajralib turishi hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'yilishidir.





Kompozitsiyaning markazini bo'rttirib ko'rsatib turishi, albatta, surat tekisligining o'rtasida turishi shart emas, unda qo'yilma zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy buyumni ataylab geometrik markazdan sal siljitib qo'yadilar-da, muvozanatni saqlash uchun qarama-qarshi tomonda rangi va och to'qligi unga zid bo'lgan narsa oladilar. Atoqli natyurmortnavislar Sezann, Sharden, Xrutskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar.

Bir xil narsalardan bir necha ko'rinishda natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajmlarning katta-kichikligi va bo'laklarning och-to'qligi o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natyurmortda bir nechta teng ahamiyatli kompozitsion markaz bo'lmaydi, unda natyurmortning butunligiga putur etadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa, u ma'nodor tuyuladi. Natyurmortni o'rnatish vaqtida narsalarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma'qul bo'lmasa, yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo bo'lgunga qadar davom ettirish kerak.



Kompozitsiya eskizlari

O'quv natyurmortining muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylanishidir. Qo'yilmaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisi va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Ammo narsalarning tubi qisman bo'lsa ham, ko'rinib turgani ma'qul, shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash oson bo'ladi.



Natymortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq shakldagi narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan pichoq, qoshiq, qog'oz o'rami, mo'yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo'lib, tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natymort

murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. U shakli, rangi na tusi bilan ajralib ko'rinib, kompozitsiya markazini tashkil qilishi kerak. Qolgan narsalar birinchi va orqa planlarda joylashtiriladi.



Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi.

Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z ko'rigidan pastroqqa qo'yilgan natyurmort yotiq predmet tekisligida to'la-to'kis ko'rinib turadi, narsalarning asoslari, ularning o'zaro joylanishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash uchun qulay bo'ladi.



Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq ochib berish uchun, yorug'lik nurlari oldidan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. Shunda iatyurmordagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan

yorug'lik, qarshi tomonda soya, yarim soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini ta'minlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan bekitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi birinchi plandagilar ravshanroq ko'rinadi. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritqich qo'yiladi. Shunda oldindagi narsalarda yorug'-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirtlari yaqqol ko'rinadi, ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda, qarama-qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumlashib ko'rinadi. Lekin natyurmort bo'yoqlarda tasvirlanadigan bo'lsa, uni deraza yaqiniga, kunduzgi yorug'lik nurlari bilan oldindan va bir oz yonboshdan yoritiladigan qilib qo'ygan ma'qul, chunki sun'iy yorug'lik ranglar (ayniqsa sariq va ko'k) o'zgarib ketadi.

Vazifa natyurmortdagi narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda, u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko'p bo'lmaydi va narsalarning o'z rangi yaqqol, ochiq-oydin ko'rinadi. Narsalarning yaqqol ko'rinishi fon (orqa sathi) uchun mato gazlama tanlashga ham bog'liq.



Avvaliga fon uchun tanlanadigan mato gazlamalar yaxlit, sidirg'a va nursizroq bo'lgani ma'qul, chunki olachipor yorqin, rangli mato gazlama ko'zga aniq tashlanib, natyurmortning o'zini ko'rishga xalaqit beradi. Shuni ham hisobga olish kerak-ki, oqish fonda qoramtir narsalar, to'q fonda esa, aksincha, oq narsalar ravshan ko'rinadi. Ko'pincha natyurmort tarkibiga ham

oq, ham qoramtir narsalar kirganda, unga o'rtacha kulrang tusli fon tanlanadi. Bunaqa fon qo'yilmani yaxlitlashtirib ko'rsatib, tasvirlashda qulaylik yaratadi.



Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapirovka) kiritiladi. Orqa fonga va predmet stoliga to'shaladigan mato gazlamaning (chit, xolst, shoyi, baxmal, movut) xarakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib o'yish mumkin. Bunda parda, dasturxon, ro'mol, sochiqlar o'zining muayyan vazifasini bajarish holida joylashgani ma'qul. Gazlama devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa, u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa, burmalar shu buyumning shakli bilan bog'liq ko'rinishda bo'ladi. Lekin juda ko'p sonli va mayda burmalarni tasvirlash qiyin, shuning uchun dastlabki natyurmortlarda sidirg'a, g'ijimlanmaydigan, jilvasiz gazlamalardan foydalanish kerak. Yuqorida aytganlarimizdan ma'lum bo'ldiki, natyurmort qo'yilmasini qo'yish jiddiy va mas'uliyatli ish. Yaxshi qo'yilgan natyurmortda ortiqcha, tasodifiy narsalar bo'lmaydi, uni old yoki yon tomondagi qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunli, yagona guruh bo'lib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Shunday qilib, natyurmort kompozitsiyasini tuzish uchun:

- a) mavzuni tanlash;
- b) natyurmort mavzuiga mos keladigan narsalar va mato gazlamalar topish;


v) narsalarning shakli, tuzilishi, tusi va ranglarini hisobga olib joylashtirish;

g) narsalarning hajmdorligini yaqqol ko'rinadigan tarzda yoritish zarur ekan.

Shular hammasi birgalikda natyurmort kompozitsiyasi (qo'yilmasi) deb yuritiladi.



Amaliy mashg'ulot: «San'at atributlari» natyurmort





1. Natyurmortni mayda bo‘lak tasviri bajariladi.
2. Narsalar va matoning dastlabki lokal ranglari bajariladi. Ranglar palitrada oq bo‘yoq bilan hosil qilinadi.
3. Ishni tugallanishi: mayda bo‘lak qismlari aniqlanadi va yorug‘liq to‘qligiga va to‘qlik ochligiga nisbatan ishlov beriladi. Guash bo‘yog‘i o‘zgartirish kiritish imkoniyatiga ega.

Badiiy nazariya bilan amaliyotning rivojlanish jarayonida kompozitsiyaning yig‘ilayotgan o‘z qonuniyatlari mavjud. Kompozitsiya ma’lum bir qonuniyatlar asosida quriladi. Uning qonun-qoidalari va usullari o‘zaro bog‘liqda bo‘lib, kompozitsiya tuzishning barcha holatlarida qatnashadi. Buning hammasi ham badiiy asarning yaxlitligi va ifodaliligiga erishish uchun yo‘naltirilgan.

KOMPOZITSIYA QONUNIYATLARI

Kompozitsiyaning qonun-qoidalari, usullari va vositalari badiiy asarning qurilishida asosiy qonuniyatlari hisoblanadi.

Kompozitsiya qonun-qoidalari: harakatlarni tasvirlash (dinamika), tinch holat (statika), oltin kesim (uchdan biri).

Kompozitsiya usullariga: kompozitsiyaning qismlar muvozanati, ritmi, simmetriya va asimmetriyasi, syujetli kompozitsiya markazini ifodalanishi kiradi.

Kompozitsiya vositalariga: format (hajm), fazoviy kenglik, kompozitsiya markazi, muvozanat, ritm, qarama-qarshilik, yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika, simmetriya va asimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitliklar kiradi. Shunday qilib, kompozitsiya vositasi – yaratish uchun zarur bo'lgan barchasi, shuningdek uning usul va qoidalarini o'ziga qamrab oladi. Ular turli-tuman, boshqacha aytganda kompozitsiyaning badiiy ifodalash vositasi deb ataladi.

Kompozitsiya usullari

Ritm, harakat va tinch holatni tasvirlash. Ritm – universal tabiiy xususiyat. Ritm har doim harakatni anglatadi. San'atdagi va hayotdagi ritm -- bu bitta ma'nodagi narsa emas. Tasviriy san'at asarlarida ham, musiqadagi kabi, faollik, keskinlik, maydali ritm yoki sillik, xotirjam, sekinliklarni farqlash mumkin.

Ritm – ma'lum ketma-ketlikdagi element qismlarning takrorlanishi.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va amaliy san'atda ritm kompozitsiyaning muhim ifodalovchi vositasi kabi bo'lib, tasvirni qurilish mazmuniga ma'lum hissiyotlikni baxsh etadi.

Ritmni chiziqlar, yorug' va soya dog'lari, rang dog'lari bilan berish mumkin. Kompozitsiyaning bir xil elementlarning takrorlanishidan foydalanish mumkin. Ritm yordami orqali tekislikda harakatlarni ifodalash mumkin.

Ritm

San'at asaridagi harakat - vaqt ifodachisidir.

Natyurmort janrida haqiqiy rassomlar oddiygina tasvirlamaydi, ularning tasvirini dinamika bilan to'ldiradi, harakatdagi uning mohiyatini ifodalaydi, ma'lum davrning vaqti ichida yoki kelajakni taqdim etadi.

Ritm va harakat

Harakat mavjud bo'lgan san'at asarlarini dinamik harakatdagi kabi ta'riflanadi. Nima uchun ritm harakatni ko'rsatadi. Bu bizning ko'rish a'zolarimizning xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, to'liqlarni kuzatganimizda, nigohimiz bir to'liqdan boshqasiga ko'chayotganda ularning harakatida illyuziya paydo bo'ladi. Rassomlar o'z asarlarida illyuziya harakat ko'rinishlarini yaratishda uning xarakteriga alohida urg'u beradi. Ba'zi bir ko'rinishlarni qarab chiqamiz.

Asarni yaxlit bir butunlikda ko'rganimizda harakat holati tushunarli bo'ladi. Harakatdagi ob'yekt oldida bo'sh fazoviy kenglik bo'lsa harakatni hayolan davom ettirish uchun imkoniyat tug'diradi, go'yoki u bilan birga harakat qilishga chorlaydi.

Fondagi vertikal yoki gorizontaal chiziqlarni ko'pligi harakatni to'xtatib qo'yishi mumkin. Harakat yo'nalishining o'zgarishi uni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.



N.Oripova. Qumg'onlar

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, me'morlik asarlarida kompozitsiya markazi ajratib ko'rsatiladi. Masalan, Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi mato markazi bilan mos tushishini afzal ko'rgan. Bosh qahramonlarni shunday joylashtirib, rassomlar ularning muhim o'rnini, syujet uchun ma'noligini ajratganlar. (S.Bottichelli. Bahor).

Rassomlar kompozitsiya qurilishining ko'pchilik turlarini kashf etgan, masalan, kompozitsiya markazi asarning syujet maqsadi agarda talab qilsa, unda matoning geometrik markazidan xohlagan tomonga surilishi mumkin.

Fazoviy kenglikning chuqurligi yorug'-soya va ranglar qarama-qarshiligi orqali ketma-ketlikda kuchsizlanib borishi bilan ko'rsatilgan.

Kompozitsiyada simmetriya va asimmetriya

Turli davrdagi rassomlar suratning simmetrik qurilishidan foydalanishgan. Uyg'onish davrining rangtasvirchilari kompozitsiyalarni tez-tez simmetrik qonuniyatlari asosida qurishardi. Bunday qurilish negizida tinchlik, ulug'vorlik, serhashamlik va voqeani muhimlik taassurotlari namoyon bo'ladi. Bunday kompozitsiyalar sokinlik va fikrni, ulug'vorlikni, alohida bayramona tantanavorlikni va muhim voqealikni tasvirlashda yordam beradi. Simmetrik

kompozitsiyalarda odamlar, jismlar shunday joylashganki ular kartinaning markaziy o'qiga nisbatan oynaviy ko'rinish egallagan. Musavvirlar masalan, Rafaelning «Sekstin madonnasi», «Zahriddin Muhammad Bobur» portreti asari, O.Tatevosyaning «Sayl», M.Toshmurodovning «Alla Xasan Xusan», M.Saidovning «So'ngi chanoq» va boshqalarda simmetrik bajarilganligini ko'rishingiz mumkin.

San'atdagi simmetriya qurilishi haqqoniy voqelikda asoslangan. Masalan, inson qomati, kapalak, qor uchquni va boshqa shu kabilar simmetrik tarzda qurilgan. Simmetrik kompozitsiyalar – statik holatda (mustahkam), o'ng va chap tomonlari tenglashtirilgan bo'ladi.

Asimmetrik kompozitsiyalardagi joylashuvi asarning syujeti bilan ma'nosiga bog'liq holda turlicha, o'ng va chap tomonlari tenglashtirilmagan ham bo'lishi mumkin. Assimmetrik kompozitsiyalarda shakl va jism ko'rinishlari turlicha joylashgan bo'lib, asarning ko'rinshi maqsadidan kelib chiqqan holda chap va o'ng tomonlari muvozanatlashtirilgan bo'lishi mumkin.

Natyurmort kompozitsiyasi qurilmasini tasavvur qilish qiyin emas. Ularning simmetrik yoki asimmetrik qurilmalari tekislikda yaqqol ko'rinadi. Masalan, musavvir Rahim Ahmedovning natyurmort janrida yozgan «Natyurmort» asari asimmetrik, ya'ni dinamik ko'rinishga ega, lekin uning mazmunida yoz ne'matlari bilan ona tabiatni uyg'un va simmetrik aks ettirilgan. Tabiat bilan yoz ne'matlarni o'rtasidagi mosligi, mutanosibligi, uyg'unligi, simmetrik go'zalligi orqali ona-Vatanni naqadar go'zal ekanligi haqidagi g'oyani namoyon etish mumkin bo'lgan.



a. Simmetrik kompozitsiyasi,



a

b

b. Asimmetrik kompozitsiyasi.


Natyurmort kompozitsiyasini shartli tasvirda tasavvur qilish juda oson.

Kompozitsiyada muvozanat

Simmetrik kompozitsiyada uning barcha qismi tenglashtirilgan, asimmetrik kompozitsiyada esa tenglashtirilishi yoki tenglashtirilmagligi ham mumkin.

Misol, taqqoslashlar suratning o'lchami, tusi va ranglari bo'yicha turli qismlarining monandligiga erishishi uchun tenglashtirish yordam beradi, ya'ni kompozitsiyada muvozanatni topadi.

Rasmlardagi kompozitsiyada muvozanat tasvirlangan.



Naturmort kompozitsiyasi:

a — rang jihatdan tenglashtirilgan,

b — rang jihatdan tenglashtirilmagan.

Naturmort kompozitsiyasini bajarish bo'yicha bir nechta misollar keltiramiz.



Natyurmortda narsalarni kompozitsion joylashishlariga misollar

Turli ko'rish nuqtalaridan bitta qo'yilgan natyurmortning kompozitsiyasi ifodali va qiziqarli bo'lishi maqsadida qaralsa, shuni kuzatish mumkinki rakurslarni o'zgarishi natyurmort obrazini yaratishda ko'mak beradi.



Naturmortning turli ko'rish nuqtasidagi ko'rinishi.

Ma'lumki, kompozitsiya prinsiplari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: frontal, hajm – fazoviy va chuqurlik – fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi kompozitsiyaning ikki koordinati orqali (vertikal va gorizont) rivojlanishini bildiradi. Unda uchinchi koordinati – chuqurlik, ikkinchisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozitsiya amaliy bezak kompozitsiyalarida ko'p qo'llaniladi. Hajm fazoviy kompozitsiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib,

aylanib ko'rishga mo'ljallangan, ko'proq haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik fazoviy kompozitsiya predmetlarni kartina tekisligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki, o'tmishning ulug' rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondashganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan prinsiplarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozitsiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, A.Dyurer, J.D.Engr, P.Rubens, Rafael Santi, A.Ivanov, K.Bryullov, I.E.Repin va boshqalardir. O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan: O'.Tansiqboyev, I.Ikromov, Z.Inog'omov, Ch.Ahmarov, A.Abdullayev, M.Nabiev, R.Ahmedov, R.Choriyev, J.Umarbekov, Sh.Abdurashidov, Ya.Salpinkidi, G'.Abdurahmanov, A.Mirzayev, S.Abdullayev, A.Ikromjonov, B.Jalolov, A.Nur, O.Qozoqov va boshqa ko'plab ijodkorlarni bema'lol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarni tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu, albatta, o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Chiziqlar bilan natyurmortdagi narsalar ham yaxlit siluettlarga jamlanadi. Kartina perspektivasini qurishda chiziqlarning ahamiyati hammaga yaxshi ma'lum. Naturadan tasvirlaganda, hammasini asoslangan chiziqli munosabatlarda ko'ra bilish zarur. Amalda bu shunchaki tasvir emas, balki chiziqli kontur bilan ifodalangan rang yuzalarini o'z ichiga olgan kompozitsion, ijodiy yechim bo'ladi. Chiziq o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, balki shakl, hajm chekkasi sanaladi, shaklni chizadi, unga xarakter, "jon" baxsh etadi. Ammo shakl ichida ham, asarning asosiy mazmuniga e'tiborni jamlab, asosiysini ajratib, ikkinchi darajaliklarini unga bo'ysundiradigan, kompozitsiyani quradigan chiziq va shakllar mavjud.

Kompozitsiyaning eng muhim masalalaridan biri – matoda rang kompozitsiyasi. Chiziq bilan ifodalangan siluet konturi ham maydon, figuraga ega bo'lib, u rang bilan to'ldiriladi. Bu rang qanchalik intensiv bo'lsa (masalan, qizil), u ko'zlarga shunchalik kuchli ta'sir qiladi, bunday rang bilan to'ldirilgan

siluet faol dog‘ sifatida idrok etiladi, bu kompozitsiya yaratish vazifasini hal qilish uchun juda muhim, zero boshqa rang va tusdagi dog‘larni joylashtirishga ongli munosabat zaruratini keltirib chiqaradi, ya‘ni rangtasvir asarida joylashtirish, kolorit yaratish imkonini beradi.

Rang kompozitsiyasi monand, bo‘yoqlarning ma‘lum gammasi, umumiy tusga bo‘ysunganlikka asoslanadi. Umumiy rang tusi doimiy tarkibiy kattalik sifatida barcha ranglarni bog‘laydi va ularga singib ketadi, bu bilan rang xilma-xilligining ma‘lum yaxlitligini hosil qiladi. Tuslarning butun nyuanslari, qarama-qarshiliklar o‘zaro ta‘siri, hajmlarni yasash shu yaxlit qurilma ichida kechadi. Aftidan, rangtasvirda doimiy bo‘lgan issiq va sovuq ranglar mavjud emas. Turli sharoitlarda aynan bitta rang turlicha “jarang” sochishi: goh issiq, goh sovuq tuslanishga ega bo‘lishi mumkin. Hammasi rang munosabatlariga bog‘liq. Issiq va sovuq ranglardan plastik shakllar hajmi yasaladi, yorug‘ va qorong‘ini o‘zgartirish, ammo rassom uchun – rangga xos o‘zgartirishdir.

Leonardo da Vinchi ham tabiatda hamma narsa rang munosabatlari bilan bog‘langanligini – bir narsaning rangi qo‘shni narsalar rangiga ta‘sir o‘tkazishi va uning rangi ta‘sirini “his etishini” payqagan. Shu sababli ma‘lum narsadagi soya va yarim soyalar shunchaki yorug‘ yoki qorong‘i emas, balki o‘zgacha rangga ega va issiqroq, sovuqroq, qizilroq, ko‘kroq, yashilroq va sh.k. bo‘lishi mumkin. Bu barcha rang boyligi, rangning xilma-xil joylashtirilishi umumiy lokal rangga joylashadi va uning yagona yaxlit rang siluetini hosil qiladi. Siluetlar, o‘z navbatida, garmonik birlikda o‘zaro bog‘lanishi va kartinaning umumiy bo‘yoq qurilmasi (rang tusi) bilan nisbatlanishi kerak.

Soyalar ustida doimiy ishlash kerak. Rassom ularga qanchalik ko‘p qaytar ekan, ular shunchalik chuqurroq va ifodaliroq bo‘ladi. Bu haqida Ch.Chennini ham yozgan. E.Delakrua soyani yaxshi chizgan rassom, hamma narsani yaxshi chizishini ta‘kidlagan.

Rangtasvirda bir-birini aniqlaydigan, jarangli va chuqur qiladigan qo‘shimcha ranglar ta‘siri katta ahamiyat kasb etadi. Biroq rangtasvirning bu vazifalarini hal qilish badiiy did, takt, rangni nozik his qilish, katta amaliy tajriba va rangshunoslik qonuniyatlarini bilishni talab qiladi.

Har qanday kompozitsiya dastlab eskizda moddiylashtiriladigan g‘oyadan boshlanadi. Rangtasvirda eskiz – kartina loyihasidir. Qolgan hamma masalalarni o‘ylab ko‘rish va eskizda hal qilish kerak, avvalo, bu - g‘oya, syujet g‘oyasi, tushunarli va soddagina qilib ifodalash kerak bo‘lgan asosiy fikr. Keyingi ish davomida asosiy fikrni badiiy ifodalash masalalari tobora ahamiyat

kasb etib boradi, ammo g'oya mazmuni hamisha asosiysi, boshqaruvchisi va hamma qolganini o'ziga bo'ysuntiradigani bo'lib qolaveradi. Boshlovchi rassom dastlabki qadamlaridanoq har qanday ijodiy ishni eskizdan boshlashga o'rganishi kerak. Eskiz nafaqat kartina, natyurmort yechimi uchun, balki naturadan uzoq muddatli akademik tasvir uchun ham zarur. Xatto o'quv chizg'ilar ham tasodifiy, shunchaki noma'lum tarzda bajarilmaydi. Ular ma'lum: harakat, xarakter, plastika, kayfiyat, koloritni ilg'ab olish maqsadini ko'zlaydi.

Eskiz ustida ishning asosiy vazifasi – badiiy obrazni izlashda umumiy tasavvurning ifodaliligi, ishonchlilikiga erishish. Bunga kompozitsiya qismlari: asar koloritini hosil qiladigan narsalar guruhini joylashtirish, siluetlar, ularning plastik shakllari, asosiy chiziqlari, rang dog'larini joylashtirish kiradi; buning hammasida ishning asosiy maqsadi uyg'un obrazni yaratishni ko'zdan qochirmaslik kerak. Demak, eskiz – kompozitsiyadir. Ammo kompozitsiya eskizda tugamaydi, u faqat boshlanadi, uning rivojlanishi rangtasvir ishini ramkaga joylashtirgunga qadar davom etadi.

Asosiy fikr kompozitsiyada ham yetakchi bo'lishi uchun, shakl parchalanishining oldini olish uchun eskiz ustida ishlash boshida detallardan voz kechish va faqat yirik massalarni joylashtirish zarur. Masalan, Leonardo da Vinchi eskizlarni katta mo'yoqalamda bajarishni maslahat bergan, chunki eskizda asosiy g'oya tushunarli bo'lsa, detallarni keyingi ishlash uni yanada oydinlashtiradi, bordi-yu, eskiz avval boshdan umuman tushunarsiz bo'lsa, hech qanday detallar yordam bera olmaydi.

Kompozitsiyada, xatto dinamika ifodalangan holda ham, hammasi barqaror bo'lishi kerak. Rassomlar bunga koordinatalar, muvozanatning vertikal va gorizontal o'qlarini his etish, o'ng va chap, yuqori va pastdan yuklamalarni hisobga olib va ratsional taqsimlab erishadi. Asar markazidan o'tadigan muvozanatning vertikal o'qi katta ahamiyatga ega. Aynan uni hisobga olish bilan plastik hajmlar, bo'yoqlar yuklamasi aniqlanadi, harakatning asosiy bo'g'ini topiladi, bir qismdagi yorqin dog' boshqasida tutib turishni talab etadi. Buyuk ustalar asarlarida rassomlar kolorit qurishning u yoki bu usullaridan qay vaqtda va qanday foydalanganini kuzatish mumkin.

Tabiatda hammasi simmetrik yoki asimmetrik, bu esa hamma jonli narsalarga cheksiz xilma-xillikni baxsh etadi. Shu sababli kompozitsiya komponentlarini barqarorlashtirish mutlaq geometrik simmetriyaga intilishni

anglatmaydi, balki, aksincha, g'oyaga muvofiq keladigan kompozitsion chizmalari qurilishiga "ergashadi".

Natyurmort rangtasvirida eng sodda syujet yechimi eng muhim o'rin tutadi, bunda rassom hayotiy hodisalarni ko'rish, chuqur tushunib etishi, his qila olishi, ularni anglab va qog'ozda rangin qilib ifodalay olishi zarur. Hunar va kasbiy savodxonlikni o'zlashtirish imkon doirasidagi ijodiy jarayonda samarali kechadi, bu rassomning o'zini rangtasvir malakalarini rivojlantirishga oid faol maqsadli faoliyatini nazarda tutadi.

Kompozitsiya jarayonining juda muhim tarkibiy qismi rangtasvirda kolorit sanaladi. Taniqli rassom va olim N.Volkov ta'kidlashicha, rangtasvirda kolorit rang tuslarining uyg'un birikmalari qonuniyatlarini, yorug'lik va rang qarama-qarshi hodisasini, ranglarni optik aralashirish qonunlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, rangtasvirda kolorit badiiy ifoda vositasi sanaladi va badiiy shakl elementi sifatida rangtasvir asarining mantiqiy va obrazli mazmuni bilan uzviy bog'liq. Uning realistik tasvir savodxonligida rang birikmalarini tashkil qilish tizimi sifatidagi, ya'ni makonda yorug'-soya rangtasvir asosini rang - tus munosabatlari, nyuanlar, yarim tuslar, ottenkalar va shu kabi tashkil qiladi.

Masalan, N.Krimov o'quvchilarga bir tomoni qoraga bo'yalgan oq kubni chizishni taklif qilgan, va oq tomonini soyada qoldirib, chiroq yordamida yoritgan. Qolaversa, pedagog kubning yoritilgan qora tomoni soyada qolgan oq tomonidan ko'ra yorug'roq bo'lishiga ishontirgan. "Ko'zni qo'yish"ni birinchi zarurat deb bilgan. N.Krimov boshlovchilarga faneradan ishlangan, yuzalari turli ranglarga bo'yalgan va bir tomondan elektr lampa bilan yoritilgan kichik shirma-garmoshkani chizishni taklif etgan. Lampa nurlari sovuq ranglarga bo'yalgan qismlarga qaratilgan, iliq ranglar esa tabiiy yorug'likka qaratilgan. Tabiiyki, bu kabi topshiriqlardan maqsad o'quvchiga ranglarni konstant idrok etishdan chetlashishga yordam berish va yoritish sharoitlari ularni jiddiy o'zgartirishini isbotlashga qaratilgan.

Naturaga proporsional tus va rang munosabatlarini yoritishning umumiy holatini hisobga olgan holda saqlab qolish uchun naturadan bajariladigan har bir ish oldidan tasvir quriladigan bo'yoqlar diapazonini belgilab olish, ya'ni rang munosabatlarini qay miqyosda va qay chegaralarda o'rnatishni aniqlash kerak.

G.V.Beda ta'kidlashicha, tus madaniyatini egallashda bir rangda (grizayl) bajariladigan, hamma e'tibor narsalar shaklini yorug'ligi bo'yicha taqqoslab topishga qaratilgan etyudlar katta foyda beradi. Bunda bitta bo'yoq (masalan,

natural umbra) imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanib, yorug'lik diapazonida kattagina xilma-xillik va umbraning belilagacha qorong'i surtilishiga erishiladi. Bunda egallangan ko'nikmalar, bo'yoqlarning butun palitrasi bilan ishlashga ham albatta o'z ta'sirini o'tkazadi, qachonki muvaffaqiyat ko'p jihatdan rangtasvirda yorug'lik munosabatlarini to'g'ri hal qilishga bog'liq bo'ladi. Biroq bu munosabatlarning o'rni, avvalo, yorug'-soya gradatsiyalari tufayli bajariladigan hajmli shaklni berish bilan cheklanmaydi.

Natyurmortning umumiy, shuningdek, ayrim narsalari mohiyatini aniqlash uchun ularni qarama-qarshi tamoyili bo'yicha taqqoslash kerak. O'quv qo'yilmada qarama-qarshiliklarning yo'qligi muqarrar ravishda rangtasvirda ifodalilikning yo'qligini belgilab beradi, zero yuzalar, ranglar, yorug' va soya, yorug' va qorong'i qarama-qarshiliklari nafaqat kompozitsion-ifodali komponentlar, balki qo'yilmaning estetik ifodasi ham sanaladi. I.P.Pavlov ham ta'kidlaganki, ta'sir etuvchilarni aniq tabaqalashtirish, ularning ixtisoslashtirilishiga u doimo mustahkamlanib, boshqa, o'ziga yaqin ta'sir, mustahkamlanmagan etuvchi bilan qarshi qo'yilganda erishiladi.

Talabalar, odatda, rang haqidagi qabul qilingan iboralardan foydalanmaydi. «Yorug'lik» iborasini ular ko'pincha «yorug'lik kuchi» iborasi bilan almashtirishadi. Rang tusi deb tushunilganini rassomlar shunchaki rang deb atashadi (bu holda rang tusiga ega bo'lmagan axromatik ranglarni ranglarga kiritib bo'lmaydi). Rassomlar tomonidan «tus» iborasi «rang» so'zsiz o'zgacha va, qolaversa, ikki xil ma'noda qo'llanadi: ayrim hollarda yorug' yoki qorong'i tusdagi kartinalar haqida gap boradi (tus tushunchasi ranglar yorug'ligi bilan bog'lanadi). Boshqa hollarda oltinsimon jigarrang yoki boshqa tuslar haqida gap boradi (tus tushunchasi «rang tusi» iborasi bilan almashtiriladi). «To'yinganlik» iborasini «intensivlik» iborasi bilan almashtirishadi, u rang to'g'risidagi fanda ham, ammo boshqa ma'noda qo'llanadi. Rang intensivligi to'yinganlikka ham, yorug'likka ham bog'liq. Teng yorug'likda nisbatan to'yingan ranglar intensivroq, teng to'yinganlikda esa nisbatan yorug'lari intensivroq bo'lib chiqadi.

Mashhur rassom Rubens soyalarda belilani ishlatmaslikni maslahat bergan. U yozadi: "Soyalarni chizishni yengil boshlang, ularga xatto salgina belila kiritishdan o'zingizni tiying: belila – rangtasvir uchun zaxar va faqat yorug'liklarda kiritilishi mumkin. Agarki belila tus shaffofligi, oltinsimonligini va soyalaringiz iliqligini buzar ekan, sizning rangtasviringiz yengil bo'lmaydi, ammo og'ir va xira bo'lib qoladi. Yorug'likka nisbatan ham ishlar shu ahvolda.

Bunda bo'yoqlar, keragicha, korpusli, ammo zaruricha beriladi, biroq tuslarni sof saqlash kerak.

Darhaqiqat, yorug'lik yaxshi berilgan istalgan kartinada yorug'likda korpusli zich qo'yishda soyalarning shaffofligini ko'rish mumkin. Yorug'-soyani to'g'ri berish shakllar hajmliligini qayta yaratadi. Yorug'-soya – hajmli shakllarni tasviriy berishning asosiy vositasi. Yorqin yoritilganda, yorug' narsalarning yoritilgan tomonida rang ottenkalarini deyarli sezilmaydi: ular yorug' narsalarda faqat soyalarda ko'rinadi. O'rtacha yorug'likdagi narsalarda yorqin yoritilganga nisbatan boy rang gradatsiyalari kuzatiladi, qorong'i narsalarda esa rang o'tishlari o'rtacha intensivlikdagi qaraganda ancha ko'p seziladi.

Ta'kidlash keraki, iliq va sovuq ottenkalar hajmli shakllar yuzasida qator shartlarga bog'liq ravishda turli hollarda turlicha taqsimlanadi. Soyalarda ko'pincha reflekslar, ya'ni atrofdagi ob'yektlardan qaytgan va soyalarni yoritgan yorug'lik bilan belgilanadigan ottenkalar kuzatiladi. Reflekslar nafaqat soyalarda, balki bliklarda ham kuzatiladi. Nometall narsalarda bliklar hamma vaqt yoritish rangiga ega (oq rangda – oq, yashil rangda – yashil va sh.k.). Reflekslar yuzaga kelishi sababli esa bliklar rangi o'zgaradi. Ochiq makonda bliklar ko'pincha moviysimon (moviy osmon refleksi) bo'ladi. To'g'ri tushgan quyosh nurlari bilan yoritilgan narsalarda bliklar sarg'ish yoki sariq bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'taylik, metallarda bliklar rangli oltin va misda – sariq, pushti, kumushda – moviysimon.

Ayni shu maqsadda – shakllar hajmliligini qayta yaratishda yorug'-soyadan tashqari, «bo'rtadigan» va «chekinadigan» ranglar hodisasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda iliq ranglar oldinga bo'rtib chiqqandek, o'zining makonda faktik joylashuviga nisbatan yaqinroq joylashgandek, sovuq ranglar esa chekinadigan, o'zining faktik joylashishiga qaraganda uzoqroq joylashgandek tuyuladi. Nisbatan yorug' va nisbatan to'yingan ranglar ham oldinga bo'rtib, nisbatan qorong'i va nisbatan kam to'yingan ranglar chekinadi. Nisbatan fakturali, nisbatan zich qo'yilgan bo'yoqlar ham lessirovka yordamida olingan ranglarga qaraganda bo'rtib chiqadi.

4-BOB. O'QUV NATYURMORTINI ISHLASH METODIKASI NATYURMORTNI GRIZAYLDA ISHLASH (akvarel)

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining datslabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo'lib, qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berganlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...». Demak, rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialliligi, uning hajmi, tus munosabatlarini ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Haqqoqalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsadagi (shula, yorug'lik, yarim soya, soya va h.k.) yorug'-soya gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq, boshqalari esa ochroq ko'rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichroq «og'ir» (masalan, chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli vaza, qog'oz rulon va h.k.) ko'rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirida ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog'da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Tus munosabatlarini eng to'q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko'rsatilishi to'g'riroqdir. Har bir narsaning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o'zaro och joylarini, soyani – soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to'q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Mevalardagi yorug'lik eng yorug' joyiga qaraganda to'qroq bo'lishi mumkin. Tasvirida va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarning

kamayishiga erishish zarur. Eng to‘q narsalar yoki uning soyasi – bu qora baxmalda va ko‘mir rangida emasligini esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshoqroq, lekin juda ham to‘q qora tusda ishlash kerak emas. Hattoki, qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo‘yoqni bor kuchidan foydalanish noto‘g‘ri, aks holda qog‘ozda yoki matoda go‘yo qora teshik paydo bo‘ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo‘yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo‘q, chunki, u oq bo‘yoqqa nisbatan ancha to‘qroq bo‘ladi.



Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy ob‘yektlarning yorug‘-soya munosabatlari: fonning och-to‘qligi, narsalarning sirtidagi och-to‘qligiga va ularning o‘zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo, qo‘yilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiy munosabatlarni noto‘g‘ri olsak, qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug‘-soya hamda tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko‘rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug‘likka qarab yuritish kerak, buning utsiga soya joylariga imkon boricha bo‘yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug‘likni esa ularga nisbatan quyuuq bo‘yoqda, ancha to‘qroq qatlamli va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha, balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontratsli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko'rinib turgan tashqi ko'rinishi o'zining ko'lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatan yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo'shilib, uning yuqori qirrasida yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini yorug'-soya bilan ham puxta ishlash kerak. Gipsli narsalarning sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug'likdan soyaga bora turib) yuzasining har bir millimetri atsa-sekin to'qlashtiriladi, buning utsiga shaxsiy soyasining eng to'q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo'ladi. Tashqi ko'rinishning o'ng tomonidagi shaxsiy soyasi refleksi tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va h.k.) narsalarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish izchilligining xususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib, o'zining ma'lum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi – hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo'laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko'rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi ob'yektlar siluyetli va tekis (yassi) bo'lib ko'rinadi. Old ko'rinishdagi buyumlarning yorug'-soya qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o'qiladi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so'ng, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida

mayda bo'laklarni, ularning yorug'-soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhining yaxlitligini saqlash – haqqoniy tasvirlashning asosiy sharti hisoblanadi.

GIPSLI GEOMETRIK SHAKLLARDAN IBORAT NATYURMORTNI GRIZAYLDA ISHLASH

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berishgan. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangli tasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...». Demak, rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qiladi.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsaning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq, boshqalari esa ochroq ko'rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichroq «og'ir» (masalan, chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli vaza, qog'oz rulon va h.k.) ko'rinadi. Bu chog'da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi.



Tus munosabatlarini eng to'q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko'rsatilishi to'g'riroqdir. Har bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o'zaro och joylarini, soyani soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to'q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Mevalardagi yorug'lik eng

yorug' joyiga qaraganda to'qroq bo'lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarni kamayishiga erishish zarur.

Ishning birinchi bosqichida—asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy ob'yektlarning yorug'-soya munosabatlari: fonning och-to'qligi, narsalarning sirtidagi och-to'qligiga va ularning o'zaro bir-birlariga nisbati aniqlanadi. Avvalo, qo'yilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Ishni soyadan yorug'likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo'yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug'likni esa ularga nisbatan quyuc bo'yoqda ancha to'qroq qatlamli va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, refleklarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo'laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko'rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi ob'yektlar siluyetli va tekis (yassi) bo'lib ko'rinadi. Old ko'rinishdagi narsalarning soya-yorug' qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o'qiladi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so'ng, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhini yaxlitligini saqlash – haqqoniy tasvirlashning asosiy shartidir.

NATYURMORTNI BOSQICHMA-BOSQICH TASVIRLASH

Naturani haqqoniy tasvirlash – bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialligi, hajm va nisbatlarni ifodalash, etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan ob'yektlar va narsalarni xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Realistik tasvirlash savodini o'quv natyurmortlari bajarish orqali o'zlashtirish mumkin. Darhaqiqat, savodli tasvirlash asoslarini o'rganishda natyurmort qimmatli tasviriy ob'yekt hisoblanadi. Natyurmortni rangtasvirning kamerali musiqa deb atashadi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.





Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq, so'ngra esa narsa va narsalarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi, muayyan o'lchamdagi qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida «tiqilinch» yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinmaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalb etuvchi narsa – kompozitsiya markazi qolganlari esa unga tobe bo'lib xizmat qiladi. Tasvirda ko'ruvchining nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagi qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan), keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy narsalardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash, so'nggra, turli rangdagi, materiallikdagi narsalardan tuzilgan qo'yilmalar (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar)ni tasvirlash mumkin.



O'quv natyurmortini amaliy bajarilishi, dastlab faqat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir), keyin rangli (akvarel bo'yog'ida) tasvirlash jarayoni bilan boshlanadi.

UY-RO'ZG'OR BUYUMLARIDAN TUZILGAN NATYURMORT

Akvarel bo'yog'ida dastlabki mashqlarni bajarish uchun qo'yilma 3-5 ta narsadan iborat bo'lib, rang va tus munosabatlari bir-biridan farq qilgan, ular shakliga ko'ra uncha murakkab bo'lmagan buyumlar bo'lishi kerak. Sodda qo'yilmalarni astoydil ishlab, ijobiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natura qo'yilmalarini bajarishga o'tish noto'g'ri. Akvarel bo'yog'ida mashqlarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq.

Uzoq vaqtga mo'ljallangan har qanday vazifa oldidan dastlabki qisqa muddatli etyudlarni bajarish muhimdir. Shu tariqa bajarilgan rangli etyudlar tasvirlanayotgan naturaning katta hajmga ega bo'lgan mato yoki qog'ozdagi kompozitsiyasini to'g'ri topishga ko'maklashadi va ishlash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarni aniq ko'rsatishda namuna bo'ladi.

Natyurmortni akvarel bo'yoqlari bilan rangda ishlash jarayonini (ko'rgazmali) amaliy namoyish etish uchun biroz murakkab bo'lgan mevalar va maishiy narsalardan tuzilgan natura qo'yilmasini olamiz. Qo'yilmadagi idish tekis yaltiroq yuzaga ega, shuningdek, ravshan ifodalangan (nur) shu'lasi

mavjud. Hamma narsalar sol utsiga joylashtirilgan, orqada yorqin kul rangdagi devor foni va sidirga matolar. Mevalarda aniq belgilangan shaxsiy, tushuvchi va yarimsoyalar aniq ko'rinib turibdi. Idishda iliq va sovuq reflekslar mavjud.

Bunday tuzilgan natyurmortning qalamtasviri qiyinchilik tug'dirmaydi, ammo ranglarda tasvirlash biroz murakkabroq, chunki mevalarning aniq rangini tasvirlash uchun rang munosabatlariga qat'iy amal qilish zarur. Bo'yoqning datslabki qatlamini qo'yishdan boshlab rang munosabatlaridagi mutanosiblikni saqlab borish kerak. Akvarel bo'yoqlari qurigach, biroz oqaradi, shuning uchun ham ularni rang jihatdan to'g'roq olish mumkin.



Akvarel bo'yoqlari bilan tasvirlash jarayonida narsa va buyumdagi yorug' bo'lib turgan qismlarni bo'yamaslikka harakat qilish kerak.

Malaka ortib borgan sari kerak bo'lgan tuslarni tezda hosil qilish mumkin, qog'oz yuziga qanchalik ortiqcha bo'yoq qatlami surtilsa, narsalarning rangi xira bo'ladi. Madomiki, ranglar birdaniga olinib, kerakli joyga surtilsa, uning yonidagi tuslarni ham topish yengil ko'chadi.

Tasvirlovchi har bir narsaning hajmdor shaklini yorug'-soyaning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan uning rang o'zgarishlarini ham e'tibor bilan kuzatib borishi kerak. Jigarrang idish yarim soyada va yorug'likda xilma-xil rang turiga ega. Fondan tushayotgan reflekslar jigarrang emas, balki siyoh rangdir. Undan tashqari mevalar soyasida reflekslar mavjud, ular o'zaro och-to'qligi bilan va rang turlari bo'yicha farqlanadi.

Eslatib o'tmoqchimizki, hamma buyumlar(narsalar)ga, bir vaqtning o'zida, och-to'qligi, rangdorligi va to'yinganligini taqqoslagan holda rang berish kerak. Demak, narsalarni yakka kuzatmasdan, aksincha, to'plamni yaxlit ko'rishga harakat qilish lozim. Yonma-yon turgan ikkita narsaning rang farqlarini taqqoslash qiyin emas. Agarda oldimizda o'nta narsadan tashkil topgan natyurmort bo'lsa, har bir narsaning rangini yakka holda, shuningdek, hammasi bilan birgalikda yaxlit taqqoslash zarur. Ya'ni xuddi orketsrda bo'lgani kabi.

Orkestrda faqat dirijyorgina bu ansambldagi barcha musiqa asboblari bir vaqtda o'zi eshitadi. Rangtasvirda ham xuddi shunday, faqat yaxlit idrok etishgina narsalar guruhining rang munosabatlarini to'g'ri aniqlashga imkon beradi.

Har bir narsaning hajmdor shakliga ishlov berishda undagi mavjud iliq va sovuq rang turlarini diqqat bilan kuzatish lozim. Shu bilan birga, eng muhimi, umumiy tus va ranglar gammasini (barcha bo'yoqlarning uyg'unlik birligi) nazardan qochirmaslik kerak.

Narsalarning shu'lalarini tasvirlash mobaynida ularning jozibali ranglarini unutib, faqatgina yorqinligiga erishish bilan chegaralanish kerak emas.

Har bir narsaning och-to'qligi va rangdorligi fon bilan atrofidagi narsalar rangi va och-to'qligiga bog'liq bo'lsa, unda uning atrofidagilarini bo'yamaguncha to'g'ri ifodalash mumkin emas. Agarda bitta narsaning rangi o'zgartirilsa, u bilan birga yonidagi bo'laklarni ham o'zgartirish kerak. Soyalar to'qlashtirishsa, yorug' yanada yorqinlashadi. Ammo fonni qoraytirsak, unda narsalardagi yorug' aniq ajralib, soyalarning kontratsligi yo'qoladi.



Narsalarning old va orqa ko'rinishlari orasidagi kenglikni ko'rsatishga ham e'tibor qaratish lozim. Natyurmortdagi narsalar bir-biridan turli masofada joylashadi, yaqindagi narsalar yorqinroq ko'rinadi.

Agar uzoqda turgan narsalarning ranglarini yengilroq va xiraroq olinmasa, oldingi qatorga chiqib ketadi. Natyurmortni tasvirlash vaqtida havoiy perspektivaning ta'sirini har doim ham naturada yengil sezish qiyin; shunga qaramay buni har doim yodda tutib qalam bilan tasvirlashda bitta narsani yaqinroq joylashtirish, boshqasini esa uzoqlashtirib tasvirlash kerak. Agar bo'yoq mo'yqalam va suv bilan yaxshilab eritilgan bo'lsa, qog'oz yuzasida yorqin tasvir hosil bo'ladi. Mabodo, aksi bo'lsa, u holda qog'oz sathida mo'yqalam izlari qoladi, ish esa sifatsiz chiqadi.

Akvarelda tinimsiz vazifalarni bajarish natijasida, turli usul va uslublarda atsoydil ishlab, ko'nikma va malaka ortib boradi.

«Yorqin» chizish texnikasi narsaning materialligini aniq ko'rsatishga va chuqur soya joylarining shaffof bo'lishiga imkoniyat beradi. Agar ish jarayonida ikkala uslubdan samarali foydalanilsa: barcha soya joylarini va reflekslarni faqat «yorqin» uslubda, yorug'lik va yarim soyalarni esa – «quruq» usulda ishlash yaxshi natija beradi. «Yorqin» uslubda ishlash «quruq» ishlashdan ustun bo'lishi kerak.

Narsalarning yoritilgan joylari aniq tashqi ko'rinishga ega. Soya va uzoq ko'rinishdagi tus va rang kontratlari sutstroq, shakllari esa yaqqol tashqi ko'rinishga ega emas.

Soya va orqa ko'rinishdagi narsalarning tasviri umumshtirilgan holda bo'lishi lozim. Aynan shu joyda namligicha ishlash usulini qo'llash ma'qul. Ishlashdan oldin qog'ozni toza suv bilan yumshoq latta yoki katta mo'yqalam yordamida bir sidra ho'llanadi. Ikki-uch daqiqadan so'ng, qog'oz suvni shimib olgach, akvarel bilan ishni boshlash mumkin. Bo'yoq surtmalari nam qog'oz yuzida yeyilib, bir-biri bilan qo'shilib, mayin va nozik o'tishlar hosil qiladi. Agarda biror bir joyini ajratish lozim bo'lsa, qog'ozni quritib, kerakli bo'yoq surtmasi beriladi yoki quruq mo'yqalamda aniq rangli chegaraning talab etilgan joylari to'qlashtiriladi. Namligicha ishlash usuli tasvirni nihoyatda nozik va jozibali ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Akvarel bo'yoqlari bilan ishlash jarayonida soya-yorug'dagi nozik o'tishlarni silliqlab borish kerak emas.

Quruq qog'ozdagi kuchli namlangan bo'yoq dog'i qurigandan so'ng juda ham yaqqol kontur paydo qiladi. Shuning uchun bunday dog'larning chekka

qirralarini qurimasdan yumshatish lozim. Tasvirlanayotgan etyud muvaffaqiyasiz chiqib, tuslari xira bo'lsa, ish jarayonini to'xtatib, katta mo'yqalam yoki paralon yoki momiq paxta yordamida ishni yuvib tashlash kerak. So'ngra ishni qayta akvarel bo'yog'ida ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Juda namlangan qog'oz odatda bo'rtadi, egiladi, ammo qurigan paytda yana tortiladi va ishni davom ettirish mumkin.

Akvarel bo'yoqlarida bajariladigan datslabki o'quv mashg'ulotlari har doim ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Ranglar xira, kir va sifatsiz bo'ladi. Bunday holatda cho'chish kerak emas, chunki taniqli rassomlar ham datslabki o'rganish jarayonida barcha qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar.

Umuman, haqiqiy mahorat tinmay o'qish, o'rganish va izlanish jarayonida hamda atsoydil amaliy mashqlarni bajarish orqali yuzaga chiqadi. Surat haqida gapirganda: «Bu qanday dadillik bilan tasvirlangan» deb hayqirishdan ko'ra, «Qanday ajoyib» yoki «Qanday go'zal tabiat» deyilgani rassom uchun katta baxt.

Rangtasvirida eng muhimi shakllarning aniqligi, oddiyligi va mazmunning chuqurligidir.

RANGLARI BIR-BIRIGA YAQIN BO'LGAN BUYUMLARDAN TUZILGAN NATYURMORTNI RANGLI ETYUDI

Akvarelda ishlash malakasi bir oz oshgandan so'ng birmuncha murakkabroq natyurmortlarni ishlashga o'tish mumkin. Bu mashq rang sezish qobiliyatini o'stirib, ranglar tusidagi tafovutlarni ham aniq tasvirlashni o'rganish imkoniyatini beradi. Natyurmort uchun sopol ko'za, kosa va mevalar rangli mato fonida olinadi. Uni diqqat bilan kuzatib, tahlil etib bo'lingach, qo'yilma qalamda yengil chiziqalar bilan tasvirlanadi. Chizilayotganda natyurmort hamisha tasvir bilan taqqoslab turiladi. SHu jarayonda yo'l qo'yilgan xatolar asta-sekin tuzatiladi hamda bo'yoq bilan ishlashga o'tiladi.

Akvarel bo'yoqlari bilan natyurmortning rangtasvirini ishlayotganda uning eng to'q joylarini birdaniga ishlash yo'li bilan yorug' tusdan to'q tusga qarab o'tib boriladi.

Natyurmort rangtasvirini ishlashda yorug' joylarni oqishroq qoldirib, qolgan barcha narsa va buyumlarning ranglarini asliga yaqin bo'lgan rang tuslarining suyuq och eritmasi bilan bo'yab chiqiladi. Birinchi navbatda, to'q rang tusiga ega bo'lgan buyumlar ishlanadi. Qo'yilmadagi barcha matolar va buyumlar tasvirini ishlashni birgalikda, yalpisiga olib borgan ma'qul. Ana

shundagina rang tuslarining o'zaro bog'liqligini hamda tiniqligini saqlab qolish mumkin bo'ladi. Natyurmortdagi soyalar, yarim soyalarni ishlayotganda undagi har xil rang tuslarini, shuningdek, yorug'lik nurlarini hisobga olish zarur, chunki natyurmortning jonli chiqishida ana shu omillar muhim o'rin egallaydi.



BIR-BIRIGA QARAMA-QARSHI RANGLARDAGI BUYUMLARDAN TUZILGAN NATYURMORTNI RANGLI ETYUDI

Eng avvalo, natyurmort uchun kerakli narsalar tanlab olinadi. Ular havо rang yoki yashil sirlangan (emalli) kastyulka, ikki-uch dona sabzi, sariq yoki jigar rangli sopol piyola, ikkita sholg'om, bir nechta kartoshka hamda ikki-uch dona yorqin qizil, zarg'aldoq va och pushti rangli matolardan iborat bo'lishi mumkin. Birinchi qo'yilma uchun, turli rangdagi va hajmdagi narsalar tanlab olinadi.

Dastlabki natyurmortga qo'yilayotgan narsalar soni 2 yoki 3 donadan oshmasligi kerak. Qo'yilma chiroyli va qiziqarli bo'lishi uchun, tanlab olingan buyumlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda turganda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma'qul bo'lmasa, bu ishni yana bir necha bor takrorlash va kompozitsiyada yaxlitlik paydo bo'lgunga qadar davom ettirish zarur.



Sopol ko'za va sabzavotlardan tuzilgan natyurmortning muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo'yilmadagi buyumlarning kattaroqlarini orqada, maydalarini esa oldinroqda joylashtirib, biri ikkinchisini ozroq berkitib turadigan holatda qo'yamiz. Ammo barcha narsalarning tubi qisman bo'lsa-da, ko'rinib turgani ma'qul. Shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash ancha oson bo'ladi.

Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi qatorda joylashtiriladi. U shakli, rang va tusi bilan ajralib ko'rinib turishi, kompozitsiyaning markazini tashkil qilishi zarur.

Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq ifodali tasvirlash uchun uning birinchi oldingi qismiga uncha katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvlarini to'laroq ochib berish uchun, ularga tushayotgan yorug'lik nurlari old tomondan va yonidan yo'nalgan bo'lishi kerak. Shunda natyurmortdagi har bir narsaning hajmdor ekanligi aniq ko'rinib turadi.

Natyurmortdagi narsalarning tarxlari aniq ko'rinishi uchun mato tanlashga alohida e'tibor berish zarur. Shuni ham hisobga olish kerakki, oq fonda qoramtir narsalar, to'q fonda esa aksincha, oq narsalar aniq ko'rinadi.

Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar kiritiladi. Ular devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa, pastga erkin osilib tushib turadi va tabiiy shakldagi burmalar hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa, burmalar shu buyumning shakli bilan bog'liq ko'rinishda bo'ladi. Lekin juda mayda burmalarni tasvirlash ancha qiyin, shu sababli datslabki natyurmortda sidirg'a, jilvasiz gazlamalardan foydalanish kerak. Puxta qo'yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar

bo'lmaydi, uni old yoki yon tomonidan kuzatilganda mazmunli yagona guruh bo'lib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Natyurmort qo'yilmasini maqsadga muvofiq joylashtirib olgandan so'ng, metodik izchillikda tasvirlanadi.

Qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi qarash nuqtasini topib, ufq chizig'ini unga muvofiq tarzda belgilab olish muhim ish bo'lib, tasvirning umumiy kompozitsiyasi ko'p jihatdan shunga bog'liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida chiroyli joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab etadi. Shuning uchun asosiy ishni boshlashdan oldin bir nechta kichik o'lchamda xomaki rasm chizma-lavhalar bajarib ko'riladi. Ulardan eng muvaffaqiyatli chiqqanini tanlab olib, shu asosda katta tasvir ishlashga kirishiladi.

Qog'oz yuzasida natyurmortning umumiy o'lcham mutanosibliklari aniqlangach, uning umumiy kengligi va balandligi yengil chiziqlar bilan belgilanadi. Har bir narsaning umumiy shakli, alohida qismlarning nisbiy o'lchamlari topiladi. Buyumlarning asoslari orasidagi masofalar ham aniqlanib, ohitsalik bilan chiziladi. Bu ishlar qalamni qog'oz sathida tez-tez yurgizib, ishlanayotgan tasvimi qo'yilma bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi buyumning o'ziga xos shakli, katta-kichikligi va turgan o'rni aniq topilgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatiladi. Shakllardagi mavjud perspektiv qisqarishlar ham aks ettiriladi.

Buyum tasvirlarini surat tekisligida joylashtirish vaqtida ularning asoslarini, ya'ni ko'rinmas qismlarini ham to'liq chizish kerak. Shunday qilinganda ba'zi narsalarning «muallaq» holatda bo'lishi yoki bir narsaning ikkinchisiga «o'yib» kirgandek bo'lib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Natyurmortni qalamda mukammal ishlab bo'lgach, rang berishga o'tiladi. Uning rangtasvirini ishlashda qo'yilgan narsalarning yorug'-soya nisbatlarini, ayni paytda rang nisbatlarini ham ochib ko'rsatish muhimdir.

Akvarel bo'yoqlarini ishlatish usullari bir necha xil bo'lib, natyurmort rangtasvirini bajarishda ularning har birini almashtirib qo'llash tavsiya etiladi. Akvarel rangtasvirida keng tarqalgan ish uslublaridan biri lessirovka-bo'yoq qatlamlarini utsma-uts qo'yishdir. Bo'yoqning suyuq eritmasini tayyorlab olib, qog'ozga qatlam tarzida surtilganda tagidagi qog'oz tovlanib turadi. Bir sidra qo'yilgan bo'yoq qatlami qurigach, utsidan boshqasi surtiladi, otski qatlamning ko'rinib turishi tufayli yangi rang tusi hosil bo'ladi. Qatlamlar soni ko'paygan sari rang tobora boyib, ta'sirchanligi kuchayib boradi.

Akvarel bo'yoqlarining alohida xususiyatlaridan biri ularning ko'p vaqt namlikni saqlashidir. Bundan unumli foydalanib, bir xil rang qo'yilgandan keyin u hali qurimasidan utsiga ikkinchisi qo'yilsa, atsa-sekin bir-biriga qo'shilib ketishi natijasida mayin bog'lanishlarga erishish mumkin. Lekin bir rangning boshqasidan farqini aniq ko'rsatish kerak bo'lganda bo'yoq qatlamining butunlay qurishiga ahamiyat berish lozim.

Akvarel bo'yoq bilan ishlashni boshlashdan avval qog'oz mo'yqalam bilan namlab olinadi. Keyin tasvirning oppoq joyidan boshlab hammasi suyuq bo'yoq eritmasi bilan qoplab chiqiladi. Soyalarni birdan qoraytirib yubormasdan, atsa-sekinlik bilan bir qatlam qurigach ikkinchisini surtish kerak. Oxirgi bosqichda ingichka mo'yqalam bilan bo'laklarni ishlab chiqish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarni bir oz to'qlashtirib, natyurmortning yaxlit va hamohang ko'rinishiga erishish kerak.

UY-RO'ZG'OR BUYUMLARI VA MATOLAR BURMALARI BILAN TUZILGAN NATYURMORTNI RANGLI ETYUDI

Ushbu natyurmort qo'yilmasida sopol ko'za, likopcha, mevalar hamda matolar burmalari bilan mohirona tuzilgan. Natyurmortda sopol ko'za o'zining chiroyli shaklga egaligi, oq likopcha shakli o'ziga xos, mevalar hamda qo'yilmaning birinchi ko'rinishida g'arq pishgan olma va turli matolar burmalari bilan jozibali qo'yilgan. Avvalo, qo'yilmani sinchiklab kuzatish, to'g'ri qarash nuqtasini tanlay bilish ham zarur. Talaba qo'yilmani shunday tuzishi zarurki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham har tomonlama aniq ko'rinishi va kishini o'ziga jalb eta olishi muhimdir.

Qo'yilmani har tomonlama chuqur tahlil etib tasvirlash, birinchi, ikkinchi va uchinchi ko'rinishlarni ajrata bilish rassomdan o'tkir nigoh, xushyorlik va fikrlashni talab etadi.



Ranglash jarayonida barcha buyum va narsalarni bir sidra bo'yash, so'ngra soya, yarimsoya va shu'lalarga e'tibor bilan qarash ish sifatini oshiradi. Qo'yilmada matolar burmasidagi farqlarni ajrata bilish, yorug' va soya qismlariga e'tibor berish, har bir bo'yoq surtmasini joy-joyiga qo'yish oson ish emas. Tasvirlashda datslab narsa va buyumlarni alohida, so'ngra yaxlit tusga bo'ysundirib ishlash juda muhimdir.

«KUZ NE'MATLARI» MAVZUIDAGI NATYURMORT

Qarshimizda turli buyum va narsalardan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi: Havorang ko'za, zarg'aldoq anor, likopchada qovun bo'lagi va soldagi och havorang hamda jigarrang matolar. Oq devor och sariq mato bilan fon vazifasini o'taydi.

Ko'za va anor rang jihatdan boshqa narsalarga nisbatan ancha yorqinroq. Boshqa narsa va buyumlar rangi ancha murakkab. Qo'yilmani joylashtirgach chiroyli qarash nuqtasini tanlaymiz. Qo'yilmaga yon tomondan tushayotgan yorug'lik maqsadga muvofiqdir.

Dastlab al-lya prima texnikasida natyurmort eskizi 1 seansda bajariladi. Bu bosqichda asosan qo'yilmadagi katta munosabatlar – soyalar va yarimtuslar aniqlanadi.

Bu tayyorlov ishda ijodkorning g'oyasini ko'rish mumkin. Qog'oz yuzasida predmetlar aniq joylashgan, birinchi, ikkinchi va uchinchi ko'rinishdagi buyumlar to'g'ri topilgan. Etyudni tahlil etadigan bo'lsak, ranglar farqidagi issiq va sovuq, yorqin va xira narsalar aniq ko'rsatilgan. Zarg'aldoq rangdagi anor esa o'ziga issiq va kamto'yingan tusalarni bo'ysundiradi.

Ko'zada soya, yarimsoya va yorug'lik belgilanib, yorqin tUSDagi matoning oldingi ko'rinishda va devordagi farqi aniqlangan. Oldingi ko'rinishdagi qovun bo'lagi xuddi hozirgina kesib qo'ygandek juda yaqqol tasvirlangan.

Endi esa qo'yilmani qog'oz yuzasida tasvirlashni belgilaymiz. Qog'oz yuzasida tasvirlashdan avval, kichik o'lchamdagi qog'ozda eskiz variantini chizib, so'ngra katta o'lchamdagi qog'ozda yordamchi chiziqlar orqali natyurmortni tasvirlaymiz. Bu bizning birinchi bosqich ishimiz bo'ladi. Endi bo'yoqlarda ishni boshlaymiz.



Nimadan boshlagan ma'qul? Yorqin rangga ega bo'lgan buyumlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Qo'yilmamizda ko'za va anor ko'zga yaqin narsalardir. Devor va sariq matoni juda bo'rttirib ishlansa, yaxlitlik nisbatlari buzilib, natyurmortning rang munosabatlari o'zgarib ketadi. Ko'za va anorni to'liq o'z holatidagi rangida olish mumkin.

Havo rang rangdagi ko'za, turli tusda ko'rinadi: yorug'likda bir xil, yarimsoyada boshqa, soyada endi u havorang emas, balki siyohrang – havo rang, ayrim bo'laklarida yashil-jigarrangroq (shu'la ta'sirida) bo'lib ko'rinadi. Ranglar bilan ishlashda ularni qo'yilmadagi narsalar rangidan to'qroq berish kerak, chunki u qurigach, biroz ocharadi. Havo rang ko'zaning ranglari yorug'lik shu'lalar ta'sirida tovlanib, turli tusda ko'rinadi. Qo'yilmadagi anorda tushayotgan yorug'lik ta'sirida sovuqroq pushti rang, yarimsoya esa zarg'aldoq, soya qismida kuchli qizg'ish tus hukmronlik qiladi.

Likopchadagi qovun bo'lagini bo'yar ekanmiz uni devor va devordagi sariq mato bilan taqqoslab ishlash to'g'ri bo'ladi. O'ylab kuzataylik-chi likopchadagi qovun och tUSDami yoki devormi? Rang jihatidan qaysi biri sovuqroq — devor, qovun yoki likopchami? Qanday farqlar mavjud? Qovun bo'lagining po'tsimi yoki qovun o'zi rangliroqmi? Shu narsa yoddan chiqmasinki, har daqiqa qo'yilmani o'zingiz tasvirlayotgan ish bilan taqqoslab, ishlashni davom ettiravering. Ma'lum vaqt o'tgach, o'z ishingizni qo'yilma yoniga qo'yib, ularni solishtiring va kamchiligini topishga harakat qiling. Taqqoslashda avval kichik bo'laklar rangini, so'ngra ishga yaxlit qarab, uning umumiy tus munosabatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi ish so'nggida barcha buyum va narsalarni umumiy tusga bo'ysundirib yakunlash hisoblanadi.

GIPSLI MILLIY NAQSHDAN TUZILGAN NATYURMORTNI RANGLI ETYUDI

Bu natyurmort qo'yilmasini ishlashdan maqsad – gipsli milliy o'yma naqshini, qumg'on va sopol piyola rangli etyudini qisqa fursatda ranglar vositasida bajarishdir. (-rasm)

Vazifaning asosiy maqsadi gipsli o'yma naqsh buyumlarning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatidan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berishdir.

Qo'yilmadagi buyumlarning o'lchami turlicha bo'lganligi uchun kichikroq buyumlar oldin, yiriklari esa orqada tasvirlanadi.

Natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tasvirlash maqsadida alohida kichik o'lchamdagi qog'ozda xomaki rasmi chizib ko'riladi. Tasvir kompozitsiyasi rangda hal etilgach, asosiy ishga o'tiladi.

Qo'yilmani chizganda barcha buyumlarni bir yo'la tasvirlash lozim. Aks holda rasmda bir buyumning o'lchami kattaroq va ikkinchisi esa kichik bo'lib,

tasvir kompozitsiyasi buziladi. Shuning uchun qo'yilmadagi barcha buyumlarning umumiy balandligi va eni qog'ozda yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi.

So'ng qo'yilmadagi har bir buyumning o'lchami jihatdan o'zaro farqi, oralaridagi masofa, soya va yorug'lik kuchi hamda ranglari ko'z bilan chamalab aniqlashga o'tiladi.



Qo'yilma ufq chizig'idan pastroqda joylashtirilgan bo'lib, uning gorizont tekisligi aniqlanadi. Gipsli naqsh rozetka orqaroqda balandlikda bo'lib, sopol idish va likopcha hamda mevalar oldingi qatorda joylashgan.

Likopcha va sopol idishning umumiy shaklini bildiruvchi chiziqlar – simmetrik o'qlar va naqshli gips modelning asosi belgilab chiziladi. So'ngra likopcha va sopol idishning ustki, pastki asoslari va naqshning yon tomon yo'nalishlari perspektiva qonuniyatiga asoslanib belgilanadi. Naqsh gulining turgan joyini aniqlash uchun taxtacha asosi o'rtasidan yordamchi profil chiziq yuritiladi.

Sopol idish simmetrik shakldagi buyum hisoblanib, u silindr va shar shakllaridan tashkil topgan. O'tkazilgan simmetrik o'qdan idishning balandligi hamda enining o'lchami topiladi. Idish ufq chizig'idan bir oz pastroqqa qo'yilganligi uchun uning ustki va ostki asoslari ellips shaklda ko'rinadi. So'ngra idish bo'yi va enini belgilovchi chiziqlarni tutashtirish orqali umumiy shakl topiladi.

Qo'yilma qalamda mukammal chizib bo'lingach, ranglash uchun hozirlik ko'riladi. Avval qog'oz mo'yqalam bilan namlab olinadi. So'ngra tasvirning oppoq joyidan boshlab hammasi suyuq bo'yoq eritmasi bilan qoplanadi.

Soyalarni birdan qoraytirmasdan, asta - sekinlik bilan bir qatlam qurigach, ikkinchisini surtish kerak. Ayniqsa, gips o'yma naqshni bo'yashda soya qismlarini haddan ziyod to'qlashtirmasdan, iloji boricha yengil ranglar bilan bo'yash to'g'ri bo'ladi. Gipsli o'yma naqshga tushayotgan issiq va sovuq ranglar shu'lasini his etib ko'rsata bilish rassomdan katta mahorat talab etadi. Tasvirlashda metodik ketma-ketlikka rioya etib bo'yash maqsadga muvofiqdir.

Oxirgi bosqichda kichik mo'yqalam bilan har bir bo'lakka puxta ishlov berish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarni biroz to'qlashtirib, qo'yilmani yaxlit va hamohang ko'rinishiga erishish kerak.

TURLI XIL RANGLARDAGI MATOLARDAN TUZILGAN NATYURMORTNI RANGLI ETYUDI

Ushbu natyurmort rangli etyudning asosiy maqsadi, turli ranglardagi matolarni qalamda tasvirlab, ranglar orqali ko'rsata bilishdan iborat. Bu natyurmort qo'yilmasi ancha murakkab bo'lib, asosan, matolarni turli holatda (buralib, bukilgan, tekis osilgan) turganligini ranglar orqali tasvirlashdir. Yosh musavvir natyurmortni tasvirlar ekan, matolarga shunchaki rang berish bilan ish bitmaydi. (-rasm).

Qo'yilmadagi matolarni, avvalo, holatlarini qalamda yengil chiziqlar bilan belgilab, so'ngra ranglar vositasida uning bukilgan yoki osilib turgan holatlarini ranglashda uning och yoki to'q, sovuq yoki issiq ekanligini his etib bo'yash zarur. Bu ish juda nozik bo'lib, mo'yqalam bilan matolar holatini topishda goh yengil, ba'zan ochroq yoki to'qroq tuslash bilan matoning tik yoki yotiq holatda ekanligini ko'rsatish mumkin.

Matolar holatini hamda uning yumshoq ekanligini his etib, mo'yqalamni juda nozik harakatlar bilan tebratish, uning fakturasini sezdira olish juda muhimdir. Shuning uchun ham matolarni mohirona tasvirlay olish uchun rassom juda ko'p ter to'kishiga, astoydil harakat qilishiga to'g'ri keladi.

RANGTASVIR. KOMPOZITSIYA
fanidan innovatsion texnologiyalar tadbig'i

**MAVZU: UY-RO'ZG'OR BUYUMLARDAN TASHKIL TOPGAN
NATYURMORT**

AMALIY MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni: 20-25 gacha	Vahti: 12 soat
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy ish
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlash. 2. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlash. 3. Buyumlarning hajmiga ishlov berish, ularni aniqlash. Umumlashtirish va yakunlash
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarning natyurmort qo'yilmasini rangda ishlash orqali rang va tus munosabatlarini to'g'ri tushunishga o'rgatadi.	
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i>
Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlashga o'rgatish. Qo'yilmani rangda ishlashga, katta rang munosabatlarini aniqlashga o'rgatish. Buyumlarning hajmiga ishlov berishga, ularni aniqlashga o'rgatish. Umumlashtirish va yakunlashga o'rgatish.	Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlashni o'rganadi. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlashni o'rganadi. Buyumlarning hajmiga ishlov berish, ularni aniqlashni o'rganadi. Umumlashtiradi va yakunlaydi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Amaliy ish, akvarel texnikasi "Qanday" diagrammasi, «BBB» jadvali.
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, ko'rgazmali plakatlar, slaydlar.
<i>O'qitish shakli</i>	Guruh bo'lib ishlash
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona

Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, tahlil natijalari.
-------------------------------	--

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	1.1. Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. (1-ilova) Natyurmort qo'yilmasi haqida, qog'ozga qanday to'g'ri joylashtirish mumkinligi, rang va tus munosabatlari haqida ma'lumot beradi. (2-ilova)	1.1. Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2- Asosiy bosqich (60 min.)	2.1. Akvarel texnikasida bajarilgan metodik bosqichli qo'yilmani ekranda slaydlar orqali namoyish qiladi (Shu o'rinda mavzuga oid mahorat maktablaridan ham foydalanish mumkin) (3-ilova) va ularga qisqacha ta'rif beradi. (4-ilova)	2.1. Tamosha qiladilar.
	2.2. Akvarel texnikasida bajarilgan metodik bosqichli qo'yilmani namoyish qiladi (5-ilova) va ularga qisqacha ta'rif beradi.	2.2. Eshitadilar, yozadilar, tahlil qiladilar.
	2.3. Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni dastlabki bosqichini doskada tasvirlab beradi.	2.3. Ishni dastlabki jarayonini qog'ozlariga to'g'ri joylashtirib chizishni boshlaydilar.
3-Yakuniy bosqich (10 min.)	3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun «BBB» jadvali asosida talabalarga savol beradi (6-ilova) . 3.2. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarining amaliy ish natijalarini tahlil qiladi va baholaydi. (7-ilova) .	3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun «BBB» jadvalini to'ldiradilar savollarga javob beradilar. 3.2. Tahlil natijalari bilan tanishadilar.

MAVZU: UY-RO'ZG'OR BUYUMLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

4.**Reja:** Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlash.

5. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlash.

Buyumlarning hajmiga ishlov berish, ularni aniqlash. Umumlashtirish va yakunlash **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarning natyurmort qo'yilmasini rangda ishlash orqali rang va tus munosabatlarini to'g'ri tushunishga o'rgatadi.

O'quv faoliyatining natijasi: Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlashni o'rganadi. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlashni o'rganadi.

Buyumlarning hajmiga ishlov berish, ularni aniqlashni o'rganadi. Umumlashtiradi va yakunlaydi.

NATYURMORT QO'YILMASI

O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalariga rioya qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. Talabalar natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum goyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida bir oz bo'lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.


Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo'yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O'quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo'lajak natura qo'yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo'ladi. Masalan, N.Mashkov, «Nonlar» natyurmortini tasvirlash uchun navvoyga non mahsulotlarini tayyorlab berishga buyurtma bergan. Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi qo'yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tugdiradi.



AKVAREL BO'YOG'IDA NATYURMORT ISHLASH

Akvarel bo'yog'ida dastlabki mashg'ulotlarni bajarish uchun qo'yilma (3-5ta) buyumdan iborat bo'lib, rang va tus munosabatlari bir-biridan farq qilishi, shakli sodda bo'lgan buyumlar bo'lishi kerak. Sodda qo'yilmalarni astoydil ishlab ijobiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natira qo'yilmalarini bajarishga o'tish noto'g'ri. Akvarel bo'yog'ida mashqlarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq.

Uzoq vaqtga mo'ljallangan har qanday vazifa oldidan, dastlabki qisqa muddatli etyudlarni bajarish muhimdir. Shu tariqa bajarilgan ranglavhalar tasvirlanayotgan naturani katta hajmga ega bo'lgan matoda yoki qog'ozdagi kompozitsiyasini to'g'ri topishga ko'maklashadi va ishlash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarni aniq ko'rsatishda namuna bo'ladi.



B B B JADVALI

Natyurmort haqida nimalarni bilasiz?
 Natyurmort haqida nimalarni bilishni xohlaysiz?
 Natyurmort haqida nimalarni bildingiz?

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILDIM
Natyurmort haqida ayrim ma'lumotlarni	Akvarelda natyurmort ishlashni	Natyurmort haqida ko'pgina ma'lumotlarni

BAHOLASH: max.- 10 ball
 - Joylashtirish - 2 ball
 - Qurish – 2 ball
 - Soya-yorug' munosabatlari to'g'ri topilganligi-2 ball
 - Xajmdorlikka erishish -2 ball
 Umumlashtirish va yakunlash – 2 ball

Mavzu	RANGSHUNOSLIK. SPEKTR RANGLAR VA RANGLAR DOIRASI
-------	---

AMALIY MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqt – 6 soat	Talabalar soni 20-25 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Ma'ruza, amaliy
<i>Mashg'ulotining rejasi</i>	1. Rangshunoslik. Spektr ranglar va ranglar doirasi. 2. Akvarel texnikasida ranglar bilan ishlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga suvbo'yoq ranglari va ularning xususiyati haqida to'liq ma'lumot beriladi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Rangshunoslik. Spektr ranglar va ranglar doirasi haqida tushuncha beradi. Akvarel texnikasida ranglar xususiyati haqida to'liq ma'lumot berib, ranglar bilan ishlashni o'rgatadi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Rangshunoslik. Spektr ranglar va ranglar doirasi haqida tushunchaga ega bo'ladi. Akvarel texnikasida ranglar xususiyatini va ranglar bilan ishlashni o'rganadi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Amaliy ish, akvarel texnikasida ishlangan asarlar namoyishi, «Qanday» metodi “Klaster”, «BBB» jadvali.
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, ko'rgazmali plakatlar, slaydlar.
<i>O'qitish shakli</i>	Guruh bo'lib ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan

	jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jhozlangan ustaxona.
Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	1.1. Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. (1-ilova) 1.1. Rangshunoslik. Spektr ranglar va ranglar doirasi haqida ma'lumot beradi (2-ilova).	1.1. Eshitadilar, kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-Asosiy bosqich (60 min.)	2.1 Ekranga spektr ranglar va ranglar doirasini namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (3-ilova).	2.1. Eshitadilar, kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
	2.2. Mavzu bo'yicha «Qanday» usulidan foydalangan holda talabalarga savollar bilan murojaat qiladi: Rangshunoslikga oid «Qanday» terminlarni bilasiz?, yoki «Klaster» dan foydalanish mumkin (4-5-ilovalar)	2.2. Yozadi, savolga javob beradi.
	2.3. Akvarel texnikasida bajarilgan metodik bosqichli natyurmort qo'yilmalarni (O'qituvchi qog'ozga akvarel ranglarini xususiyatlarini qisqa muddatli etuyd tasvirlash orqali namoyish etsa ham bo'ladi).	2.3. Ko'radilar va akvarel texnikasida ishlashni o'rganadilar
3-Yakuniy bosqich (10 min.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarining amaliy ish natijalarini tahlil qiladi. 3.2. Mavzuni mustahkamlash uchun «BBB» jadvalini talabalar bilan birgalikda to'ldiradi. (6-ilova).	3.1. Tahlil natijalari bilan tanishadilar. 3.2. Mavzuni mustahkamllovchi «BBB» jadvalidagi savollarga javob beradilar.

Mavzu: RANGSHUNOSLIK. SPEKTR RANGLAR VA RANGLAR DOIRASI

Reja:

1. Rangshunoslik. Spekt r anglar va ranglar doirasi.
2. Akvarel texnikasida ranglar bilan ishlash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarga suvbo'yoq ranglari va ularning hususiyati haqida to'liq ma'lumot berish.

O'quv faoliyatining natijasi:

1. Rangshunoslik. Spekt r anglar va ranglar doirasi haqida tushunchaga ega bo'ladi.
2. Akvarel texnikasida ranglar xususiyatini va ranglar bilan ishlashni o'rganadi.

RANGSHUNOSLIK. SPEKTR RANGLAR VA RANGLAR DOIRASI


Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o'zaro aralashtirilganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarqaldoq, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarqaldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.


Ikkita spekt r ang ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi, qizil rang, havo rang bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi binafsha, pushti, sapsar ranglarni hosil qiladi. Uchta asosiy rang: qizil, sariq va havo ranglarni bir-biriga qoshib ajoyib hosila ranglarni chiqarish mumkin.



Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi



«K L A S T E R» texnologiyasi



B B B JADVALI

Rangshunoslik haqida nimalarni bilasiz?
 Rangshunoslik haqida nimalarni bilishni xohlaysiz?
 Rangshunoslik haqida nimalarni bildingiz?

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILDIM
Rangshunoslikdan ayrim ma'lumotlarni	Spektr ranglarini, axromatik va xromatik ranglarni, ranglar xususiyati haqida barcha malumotlarni	Rangshunoslikdan ko'pgina ma'lumotlarni

Mavzu	GIPSLI MASKA ISHTIROKIDA NATYURMORT (VENERA YOKI APPOLON)
--------------	--

AMALIY MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 12 soat	Talabalar soni 20-25 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejası:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida natyurmortni ishlash. Kompanovka, nisbatlarni aniqlash. Qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash. Fazoviy joylashu-viga e'tibor berish 2. Ishni rangda boshlash. Metodik ketma-ketlikka e'tibor berish. Soya-yorug' munosabatlarini aniqlash. 3. Hajmdorligiga erishish. Ishni umumlash va yakunlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni gips bosh bilan natyurmort ishlashga o'rgatish orqali rang va tus munosabatlarini tushunishga yordam berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida tuzilgan natyurmortni birinchi bosqichi, komponovka yani qog'ozga to'g'ri joylashtirishni, qurishni va nisbatlarni aniqlashni o'rgatadi. Ishni rangda boshlash. Ishni ranglash orqali metodik ketma-ketlikni to'g'ri bajarish hamda rangda predmetlarni soya va yorug' joylarini to'g'ri belgilash va buyum hajmini haqqoniy tasvirlash. Hajmdorligiga erishish. Ishni umumlash va to'g'ri yakunlashga o'rgatish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida tuzilgan natyurmortni ishlashni, komponovka, nisbatlarni aniqlashni o'rganadi. Qog'oz yuzasida natyurmortni to'g'ri tasvirlashga, fazoviy joylashuviga e'tibor berishni, Ishni rangda boshlashni, ishni ranglash orqali metodik ketma-ketlikni to'g'ri bajarishga hamda rangda predmetlarni soya va yorug' joylarini to'g'ri belgilash va buyum hajmini haqqoniy tasvirlashga o'rganadi. Hajmdorligiga erishish. Ishni umumlash va to'g'ri yakunlashga o'rganadi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Akvarel texnikasida amaliy ish bajarish, mavzuga oid mahorat maktabi film namoyishi yoki o'qituvchi tomonidan natyurmortni auditoriya doskasida bosqichli ishlab ko'rsatish.

O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, ko'rgazmali plakatlar, slaydlar.
O'qitish shakli	Guruh bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter, asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (5 min.)	1.1. Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. (1-ilova) Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida tuzilgan natyurmort qo'yilmasi haqida ma'lumot beradi. (2-ilova)	1.1. Eshitadilar, kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-Asosiy bosqich (65 min.)	2.1. (3-ilova) Akvarel texnikasida bajarilgan mavzuga oid metodik bosqichli qo'yilmani namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi	2.1. Namoyishni tamosha qiladilar.
	2.2. Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida tuzilgan natyurmortni talabalar qog'ozga metodik ketma-ketlikda tasvirlashni boshlaydilar.	2.3. Natyurmortni qog'ozga metodik ketma-ketlikda tasvirlashni boshlaydilar.
3-Yakuniy bosqich. (10 min.)	3. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarining amaliy ish natijalarini tahlil qiladi va baholaydi. (4-ilova)	3. Tahlil natijalari bilan tanishadilar.

**Mavzu: GIPSLI MASKA ISHTIROKIDA NATYURMORT
(VENERA YOKI APPOLON)**

Reja:

1. Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida natyurmortni ishlash. Kompanovka, nisbatlarni aniqlash. Qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash. Fazoviy joylashuviga e'tibor berish.
2. Ishni rangda boshlash. Metodik ketma-ketlikka e'tibor berish. Soya-yorug' munosabatlarini aniqlash.
3. Hajmdorligiga erishish. Ishni umumlash va yakunlash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni gips bosh bilan natyurmort ishlashga o'rgatish orqali rang va tus munosabatlarini tushunishga yordam berish.

O'quv faoliyatining natijasi:

1. Venera yoki Appolon gipsli maska ishtirokida tuzilgan natyurmortni ishlashni, komponovka, nisbatlarni aniqlashni o'rganadi. Qog'oz yuzasida natyurmortni to'g'ri tasvirlashga, fazoviy joylashuviga e'tibor berishni o'rganadi.
2. Ishni rangda boshlashni, ishni ranglash orqali metodik ketma-ketlikni to'g'ri bajarishga hamda rangda predmetlarni soya va yorug' joylarini to'g'ri belgilash va buyum hajmini haqqoniy tasvirlashga o'rganadi.
3. Hajmdorligiga erishish. Ishni umumlash va to'g'ri yakunlashga o'rganadi.

GIPSLI MASKA ISHTIROKIDA TUZILGAN NATYURMORT

Natyurmort qo'yilmasini ufq chiziqiga nisbatan pastda joylashgani ma'qul... chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizontaal tekisligi ko'rinmay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy echimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natyurmort tuzish vaqtida narsalarni balandligi, ularning surat tekisligiga joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruqi bir tomonga yiqilib qolishi noto'qri. Yirik buyumlar qisman bo'lsada boshqa buyum bilan biroz to'silgan bo'lishi mumkin. Qo'yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har-birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin. Natura qo'yilmasidagi narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinib turadi. Qoramtir fonda narsalar o'zining yoruqlik sifatlarini ko'proq namoyish eta oladi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Hoji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontaal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'mida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

O'quv natyurmortining kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik sa'nat tabiat bilan bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoqda: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjudligi. Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

3-ilova



4-ilova

BAHOLASH: max.-10 ball
- Joylashtirish - 2 ball
- Qurish – 2 ball
- Soya-yorug' munosabatlari to'g'ri
topilganligi-2 ball
- Xajmdorlikka erishish -2 ball
Umumlashtirish va yakunlash – 2 ball

Mavzu	SAMOVARLI NATYURMORTNI ISHLASH
--------------	---------------------------------------

MA'RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqt – 12 soat	Talabalar soni 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy
Ma'ruza mashg'ulotining rejas	<ol style="list-style-type: none"> 1. Samovarli natyurmortni joylashtirish va qurish. 2. Qo'yilmani rangda ishlash. Rang va tus munosabatlarini aniqlash. 3. Buyumlarning hajmini aniqlash. Umumlashtirish, yakunlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni natyurmort qo'yilmasini to'g'ri joylashtirish, rangda ishlash orqali rang va tus munosabatlarini to'g'ri topishga o'rgatish.	
Pedagogik vazifalar: Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlashga o'rgatish. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlashga o'rgatish. Buyumlarning hajmiga ishlov berish, ularni aniqlashni, umumlashtirishni va to'g'ri yakunlashni o'rgatadi	O'quv faoliyatining natijalari: Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlashni o'rganadi. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlashni o'rganadi. Buyumlarning hajmiga ishlov berishni, ularni aniqlashni, umumlashtirishni va to'g'ri yakunlashni o'rganadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Akvarel texnikasida amaliy ish bajarish, mavzuga oid mahorat maktabi film namoyishi yoki o'qituvchi tomonidan natyurmortni auditoriya doskasida bosqichli ishlab ko'rsatish.
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, ko'rgazmali plakatlar.
O'qitish shakli	Talabalarga individual yondashuv
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	1.1. Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. (1-ilova) Samovarli natyurmortni qo'yib beradi va rang munosabatlari haqida ma'lumot beradi. (2-ilova)	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar.
2- asosiy bosqich. (60 min.)	2.1. Akvarel texnikasida bajarilgan rassomlarning mavzuga oid ijod namunalari mahorat maktabi namoyishini qo'yib beradi, (3-ilova) va ularga qisqacha ta'rif beradi.	2.1. Namoyishni tamosha qiladi va tahlil qiladi.
	2.2. Samovarli natyurmort qo'yilmasini qog'ozga metodik ketma-ketlikda tasvirlashni o'rgatadi.	2.2. Samovarli natyurmort qo'yilmasini qog'ozga metodik ketma-ketlikda tasvirlashni boshlaydilar.
3- Yakuniy bosqich (10 min.)	3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun «BBB» jadvalini talabalar bilan birgalikda to'ldiradi. (4-ilova) 3.2. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarining amaliy ish natijalarini tahlil qiladi va baholaydi. (5-ilova)	3.2. Mavzuni mustahkamlash uchun «BBB» jadvalidagi savollarga javob beradilar. 3.1. Tahlil natijalari bilan tanishadilar.

1-ilova

Mavzu: SAMOVARLI NATYURMORTNI ISHLASH

Reja: 1. Samovarli natyurmortni joylashtirish va qurish.

2. Qo'yilmani rangda ishlash. Rang va tus munosabatlarini aniqlash.

3. Buyumlarning hajmini aniqlash. Umumlashtirish, yakunlash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni natyurmort qo'yilmasini to'g'ri joylashtirish, rangda ishlash orqali rang va tus munosabatlarini to'g'ri topishga o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi:

1. Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarni aniqlashni o'rganadi.
2. Qo'yilmani rangda ishlash. Katta rang munosabatlarini aniqlashni o'rganadi.
3. Buyumlarning hajmiga ishlov berishni, ularni aniqlashni, umumlashtirishni va to'g'ri yakunlashni o'rganadi.

2-ilova

NATYURMORT VA RANG MUNOSABATLARI

Agar talaba qo'yilmadagi jismlarning ranglarini va yoruq-soyalarini aniq ko'ra bilsa, demak u ranglavhani to'g'ri va mohirlik bilan bajara oladi deb bo'lmaydi. U bema'lol alohida jismlarning yorug'-soyalarini, xajmlarini ham yuzaki ko'r-ko'rona ko'chirib tasvirlashi mumkin, ammo aks ettirishda eng muhim sifatlarni, ya'ni materiallikni, fazo va yoritilish holati kabilarni mukammal ko'rsata olmaydi.

Xaqqoniy rangtasvirning sir-asrorlarini chuqur egallash uchun badiiy ta'limning boshidanoq uning asosiy ikkita xususiyatidagi maqsad va ma'nosini tushunib yetish zarurdir. Faqat shundagina yosh rassom ta'lim yo'liga to'g'ri tusha oladi, uning har-bir yaratgan yangi mashq ishi rangtasvir sifatleri bo'yicha mukammallikka erishadi.

Birinchi xususiyat shundan iboratki, naturadan rangtasvirni savodli tasvirlash, uning xajmdorlik, fazoviy va materiallik sifatlarini ko'rsatish, tabiatdagi rang munosabatlarini ko'rib idrok qilish orqali palitradagi chegaralangan bo'yoqlarga mutanosiblikda o'tkazish metodiga asoslanadi. Ranglavhadagi rang munosabatlari mazmuni rassom nigoxi bilan qabul qilingan munosabatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Biroq, ranglavhadagi rang munosabatlari qurilishi yoritilishning umumiy tusi va rangli holatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (kuchga va yoritilishning spektr tarkibiga bog'liq holda-yoritilish rangiga bo'ysunadi). Munosabatlar bilan ishlash metodi - rangtasvir savodxonligining asosiy qonunidir. Rassom - shunday insonki, u nafaqat nisbatlarni kuchli his etish qobiliyatiga, balki rang munosabatlarini ham sezishga qodir.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, natura qo'yilmasidagi narsalarning rang munosabatlarini idrok etish yaxlit taqqoslash bilan aniqlanadi.



B B B JADVALI

Natyurmortchi rassomlardan kimlarni bilasiz?
Natyurmortchi rassomlar haqida nimalarni bilishni xohlaysiz?
Natyurmort va natyurmortchi rassomlar haqida nimalarni bildingiz?

BILAMAN

**BILISHNI
XOHLAYMAN**

BILDIM

Natyurmortchi rassomlar haqida ayrim ma'lumotlarni

Natyurmortchi rassomlar haqida barcha ma'lumotlarni

Natyurmort haqida ko'pgina ma'lumotlarni

BAHOLASH: max.-10 ball
 - Joylashtirish - 2 ball
 - Qurish – 2 ball
 - Soya- yorug' munosabatlari to'g'ri topilganligi-2 ball
 - Xajmdorlikka erishish -2 ball
 Umumlashtirish va yakunlash – 2 ball

Mavzu	YORQIN FONDA 2 BUYUMDAN IBORAT NATYURMORT ISHLASH (ETYUD)
--------------	--

AMALIY MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqti – 12 soat	Talabalar soni 20-25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Natyurmortni joylashtirish, rangda boshlash. 2. Ishni metodik ketma-ketlikda davom ettirish. 3. Buyumlar hajmiga ishlov berish, ishni umumlash va yakunlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi. Talabalarga qisqa muddatli etyudlar ishlashni, rang tus munosabatlarini aniqlashni va yahlitlikka bo'ysundirishni o'rgatish.	
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <p>Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirishni, rangda boshlashni o'rgatadi.</p> <p>Ishni metodik ketma-ketlikda davom ettirishni o'rgatadi.</p> <p>Buyumlarning hajmiga ishlov berish, umumlashtirish va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rgatadi.</p>	<p style="text-align: center;">O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirishni, rangda boshlashni o'rganadi.</p> <p>Ishni metodik ketma-ketlikda davom ettirishni o'rganadi.</p> <p>Buyumlarning hajmiga ishlov berishni, umumlashtirish va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rganadi.</p>
O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual materialni og'zaki bayon qilish, «Mahorat maktabi» namoyishi, «BBB» jadvali
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, ko'rgazmali plakatlari, slaydlar.

O'qitish shakli	Talabalarga individual yondashuv
O'qitish shart-sharoitlari	Asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, tahlil natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	1.1.Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. <i>(1-ilova)</i> Natyurmort qo'yilmasi haqida ma'lumot beradi. <i>(2-ilova)</i>	1.1. Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2- asosiy bosqich (60 min.)	2.1. Akvarel texnikasida bajarilgan rassomlarning mavzuga oid ijod namunalaridan (etyudlaridan) mahorat maktabi namoyishini qo'yib beradi, yoki o'qituvchining o'zi qog'ozda etyud ishlash mahoratini ko'rsatib, tasvirlab beradi <i>(3-ilova)</i> .	2.1. Namoyishni tamosha qiladi va tahlil qiladi.
3- yakuniy bosqich (10 min.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarining amaliy ish natijalarini tahlil qiladi va baholaydi. <i>(4-ilova)</i>	3.1.Tahlil natijalari bilan tanishadilar.

1-ilova

Mavzu: YORQIN FONDA 2 BUYUMDAN IBORAT NATYURMORT ISHLASH (ETYUD)

Reja: 1. Natyurmortni joylashtirish, rangda boshlash.

2. Ishni metodik ketma-ketlikda davom ettirish.

3. Buyumlar hajmiga ishlov berish, ishni umumlash va yakunlash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga qisqa muddatli etyudlar ishlashni, rang tus munosabatlarini aniqlashni va yahlitlikka bo'ysundirishni o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi:

1. Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirishni, rangda boshlashni o'rganadi.

2. Ishni metodik ketma-ketlikda davom ettirishni o'rganadi.

3. Buyumlarning hajmiga ishlov berishni,umumlashtirish va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rganadi.

Qisqa muddatli etyudlar ishlash

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi turlicha bo'lishi mumkin, bir holatda etyud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi rang munosabatlari tahlil qilib o'rganiladi hamda uning koloritiga hos birinchi taasurotlar belgilanadi. Boshqa hollarda esa shakllarni qo'shimcha va puhtar o'rganish maqsadida uning bo'laklari (masalan inson qo'li etyudi, manzara ko'rinishining ayrim holatlari) aniqlanadi. Natyurmortning umumiy tus va rang holatini xonaning ichki sharoitida aniq kuzatish uchun tuzilgan sodda natura qo'yilmalari bilan bir nechta qisqa muddatli etyudlar bajarilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Dastlabki natyurmort qo'yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi, natijada u boshqalarga nisbatan kuchliroq yoritilgan bo'ladi. Bu o'quv qo'yilmalari orqali soya-yorug', rang hamda yoritilishni pasaytirilishi yoki kuchaytirilishi orqali naturani umumiy tus va rang holatini o'zgarishini namoyon etadi. Koloritlarni o'rganishga qaratilgan etyudlar bilan bir qatorda o'quv jarayonida "Siluyetli dog' bilan» homaki etyudlar ishlash ham kerak. Ularning maqsadi tezda va ixcham shaklda narsalarning asosiy tus va rang munosabatlari, xarakterli nisbatlari, harakatlarini qayd etishdir. Meva va sabzavotlar, qush va hayvonlarning rangli homaki tasvirlarida eng avvalo koloritga hos vazifalarni yechish kerak.

3-ilova



BAHOLASH: max.-10 ball
 - Joylashtirish - 2 ball
 - Qurish – 2 ball
 - Soya- yorug' munosabatlari to'g'ri topilganligi-2 ball
 - Xajmdorlikka erishish -2 ball
 Umumlashtirish va yakunlash – 2 ball

Mavzu	MURAKKAB BO'LMAGAN NATYURMORTNI MOYBO'YOQDA ISHLASH (GRIZAYL)
--------------	--

AMALIY MASHG'ULOTNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vaqt-12 soat	Talabalar soni 20-25 gacha
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy ish
Mashg'ulot rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish va o'lchamlarini aniqlash. 2. Moybo'yoq materiallari bilan ishlash. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash. 3. Umumiyashtirish va yakunlash.
Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga moybo'yoq materiallari haqida ma'lumot berish va moybo'yoqda ishlashni o'rgatish.	
Pedagogik vazifa	O'quv faoliyatining natijasi
<ol style="list-style-type: none"> 1. Murakkab bo'lmagan natyurmort qo'yilmasini mato yuzasida to'g'ri joylashtirishni (kompanovka) o'rgatish. 2. Murakkab bo'lmagan natyurmortni, moybo'yoq materiallari bilan ishlash. 3. Umumiyashtirish va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rgatadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv qo'yilmani mato yuzasida to'g'ri joylashtirish va o'lchamlar nisbatlarini to'g'ri qurish hamda aniqlashga o'rganadi. 2. Murakkab bo'lmagan natyurmortni, moybo'yoq materiallari bilan ishlashni o'rganadi. 3. Umumiyashtirish va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rganadi.
O'quv uslubi va texnikasi	Vizual materialni og'zaki bayon qilish,

	«Mahorat maktabi» namoyishi, jonlantiruvchi savollar.
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, ko'rgazmali plakatlarni, slaydlar.
O'qitish shakli	Talabalarga individual yondashuv
O'qitish shart sharoitlari	Asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baxolash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, taxlili natijalari.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat Bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. (1-ilova) . Moybo'yoq materiallari haqida ma'lumot beradi va moybo'yoqda ishlash texnologiyalari to'g'risida ma'lumot beradi. (2-ilova)	Eshitadilar
2-bosqich Asosiy (60 min)	Moybo'yoqda ishlangan asarlarni ekranda namoyish etadi va qisqa ta'riflar beradi. (3-ilova)	Tomosha qiladilar va tahlil etadilar.
	Mavzuni mustahkamlash maqsadida, talabalarga savollar bilan murojat qiladi. (4-ilova)	Savolga javob beradilar
	Murakkab bo'lmagan natyurmort qo'yilmasini qo'yib uni Grizaylda ishlash vazifasini topshiradi.	Natyurmortni bosqichma-bosqich tasvirlashni boshlaydilar.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	Mavzu buyicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarning amaliy ish natijalarini taxlil qiladi va baholaydi. (5-ilova)	Bajarilgan ishlarini ko'rikka qo'yadilar va natijalarini yozib oladilar

Mavzu: Murakkab bo'lmagan natyurmort. Grizaylda ishlash

Reja

1. Qo'yilmani qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish va o'lchamlarini aniqlash.
2. Qo'yilmani konstruktiv qurish.
3. Moybo'yoq materiallari bilan ishlash.
4. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash.
5. Umumiyashtirish va yakunlash

O'quv mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarga moybo'yoq materiallari haqida ma'lumot berish va moybo'yoqda ishlashni o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi:

-O'quv qo'yilmani mato yuzasida to'g'ri joylashtirish va o'lchamlar nisbatlarini to'g'ri qurish hamda aniqlashga o'rganadi.

- Qo'yilmani to'g'ri konstruktiv qurilishi, ulcham munosabatlarini aniqlashga o'rganadi.

- Murakkab bo'lmagan natyurmortni ishlashda moybo'yoq materiallari bilan ishlaydi.

- Moybo'yoqda ishlashga, yorug'-soya munosabati va qonun-qoidalarini o'rganadi.

- Umumiyashtiradi va yakunlaydi.

Moybo'yoq rangtasviri o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Moybo'yoq bilan ishlashdan oldin uning xususiyatlarini bilish zarur. Qo'llashni esa Niderlandiyalik aka-uka rassom Van Deyklar boshlab berganlar. Uning asta -sekin qurish xususiyati esa matoga qo'yilgan bo'yoq qo'shganlar.

XVI asr rangtasvirida asosiy o'rinni Moybo'yoq egallagan. Hozirgi zamon rangtasvirida bo'yoqlar bilan ishlash keng miqyosda tarqalgan. Chunki ularni ishlatish qulay. Moybo'yoq uncha suyuq bo'lmagani uchun, akvarel kabi mo'yqalamdan va tasvir yuzasidan oqib ketmaydi. Uning asta -sekin qurish xususiyati esa matoga qo'yilgan bo'yoq birikmasiga ancha uzoq vaqt mobaynida ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun Moybo'yoqlarni ishlatish akvarel bo'yoqlarga nisbatan qulay hisoblanadi. Ularning qulayligi yana shundan iboratki, mabodo rang tusi noto'g'ri topolmagan bo'lsa, uni qaytadan ishlash imkoniyatlari bor. Moybo'yoq bo'yog'i qurigach dastlabki rangi o'zgaraydi, akvarel va guash kabi oqarmaydi.

Moybo'yoq suyuq va quyuroq holda, yupqa, tiniq qatlam tarzida yoki quyuc (xamirsimon) xolda ishlatilishi mumkin. Biroq moybo'yoq rangtasviri uchun bo'yoqlar va mo'yqalamlar to'plamidan tashqari, bo'yoqni eritadigan moddalar, tagromalar va boshqa moslamalar kerak bo'ladi.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, refleklarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoq bilan qoplash, bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha berilishi kerak. Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug' bilan ham puhta ishlash kerak. Umumiy tusdagi qisqa muddatli etudlarni dastlab grizaylda bajarish maqsadga muvofiq. Bu esa diqqat e'tiborni faqat tus jihatdan ko'rsatishga yo'naltiriladi, tasvirlovchini tus shkalasini sezishga, naturadagi eng och-to'q va to'qroqlikni aniqlashga, tus gradatsiyasini bu ikki qutblarga bo'ysundirishga o'rgatadi.

Moybo'yoqlarning turlari juda ko'p bo'lib, dastlabki o'rganish davrida ishlash uchun zarur bo'lgan bo'yoqlar quyidagilardan iborat:

1. Belila sinkovaya – mustahkam oq bo'yoq, sekin qotadi, kerakli rang tusini topishda turli bo'yoqlarga har xil miqdorda qo'shiladi.
2. Kinovar – och qizil.
3. Krapplak – to'q qirmizi qizil rang (yashilga qo'shib bo'lmaydi).
4. Karmin – tiniq qizil (ko'k rang bilan birgalikda binafsha rang xosil qiladi).
5. Krasnaya oxra – uncha yorqin bo'lmasada mustahkam qizil. (Angliskaya krasnaya yoki venetsianskaya krasnaya turlari bor).
6. Kadmiy krasniy – yorqin va mustahkam qizil.
7. Oxra jeltaya (svetlaya) – mustahkam och sariq.
8. Kadmiy jeltiy – yorqin sariq.
9. Kadmiy oranjeviy – yorqin zarg'aldoq.
10. Jeltiy xrom (kron) – ochiq sariq.
11. Strontsanovaya jeltaya- och limon sariq.
12. Izumrudnaya zelen- yorqin va mustahkam yashil.
13. Okis xroma, zelennaya zemlya – to'q yashil.
14. Ultromarin – to'q ko'k.
15. Kobalt siniy - och ko'k.
16. Berlinskaya lazur - juda sho'xchan zangori, lekin mustahkam emas.
17. Umbra naturalnava - tiniq va och iigaz rang. mustahkam (vashil tusli).



Jonlantirish uchun savollar:

- Moybo'yoqning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering?
- Moybo'yoq turlari haqida ma'lumot bering?
- O'quv qo'yilmasining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?

BAHOLASH: max.-10 ball
- Joylashtirish - 2 ball
- Qurish – 2 ball
- Soya-yorug' munosabatlari
to'g'ri topilganligi-2 ball
- Xajmdorlikka erishish -2 ball
Umumlashtirish va yakunlash –
2 ball

Mavzu	APOLLON GIPS BOSHI BILAN QO'YILGAN NATYURMORT
--------------	--

AMALIY MASHG'ULOTNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Vahti 12 soat	Talabalar soni 20-25 gacha
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy ish
Mashg'ulot rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini mato yuzasida to'g'ri joylashtirish va o'lchamlarini aniqlash. 2. Moybo'yoq materiallari bilan ranglash bosqichiga o'tish. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash. Rang-tus munosabatlari. 3. Umumiy lashtirish va yakunlash.
Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarni moybo'yoq materiallari bilan ishlashga o'rgatish.	
Pedagogik vazifa	O'quv faoliyatining natijasi
<ol style="list-style-type: none"> 1. Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini mato yuzasiga to'g'ri joylashtirish va qurishga o'rgatish. 2. Natyurmortni moybo'yoq materiallari bilan ishlash, ranglash bosqichi. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash. Rang-tus munosabatlarini aniqlashga o'rgatadi 3. Ishni umumiy lashtirishni va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rganadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini mato yuzasiga to'g'ri joylashtirish va qurishni o'rganadilar. 2. Natyurmortni moybo'yoq materiallari bilan ishlash, ranglash bosqichi. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash. Rang-tus munosabatlarini aniqlashni o'rganadi. 3. Ishni umumiy lashtirishni va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rganadi.
O'quv uslubi va texnikasi	Vizual materialni og'zaki bayon qilish, «Mahorat maktabi» namoyishi, jonlantiruvchi savollar.
O'qitish vositalari	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, amaliy ish namunalari, slaydlar.

O'qitish shakli	Talabalarga individual yondashuv
O'qitish shart sharoitlari	Asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona
Monitoring va baholash	Amaliy ishlar ko'rigi, savol-javob, taxlil natijasi

2 Mavzu	APOLLON GIPS BOSHI BILAN QO'YILGAN NATYURMORT
----------------	--

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat Bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	Yangi mavzu va rejani e'lon qiladi. (1-ilova). Appalon gips boshi ishtirokida qo'yilgan natyurmort haqida ma'lumot beradi va moybo'yoqda ranglar bilan ishlash texnologiyalari to'g'risida ma'lumot beradi. (2-ilova)	Eshitadilar
2-Asosiy bosqich (60 min)	Metodik ishlangan va ko'rgazmali qurol sifatida «Apollon gips boshi ishtirokida qo'yilgan natyurmortni» namoyish qiladi. (3-ilova) Talabalarga savol bilan murojaat qiladi (4-ilova).	Namoyishni tamosha qiladilar va tahlil etadilar
	Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini xolstga bosqichma-bosqich tasvirlashni boshlaydilar.	Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini xolstga bosqichma-bosqich tasvirlashni boshlaydilar.
3-Yakuniy bosqich (10 min)	Mavzu buyicha yakuniy xulosalarni aytadi, talabalarning amaliy ish natijalarini taxlil qiladi va baholaydi. (5-ilova)	Bajarilgan ishlarini ko'rikka qo'yadilar va natijalari bilan tanishadilar.

Mavzu: Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort

Reja:

1. Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini mato yuzasida to'g'ri joylashtirish va o'lchamlarini aniqlash.
2. Moybo'yoq materiallari bilan ranglash bosqichiga o'tish. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash. Rang-tus munosabatlari.
3. Umumiyashtirish va yakunlash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarni moybo'yoq materiallari bilan ishlashga o'rgatish.

O'quv faoliyatining natijasi:

1. Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort qo'yilmasini mato yuzasiga to'g'ri joylashtirish va qurishni o'rganadilar.
2. Natyurmortni moybo'yoq materiallari bilan ishlash, ranglash bosqichi. Qo'yilmadagi yorug'-soya munosabatlarini aniqlash. Rang-tus munosabatlarini aniqlashni o'rganadi.
3. Ishni umumiyashtirishni va yahlit bir butunlikda yakunlashni o'rganadi.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinib turadi. Qoramtir fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etaladi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jiqatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontallik tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yoqoch uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'rnida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

O'quv natyurmortning kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik san'at tabiat bilan bayon etilgan asosiy talablar o'zgarimay qolmoqda: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjudligi. Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.



4-ilova

Jonlantirish uchun savollar:

- Qanday gips bosh nomlarini bilasiz?
- Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmortning o'ziga xos xususiyatlari?
- Apollon gips boshi bilan qo'yilgan natyurmort o'quv qo'yilmasining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?

5-ilova

BAHOLASH: max.-15 ball
- Joylashtirish - 2 ball
- Qurish – 2 ball
- Soya- yorug' munosabatlari to'g'ri topilganligi-3 ball
- Xajmdorlikka erishish -4 ball
Umumlashtirish va yakunlash – 4 ball

Adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
1. Abdullayev N. San'at tarixi. 1-tom, «O'qituvchi» T., 1986
2. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash. «O'qituvchi», T., 1984
3. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. Nizomiy nomli TDPU, T., 1996.
4. Abdirasilov S. Tasviriy san'at atamaları. Nizomiy nomli TDPU, T., 2003.
5. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. «Bilim» nashriyoti. T., 2005.
6. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. «Cho'lpon» nashriyoti. T., 2006.
7. Abdirasilov S. Tasviriy san'at metodikasi. «Ilm-Ziyo» nashriyoti. T., 2006.
8. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. «O'zbekiston» nashriyoti. T., 2006.
9. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. G'.G'ulom nashriyoti. T., 2004.
10. Boymetov B. Qalamtasvir. Musiqa nashriyoti. T., 2006.
11. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. «Mehnat», T., 1991.
12. Bulatov S.S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. «Mehnat», T., 1992.
13. Ziyomhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001.
14. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Nizomiy nomidagi TDPU, T., 2004.
15. Majidov J. Tasviriy san'atdan maktabdan tashqari ishlar. «O'qituvchi», T., 1983.
16. Nabiyev M.N. Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi. «O'qituvchi», T., 1995.
17. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., «Ilm-ziyo» nashriyoti, 2005.
18. Ten N.D. Gips modellarning rasmi. T., "O'qituvchi", 1994.
19. Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. T., 1995.
20. Xasanov R. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. «Fan», T., 2004.
21. Xudoyorova O. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan. Tasviriy san'at muallimlari uyushmasi. T., 1993.

22. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. «Sanʼat» jurnali nashriyoti, T., 2005.
23. Umarov E., Karimov R. va b. Estetika asoslari. T.: Oʻzinkomsentr, 2002.
24. Barsh L.O. Risunok v sredney xudojestvennoy shkole. Izd.- vo Akademiya xudojestv. M., 1967.
25. Beda G.V. Osnovi izobrazitelnoy gramoti. «Prosveshenie», M., 1989.
26. Kalning S.G. Akvarelnaya jivopis. «Iskusstvo», M., 1968.
27. Kuzin V.S. Psixologiya. M., Visshaya shkola, 1982.
28. Rostovsev N.N. Metodika prepodavaniya izobrazitelnogo iskusstva v shkole. M., 2000.
29. Rostovsev N.N. Uchebniy risunok. «Prosveshenie», M., 1984.
30. Eralin K., Abdirasilov S. Modelirovanie pedagogicheskoy deyatelnosti uchitelya izobrazitelnogo iskusstva. NII shkol. M., 1991.
31. Terentev A.E. Risunok v pedagogicheskoy praktike uchitelya izobrazitelnogo iskusstva. «Prosveshenie», M., 1981.
32. Xaritonov M.F. Risovanie melom na klassnoy doske. M., 1982.
32. Yashuxin A.P. Jivopis. «Prosveshenie», M. 1985.
33. www.nbgf.intal.uz
34. www.Ziyo-Net.Uz

GLOSSARIY

Tasviriy san'at terminlarini qisqacha izohli lug'ati

«A»

ABRIS (nemischa – abriß – chiziq, xomaki rasm) – kalka, o'ta yupqa materiallarga tushiriladigan kontur tasvir. Abris ko'p rangli asar originalining tus va ranglari chegarasini aniqlaydi.

AVTOGRAVYURA (yunon. autos - o'zim va frans. gravure) - o'ymakorlik. Naqsh chizishda muallifning o'z qo'li bilan yog'och, linoleum yoki metallga o'yib ishlangan va undan qolip sifatida foydalanib chop qilingan nusxasi. Yog'och avtogravyuralaridan kitoblarga rasmlar tayyorlashda, linoleum va metall avtogravyuralaridan esa alohida nusxalar chop etishda foydalaniladi.

AVTOLITOGRAFIYA (yunon. autos - o'zim. litos – tosh, grapho – yozaman, chizaman). Litografiyaning ishlash usullaridan biri. Bunda rassom o'z g'oyasini dastlab toshga o'yib, so'ng undan qog'oz sathiga tushiradi. Rassomning o'zi tomonidan qog'ozga tushirilgan surat ham avtolitografiya deb yuritiladi.

AKADEMIYA – (yunon. Akademia – Afina yaqinida joylashgan, yunonlarning afsonaviy qahramoni Akadem ismli bilan atalgan joy nomi) – san'atni rivojlantirishga qaratilgan oliy ilmiy muassasa. Bu nom tarixi miloddan, avval, IV asrda Qadimgi Yunoniston va Platon (Aflotun)ning idealistik falsafiy maktabiga asos solinishidan boshlanadi. Xirof miniatyura rasmlar maktabini O'rta asr Sharqida davlat tomonidan ta'sis etilgan birinchi badiiy akademiya deb hisoblash mumkin. (Behzod shu akademiyaning eng yirik vakilidir).

AKVAREL – (ital. acquerello) – suvda eruvchi bo'yoqlar. Bu bo'yoqlarning ajoyib xususiyati bo'yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir. Akvarelda oq rang bo'lmaydi, uning o'rnida bo'yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko'rinadigan yoki bo'yalmay qolgan qog'ozning rangi xizmat qiladi. O'zbekistonda akvarel san'ati rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G. Shevyakov, G.Chiganov, K.Chiprakov, K.Kaydalovlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlarda ko'rish mumkin.

AKSESSUAR – buyum, narsa.

ALFRESCO – devoriy rasm ishlash usullaridan bir turi bo‘lib, namsuvoq ustiga suvda qorilgan bo‘yoqlar bilan ishlanadigan devoriy tasvir. Bu qadimgi rus san‘atida keng qo‘llanilgan.

ALLA-PRIMA ital. («a-lya prima»). Tasviriy san‘atda, xususan, rangtasvirda «namligicha yozish» - (jivopis po-siromu) usulini anglatadi.

ANIMALIST (lot. animal-hayvon) – hayvon va jonivorlar aks ettirilgan rasm, surat, haykallar bo‘yicha mutaxassis rassom, haykaltarosh. O‘zbekistonda rassom B.Jukov; haykaltarosh D.Mileyev, P.Ivanov va M.Ivanovlar ijodiy ishlari, Samarqandlik U.Jo‘raqulov, G‘ijduvon tumanining O‘ba qishlog‘ida yashovchi X.Rahimovalarning o‘zbek milliy an‘analari zaminida yaratgan sopol haykalchalari ham animalistika janriga mansub.

APOLLON – yunon afsonasiga ko‘ra Zevs xudosining o‘g‘li. Apollon Belvederskiy eramizdan oldin IV-asrda mashhur haykaltarosh Leoxar tomonidan ishlangan.

ARXITEKTONIKA – mutanosiblik.

ARXITEKTURA - qurilish san‘ati, me‘morchilik, inshootlarni loyihalash ilmi. Masalan, Samarqand arxitekturasi.

ASOSIY RANGLAR – rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va ko‘k.

AFISHA – (frans. affiche - e‘lon) Spektakl, konsert va boshqa madaniy tadbirlar, tomoshalar, to‘g‘risida xabar beruvchi maxsus e‘lon.

AXROMATIK RANG– (yunon. achrimatos - rangsiz) bu ranglar bir-biridan yorug‘lik kuch bilan farq qiladilar. Axromatik ranglarga oq, qora va kulrangning barcha tuslari kiradi.

AXTA– xitoy g‘og‘ozi.

«B»

BADIIY AKADEMIYA – tasviriy san‘atning eng yirik namoyandalari uyushmasi, san‘at masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy nazorat markazi – muassasa, oliy badiiy o‘quv yurti. Birinchi «akademiya» XVI asrda Italiyada vujudga kelgan. 1997 yilda O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining akademiklari.

BADIIY QURISH - YASASH (lot. konstruktio - qurilish). Turli materiallardan (rangli karton qog‘ozlar, yog‘och, tashlandiq materiallar, tabiiy materiallar, maxsus qurish - yasash to‘plamlari va shu kabilar) har xil o‘yinchoqlar yasash faoliyatlari tushuniladi.

BADIIY UMUMIYLIK - rassomning ob'yektiv haqqoniylikni solishtirish, muhokama qilish xususiyati. Tasviriy san'at asari o'zining takrorlanmasligini saqlagan holda umumiylikni aks ettirilish natijasidir.

BADIIY MEROS – avlodlar uchun qadimdan qolgan san'at asarlari.

BADIIY USLUB – san'atda qo'llaniladigan usul.

BARBIZON MAKTABI - fransiyadagi Fonteblo yaqinida joylashgan Barbizon qishlog'i nomi bilan atalgan. U yerda bir guruh rassomlar ijodining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, badiiy maktab yo'nalishi kabi tan olingan. Bu guruhda T.Russo, J.Dyupre, Diaz, K.Troyon, Sh.F.Dobini va boshqa rassomlar ijod qilishgan. XIX asrning 30-60 yillarida bu guruh rassomlar ijodi o'sha davrda rasmiy akademizm san'atidan farqliroq bo'lgan, lekin XVII asr Gollandiya – manzara janri an'analariga suyangan holda o'z asarlarida tabiat ko'rinishlarini sodda, lirik, bejirim kompozitsiyalarda ifoda etgan.

BENALE – ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma.

BAGET portret, rasm va shu kabilar solinadigan to'rt burchakli moslama.

BARELEF (frans. bas-relief) past relef– haykaltaroshlikda relef turi – tekis yuzadan ko'tarilib turadigan, tasvirlar qalinligining yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi. Tanga, medal va znachoklar bunga misol bo'la oladi.

BRINJDAN – bronzadan yasalgan haykal, buyumlar.

BO'YOQ – rassomlar va ayrim shaxslar tomonidan rangtasvir asarlarini yaratishda va badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan maxsus turli rangdagi qorishma.

«V»

VATMAN - vatman qog'oz, chizma va rasm chizish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog'oz.

VERNISAJ – ko'rgazmaning ochilishi. Dastlab ko'rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish degan ma'noni bildirgan. Bunday odatni fransuz rassomlari boshlab berishgan edi.

VITRAJ - (fransuzcha vitra – deraza oynasi) oynadan yoki yorug'lik o'tkazuvchi boshqa materiallardan qilingan rangli rasm yoki naqshli kompozitsiya. Deraza, ba'zan eshik oynasi o'rnida foydalaniladi. Vitraj naqshli yoki rasmlari unga yorug'lik tushganda ko'rinadi. Vitraj X asrda paydo bo'lgan. Avvallari vitraj turli shakllardagi-rangli oyna parchalarini bir-biriga qo'rg'oshin

xoshiya yordamida ulash yo'li bilan ishlangan. Vitrajlar arxitekturada dekorativ element sifatida ham foydalaniladi. Toshkentda vitraj namunalarini «Guliston» restorani zalida ko'rish mumkin.

VITRINA – kitoblar, eksponatlar, turli buyumlarning namunalari qo'yilgan oynavand javon, deraza va har xil oynavand qutilar.

«G»

GALEREYA - (frans. galeril) – turar joy, jamoat, ma'muriy va maishiy binolar ichidagi uzun, tor yo'lak joy. Binoning bir tomoniga taqab solingani uchun oynavand yoki peshayvon qilib quriladi. O'rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo'laklari.

GAMMA – rang gammasi ma'nosida, rangning turli turlari, masalan, iliq va sovuq rang turlari.

GLAZUR – sir, sirbo'yoq.

GOBELEN - bezak gazlama. Gobelenlar turli rangdagi jun, ipak, paxta, ba'zan zar iplardan maxsus to'quv dastgohlarida to'qiladi. Har xil yo'g'onlikdagi iplardan to'qilgani sababli, gobelenning sirti g'adir-budur bo'ladi. Gobelen sirtiga bezaklar tushiriladi. Gobelen ilgari qo'lda to'qilardi. XIX asrdan boshlab mexanik usulda to'qila boshladi.

GORIZONT (ufq tekisligi), (yunon. gorisont-cheklayman) – perspektiva nazariyasida shartli ravishda qabul qilingan tekislik, ochiq va tekis yerda ko'rinadigan qismi. Dala manzarasida yer bilan osmonning «tutashish» joyidan o'tadigan chiziq gorizont chizig'i deyiladi. Gorizont doira shaklida bo'lib, kuzatuvchi o'zini shu doiraning markazida turgandek his qiladi, balandga ko'tarilgan sari gorizont kengaya boradi. Kartinada gorizont chizig'ining pastroq yoki yuqoriroqdan olinishi tasvirlanayotgan narsalarning turish holatiga bog'liq. Gorizont chizig'i kartina o'rtasining pastrog'idan o'tsa, narsalar ta'sirli, xashamatli, bahaybat bo'lib ko'rinadi. Shahar manzarasida esa bu chiziq tramvay izlarining, ko'cha chetlarining va yo'lkalarning, bir xil balandlikdagi uylar yoki simyog'ochlarning qisqarib-torayib, bitta nuqtada «uchrashish» joyidan o'tadi.

GRAVYURA /frans. graver- o'yish/ - grafika turi. Gravyura metall, yog'och, linoleum, tosh va boshqalarga maxsus asboblardan yoki kimyoviy vositalar orqali bo'rtma yoki o'yma qilib tayyorlanadi. Gravyuraning ajoyib namunalarini O'zbekistonda V.E.Kaydalov, K.Basharov, N.Xolikov, V.Parshin,

G.I.Chiganov, A.N.Siglinsev va boshq. Gravyura usulida bir qancha asarlar yaratganlar.

GRAFIKA /yunon.grafikus - tasvirlangan, aks ettirilgan/ - tasviriy sanat turi. Unga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mazmunli rasm, plakat, markalar va shu kabilar kiradi. Grafika sanati asarlari hajm jihatdan uncha bo'lmaydi va ko'pincha qog'ozda bajariladi. Grafika to'rt turga bo'linadi: dastgohli grafika, gazeta-jurnal grafikasi, plakat va amaliy (sanoat) grafikasi.

Grafika san'ati qadimda haykaltaroshlik va amaliy san'at turlari bilan birgalikda rivojlanib, ularning asosini tashkil etgan. Grafikaning yuksak namunalari antik davrdagi kishilar ehtiyojida ishlatiladigan turli xil buyumlarda o'zining chiziqli, rangli tasvirlari bilan xizmat qilgan.

Mustaqil san'at sifatida grafika XV asr oxiri va XVI asr boshlaridan buyon taraqqiy etib kelmoqda. Tarixiy rivojlanish jarayonida grafika san'atiga rangli bo'yoqlar kirib keldi va akvarel, pastel, guash kabilar bevosita aloqador bo'lib qoldi. Shuning uchun ushbu materiallar asosida bajarilgan asarlar ham grafika san'at turiga kiradi.

Vazifasi va mazmuniga qarab grafika dastgohli bo'limga bo'linadi (bajarish jarayonida badiiy matnlar bilan bog'lanish); kitobni illyustrativ badiiy bezash uchun g'o'llaniladi; plakat tasviriy san'atning juda ko'p ko'rinishlarini o'z ichiga oladi, siyosiy masalalarni badiiy usullar bilan bajarish, targ'ibot, badiiy-ishlab chiqarishlarni yoki amaliy (etiketlar, yorliqlar, pochta markalari) kabilarni o'z ichiga oladi.

GRIZAYL /frans. grisale, gris - kulrang so'zidan/ - bir rang bilan turli /och, to'q, nim rang qilib/, ko'pincha kul rang bo'yoqda yaratilgan rasm. Asosan devoriy rasmlar relefli bo'lib ko'rinishi uchun shu tarzda ishlanadi.

GROTESK /ital. grotta - g'or/ - kishilar va narsalarning fantastli tarzda qing'ir-qiyshiq qilib kulgili tarzda yaratilgan tasvir.

GUASH - /frans. guische, ital. Guacco - suv bo'yog'i/ - yelim va belila aralashtirilib, suvga qorilgan bo'yoq va shu bo'yoq bilan ishlangan rassomlik asarlari. Ishlatish yo'llari jihatidan guash akvarel bo'yoqlarning yumshoq xillariga o'xshasada, belila qo'shilganligi, bo'yoq qatlamining qalinligi va xiraligi bilan akvareldan farq qiladi.

«D»

DASTGOHLI SAN'AT – tasviriy san'atning bir turi, san'at asarlarini maxsus dastgohlarga (molbert) o'rnatib ishlashgan.

DASTGOHLI RANGTASVIR JAMIYATI – P.Vilyams, A.Deyneka, Yu.Pimenov, D.Shterberg kabi rassomlar tomonidan tuzilgan bu guruh hayotdagi yangiliklarni ilg‘or badiiy vositalar yordamida ifodalab, faol inqilobiy san‘at asarlari yaratishni maqsad qilib qo‘ygan va rangtasvirning ifodali vositalari taraqqiyotiga ahamiyat berib kelganlar.

DEVORIY RANGTASVIR - ko‘pincha devorlarga katta o‘lchamlarda ishlanadigan tasvirlar.

DIORAMA - /yunon. Dia - orqali, orama-ko‘rinish, manzara/. Rassomlikning bir turi. Bunda tasvir nur o‘tkazadigan material /nafis mato, xira oyna va sh.k./ sirtiga chiziladi. Fonda asosiy tasvir chizilib, old tomonda butaforiya jihozlari /kishilarning figuralari, turli xil meva va h.k./ qo‘yilgan katta rasmning bir turi. Diorama panoramadan ufqning bir qismi aks ettirilganligi bilan farqlanadi. Katta dioramalar maxsus ko‘rilgan binolarda bo‘ladi.

DIZAYN - kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovog‘, mebel va shunga o‘xshash narsalarni g‘ulay, chiroyli shakl va rangini, yangi shakl-shamoyil yaratish san‘ati.

DIPTIX - /yunon. Diptikos – ikki qavat, buklama/. Bir mavzuda bo‘lib, bir-birining mazmunini to‘ldiradigan ikki kartina.

«Yo»

YORUG‘LIK VA SOYA – narsalarning shaklini va hajmini tug‘ri bajarishda yorug‘ va soya qonunlari muhim ahamiyatga ega. Yorug‘lik va soya majmuasi quyidagi: yorug‘lik, yarim soya, soya, refleks, shu‘la.

Yorug‘lik - buyum yuzasidagi tik tushuvchi quyosh yoki sun‘iy yoritgichlar nurlari.

Yarim soya - narsa yuziga qiyaroq ravishda tushuvchi yorug‘lik.

Shaxsiy soya - narsaning yoritilgan qismining orqa tomoniga yorug‘lik nurlari tushmagan yeri.

Refleks narsalarda shaxsiy soyaning eng chekkasiga uning yonidagi narsadan yoki tekislikdan aks etgan nurlar bilan yoritilgan joy. Refleks narsaning yoritilgan qismidan to‘qroq ko‘rinadi.

Shu‘la - narsalarning yorug‘ qismi o‘rtasidagi tiniq oq dog‘ yaltirashi. Bu holat shisha, chinni, nikel-metall buyumlarda kuzatiladi.

«J»

JANR - /frans.- tur, ko'rinish/. Tasviriy san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi. Bular manzara - tabiat ko'rinishlari, portret - odam qiyofasi tasviri, natvurmort - meva, gul va buyumlar tasviri va h.k. Mazmunli suratlar ham o'z navbatida tasniflanadi: tarixiy, maishiy, harbiy, animalistik, interer.

JIVOPIS – rangtasvir.

JIGARRANG – uni ixtiro etgan mashhur rassom Van Deyk nomiga mansub bo'lib, odatda, Van Deyk deb ham yuritiladi. Ba'zi turkiy xalqlar «qo'ng'ir» deb atashadi.

JILVADOR – rangdor. Rassomlar ranglarning tasviriy va ifodali vositalaridan mahorat bilan foydalanish asosida erishiladi.

«Z»

ZARHAL HARF – kitobning matn qismidagi bezatilgan birinchi harf.

ZASTAVKA - peshlavha, boshbezak. Kitob matning boshlanishi yoki har bo'limning oldidan qo'yiladigan naqshli yoki syujetli rasm.

«I»

ILIQ RANG – olovni, quyoshni, chirog' yorug'ini eslatuvchi ranglar: qizil, sariq, zarg'aldoq, malla kabi ranglar turkumi kiradi.

ILLYUSTRATSIYA lotn. illuustratsion - yoritish, ko'rgazmali tasvirlash - kitob, jurnal, gazeta matniga qo'shimcha tarzda beriladigan, uni to'ldirishga, matn ma'lumotlarini ko'z o'ngida gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar. O'zbekistonda V.Kaydalov, Ch.Axmarov, K.Basharov, L.Abdullayev va boshqa rassomlar bu sohada samarali ijod qilmoqda.

INTERER frans. interior- ichki - badiiy bezalgan va jihozlangan xonaning ichki ko'rinishi. Intererning xarakteri bino ichining ko'rinishi, hajmi, shakli, bezak xili, rangi, ma'nosi g'oyasi va boshqa bilan aniqlanadi. Toshkentdagi ko'p binolar intereri diqqatga sazovor: Navoiy nomidagi, Davlat akademik Katta teatr binosining vestibulida Navoiy «Xamsa»si asosida ishlangan panno.

«K»

KANON – qonun.

KAPITEL - /Lonj-kala, - bosh/- ustunning yuqori qismidagi bezagi.

KARANDASH - qalam – yog'och yoki plastmassa qobiq ichiga joylashtirilgan grafitning ingichka tayoqchasi. Karandash yordamida yozuv yoziladi, rasm chiziladi, chizmalar chizishadi. Karandash iborasining kelib chiqishi aslo ruscha so'zidan emas. «Kara» so'z qismi «qora», «dash»- «tosh» ma'noni anglatadi.

KARIKATURA (ital. karikare– bo'rttirish) – ijtimoiy siyosiy va maishiy mavzuda hajv yoki kulgili qilib ishlangan rasm. Biror voqea yoki shaxsni tanqid qilish, achchiq kulgi tug'diradigan qilib bo'rttirib tasvirlanadi. Rasmga qisqa mazmundor matn ilova qilinadi.

Tasviriy san'atda karikatura qadimdan mavjud. Ayniqsa, Uyg'onish davrida rivoj topdi (Leonardo da Vinchi). Hozirgi kunda karikatura tashviqotning muhim vositasi. O'zbekistonda karikatura rivoji, asosan, «Mushtum» satirik jurnali faoliyati bilan bog'liq. M.Vorobeychikov, A.Nikolayev, D.Sinitskiy, N.Leushin, T.Muhamedov, N.Ibroximov va boshqalar karikaturalari isrofgarchilik, xo'jasizlik, poraxo'rlik, aroqxo'rlik kabi illatlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

KARTINA - mustaqil badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy sanat asari. Romga tortilgan mato, metall yoki yog'och taxta, karton, qog'ozga moyli bo'yoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabilar bilan dastgoh (molbert)ga o'rnatib ishlanadi. Bu italyanacha «karta» so'zidan bo'lib, «qog'oz» degan ma'noni anglatadi. Kartina so'zining dastlabki ma'nosi – «nozik, chiroyli, bezatilgan qog'oz».

KITOB BADIY BEZAGI – kitob san'ati. Qadimdan kitob tuzish ishi bilan turli hunar egalari mashhur bo'lganlar. Kitobni sahifalarini tayyorlovchi hunarmand sahhof yoki varroq deb atalgan. Jildsoz charimdan jild yasagan. Tayyor qog'oz sahifasiga xattot asar matnini ko'chirgan, lavvox esa uning sahifalarni rangli jadval bilan ziynatlagan. Kitobning birinchi ikki sahifasiga sarlavha /unvon/ ishlangan. Unvon /titul/ naqshlar bilan bezalgan, undan keyin kitob tasvir tushirish kerak bo'lsa, musavvirga topshirilgan. Musavvir oldin nozik chiziqalar bilan suratni kompozitsiyasini chizgan, so'ngra rang bergan.

KLASSIK SAN'AT – mumtoz san'at, ko'p yillar mobaynida xalq tomonidan obro' qozonib, namuna sifatida qo'llanilib kelinayotgan mumtoz, birinchi darajali, namunali san'at.

KOLORIT - /italyanacha colorito, lotincha color – rang, bo'yoq ma'nosida/ - tasviriy san'atda real hayotni xaqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligini, nisbati. Rassom asarida

g'oyani, obrazni ifodalashda bo'yoqlarga alohida ahamiyat bilan qaraydigan san'atkor kolorist rassom deb ataladi. O'zbekistonlik rassomlardan O'.Tansiqboyev, N.G.Karaxan, Z.M.Kovalevskaya, Ch.Axmarov, M.Saidov va boshqalar O'zbekiston manzaralari, zamon kishilari qiyofasini ifodalashda rangga alohida ahamiyat beradilar.

KONTRAST - /frans. kontraste – keskin ziddiyat/ qora rang, oq rang oldida yana ham qoraroq ko'rinadi; issiq narsani sezish ketidan sovuqqa sezgirlik kuchayadi va h.k.

KONTUR - /frans. kontoir/ predmetning umumiy shaklini tasvirlovchi ko'rinish, abris, chiziq.

KOROPLASTIKA - haykaltaroshlik turi, sopol haykalchalar, sopalak.

KOMPOZITSIYA /lotincha composition – tuzish, qurish ma'nosida/- etyud yoki surat qurilishi, qismlarining muvofiqligi. Naturani tasvirlashda: jismlarni tanlash va ko'rish, ko'z qarashning eng mos nuqtasini topish, yorug'lik, shakl o'lchamlarini aniqlash, kompozitsion markazni paydo qilish va unga asarning ikkinchi darajali qismlarini bo'ysindirishdir.

Kartina yaratishda: mavzuni tanlash syujet ustida ishlash, asar o'lchamini topish, tasvirdagi shaxslarni ichki kechinmalari, bir-biriga bo'lgan munosabatlari, holatlari, harakatlari, ma'nodorligi, ohangdorlikni qo'llash – bular hammasi suratni kompozitsion ko'rishning asosiy qismlari bo'lib, rassom fikrini maqsadli bajarilishiga xizmat qiladi. Bunday kompozitsiyada hamma narsa hisobga olinadi: jismlar miqdori va ularning vazni, ohangi, perspektiva, ufq chizig'i va tasvirga ko'zning qarash nuqtasi, suratdagi bo'yoq ranglarining bir-biriga mos kelishi, ularning qarash yo'nalishi, jismlarning perspektiv qisqarishi, yorug'-soyaning taqsimlanishi, holati va boshqalar.

KONTUR /fransuzcha-kontour/- buyum shaklini aks ettiruvchi chegara chiziq.

KUBIZM – badiiy yo'nalish, geometrik shakli kub so'zidan tashkil topgan termin bo'lib, tasvirlangan narsalarning shaklini ixcham va soddalashgan tarzda ifodalash maqsadini qo'ygan badiiy yo'nalish.

KUKRINIKSLAR (uch rassom familiyasining dastlabki harflaridan olingan taxallus) – Kupriyanov Mixail Vasilevich, Krilov Porfiriy Nikitovich, Sokolov Nikolay Aleksandrovich xalq rassomlari, satira ustalari, shu bilan bir qatorda plakat, illyustratsiya, rassomlik san'ati sohasida ham mashxur.

KO'MIR QALAM - ko'mir qalam, pista ko'mir. Uni tayyorlash uchun quritilgan tol yoki uzum novdasidan qalamchalar olinadi va konserva idishiga

qum to'ldirib ichiga qalamchalar joylashtiriladi, qopqog'i berkitiladi, qizil cho'g'ga 2 soat qo'yib, so'ngra idish sovigach ko'mir qalamchalar olinadi va ular ishlatishga tayyor bo'ladi.

KO'P QATLAMLI RANGTASVIR – moybo'yoq rangtasvirining muhim texnik ko'rinishi (podmalyovka, yozuv, lessirovka). Yirik mavzuli kompozitsiyani, uning bilan birga umuman uzoq davom etuvchi ishni bajarish jarayonida ko'p qatlamli rangtasvir, moybo'yoqli rangtasvirning yagona to'liq texnikasi hisoblanadi. XIX asrning o'rtalarigacha barcha buyuk rassomlar shu texnikani asos sifatida qo'llashgan. Keyinchalik impressionistlar undan voz kechishdi.

KO'RISH YAXLITLIGI – rassomning natura jismlarini bir vaqtda yaxlit ko'rish qobiliyatini nazarda tutadi. To'liq ko'rish holatida jismlar mutanosibligini, tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va natura butunligiga erishish mumkin. Ko'rish yaxlitligi bu rassomning «ko'z qarashi»ni mahoratini anglatadi.

KO'CHIRISH - rasm yoki chizmaning nushasini ko'chirish jarayoni: har xil usulda amalga oshirilishi mumkin: igna, kalka, bosish yordamida, yorug'lik bilan, kataklar vositasida, hamda skaner va epidiaskop yordamida.

KO'RGAZMA – badiiy asarlarni namoyish etish.

«L»

LAVKAS – tasvir ishlash uchun tayyorlangan taglik.

LESSIROVKA /nemischa lasieren sir bilan qoplash ma'nosida/– rangtasvir texnikasining bir turi bo'lib, boshqa bo'yoqlar qatlami zich holda qurigan tekislikka juda yupqa, baquvvat va xiraroq qoplashdir. Bunda ranglarning jarangdorligi, alohida bir yengilligi vujudga keladi.

LINOGRAVIYURA /linoleum va gravyura/ - linoleum parchasiga ishlangan gravyura. Texnikasi ksilografiyaga yaqin. Ishlangan tasvirni ko'p nusxada nashr etish imkonini beradi. Ko'pincha rangli bosmada qo'llaniladi. Linoleum yog'ochdan yumshoq bo'lgani sababli chiziqlar quyuproq va jozibaliroq chiqadi, lekin chiziqlarning to'g'riligi va tekisligi ksilografiyaga nisbatan zaifroq bo'ladi.

LITOGRAFIYA /yunon. lito-tosh, grafiya/ - yassi bosmaning qadimgi va keng tarqalgan usuli bosma qolip /shakl/ maxsus litografiya toshida tayyorlanadi. Yozuv yoki tasvir tosh sirtiga relefsiz litografiya tushi yoki qalami bilan tushiriladi. Maxsus litografiya qog'ozga ishlangan tasvirni tosh

sirtiga ko'chirish ham mumkun. Tasvirli yozuvli tosh sirti kimyoviy ishlovdan keyin bosiladi.

LOKAL RANG - bu rang buyumning asl rangi, masalan, gipsdan ishlangan oq vazaning oqligi vazaning lokal rangi.

Jismga xos bo'lgan (uning bo'yalishi) hech qanday o'zgartirish kiritilmagan rang. Haqiqatda bunday bo'lmaydi. Jism rangi hamisha yorug'lik tushishi, rangning kuchi, atrof-muhit, fazoviy yo'nalishi bo'yicha o'zgarib turadi va u lokal emas balki shartli deb ataladi. Ba'zi paytlarda shartli rang deganda jism rangi emas, balki atrof-dagi ranglarga nisbatan asosiy munosabatlarni olib shartli rangning umumiy tusi tushuniladi.

LOKLAR – rassomlar gruntlarni loklar bilan qoplashadi, shunda moybo'yoq xolstga singib ketmaydi. Bo'yoqning bog'lovchi moddasi tarkibiga loklar aralastiriladi. Ishni davom ettirishdan oldin (qatlamlarning yanada mustahkamligi uchun) va yakunlangan asar lok bilan qoplanadi. Bunda lok bo'yoqlarning to'yinganligini kuchaytiradi. Lok qobig'i asarni atmosferaning turli xil zararli gaz moddalaridan, havodagi changlar, qillardan asrab turadi. Moybo'yoq tarkibidagi loklar uning bir tekisda va tezroq qurishiga ham yordam beradi. Rangli qatlamlar esa grunt bilan hamda o'zaro yaxshi bog'lanadi. Suratlarini moybo'yoq lokidan ko'ra skipidar loki bilan qoplagan ma'qulroq (shunda ular to'q bo'lib ketmaydi). Lok – fiksator ko'mir, sangina, pastel, akvarel bo'yoqlari bilan ishlagan asarlarni ham mustahkamlab turadi.

LUBOK - yog'och bosma tasvir turi, odatda, tasviriy san'atda xalq hayotidan olingan ertak va cho'pchaklar mavzusini ifodalaydigan sodda va hajviy rasmlar.

«M»

MAKET /ital. makkietta – homaki/ - biror joy, narsaning kichraytib tayyorlangan fazoviy shakli. Odatda, muzeylar uchun, o'quv va boshqa maqsadlarda yasaladi.

MANZARA - peyzaj – ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri; tasviriy san'at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko'rinishlari /marina/, daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi. Manzara O'rta asrlarda Xitoy, Yaponiya, Uyg'onish davrida esa Yevropada rivoj topdi. O'zbekistonda O'.Tansiqboyev manzara janridagi jozibador asarlari bilan mashhur.

MAZOK - bo'yoq surmasi.

MARINA - dengiz tasviri.

MASTIXIN - grekcha so'z. Egiluvchan po'latdan yasalgan maxsus asbob bo'lib, rangtasvir ishlash jarayonida palitrani ortiqcha bo'yoqlardan tozalash maqsadida va qurimasidan oldin noto'g'ri qo'yilgan bo'yoq qatlamini sidirib olib tashlash uchun foydalaniladi.

MATERIALLIK - tasvirlanadigan jism materialligi, avvalo, yorug'-soya orqali aks ettiriladi. Turli xil materiallardan tashkil topgan jismlar o'ziga xos yorug'-soyaga egadir. Silindr shaklidagi gipsli jism yorug'likdan yarimsoyaga, soyadan refleksga ravonlik bilan o'tadi. Silindr shaklidagi shishali jism esa aniq yorug'-soya gradatsiyasiga ega emas. Uning shaklida faqat bliklar va reflekslar mavjud. Metall jismlar ham asosan bliklar va reflekslarga ega. Agarda buyumni yorug'-soyasini ifodalasak, jismlarni materialligi ko'rinadi. Jismlarning materiallik sifatida bog'liq bo'lgan muhim shartlardan biri – rasm yoki rangtasvir etyudida naturaga proporsional bo'lgan jismlar o'rtasidagi tusli va rangli munosabatlarning saqlanishi. Jismlarning materiallik sifatini kuzatganda bizning ongimiz, asosan, ularning tus va rang munosabatlari tomoshabin obraziga moslashgan holda aks ettirilgan bo'lsa, unda natyurmort jismlarining yoki manzaraning to'liq material sifati tasvirini ko'rishimiz mumkin.

MINIATYURA /lotin. Minium - kinovar qizil bo'yoq/ - nafis ishlangan kichik hajmli tasviriy san'at asarlari: qo'l yozma kitoblarga ishlangan surat, manzara, grafik tasvirlar; emal, guash, akvarel va boshqa. bilan ishlangan kichik portret, suratlar. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida ham qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar qadimdan bor. Miniatyura san'ati X-XI asrlarda rivoj topgan. Sharafiddin ali Yazdiyning «Zafarnoma»si hamda «Shayboniynoma», «Fatixnoma», «Tarixi Abulxayron» kabi tarixiy asarlar katta mahorat bilan miniatyurada bezatilgan. Xirot miniatyura maktabi, Tabriz miniatyura maktabi, Isfaxon miniatyura maktabi, Buxoro miniatyura maktabi, Xindiston miniatyura maktablari mavjud bo'lgan. Rossiyada Mstera, Palex, Fedoskino, Xoluy miniatyura maktablari vujudga kelgan.

MINIATYURA RANGTASVIRI /fransuzcha – miniature, italyancha – miniatura qizg'ish bo'yoq/ o'rta asrlarda hali kitoblar ishlab chiqilmagan vaqtdanoq rivojlana boshladi. Qo'lda yozilgan kitoblar naqshinkor, gulli bezaklar, juda nozik, har bir beti esa chiroyli tasvirlagan miniatyuralar bilan bezatilgan. Miniatyura rangtasviri texnikasi bilan sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod davridayoq turli xil mashhur qo'lyozmalar yuksak mahorat

bilan bezatilgan. Bu miniatyura asarlari suv bo'yoqlar bilan nafis va chiroyli qilib tasvirlangan.

MODEL - o'leham, nusxa, qolip demakdir. Biror asarni yaratishda tasvir uchun nusxa, andaza, namuna vazifasini bajargan odam yoki narsa, buyum, haykaltaroshlikda esa asarning loydan ishlangan nusxasi yoki undan quyilgan qolip.

MODERN uslubi /frans. Moderne – eng yangi, eng zamonaviy/ XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Ovro'pa va Amerika san'atida vujudga kelgan uslubiy yo'nalishlardan biri. Tasviriy san'at, haykaltaroshlikda yangi izlanishlar bo'ldi, kartina va pannolar bino intererining elementi bo'lishiga ahamiyat berildi, bu ularning dekorativ ruhda yaratilishiga olib keldi. An'anaviy uslub, badiiy shakllardan yuz o'girib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar yaratishda izlandilar; amalda realizmgga qarshi qaratilgan, shaklbozlikdan iborat, tushunib bo'lmaydigan, shakli go'zallikka zid asarlar yaratdilar.

MOZAIKA - rang-barang qoshin, shisha, marmar, tosh, yog'och, metall parchalari bir-biriga zich terib yopishtirib ishlangan naqsh, tasvir monumental-bezak san'ati turlaridan biri. Binolarni bezashda, dastgohli asarlar yaratishda, amaliy san'at asarlarida foydalaniladi. Mozaika tayyorlashning ikki usuli ma'lum. 1-usulda tosh, shisha, sopol parchalari to'g'ridan-to'g'ri devorga, polga, shiftga sement yordamida yopishtirib suvab, tasvir hosil qilinadi /to'g'ridan-to'g'ri terish/. 2-usulda koshin, sopol parchalari, qog'oz, metall, yog'och taxtaga yopishtirib tasvir hosil qilinadi, keyin shu tasvir tegishli joyga ko'chiriladi /qayta terish/ usuli. Toshkentdagi «Bilimlar uyi», Respublika Amaliy san'at muzeyi mozaika bilan bezatilgan.

MOYBO'YOQLAR – o'simlik yog'i bilan aralashtirilgan bo'yoqlar: (lyon, lola-qizg'aldoq yoki yong'oqli). Moybo'yoqlar yorug'lik va havo ta'sirida asta-sekin qotib boradi. Mato, daraxt, karton kabi asoslar ko'pincha moybo'yoqda ishlash uchun gruntlanadi. Moybo'yoq mo'yqalamlarini tozalash uchun ularni kerosin, skipidar yoki benzinda tozalab, so'ngra sovunlab issiq suvda yuviladi hamda qog'ozga o'raladi.

MOLBERT /nem. malbrett/ - rassomlikda ishlatiladigan uch oyoqli dastgoh. Ramkaga tortilgan polotnoni yoki taxtani unga o'rnatib rasm chiziladi. Uch oyoq deb ham yuritiladi.

MONOTIPIYA – monotip /yunoncha monos – bir va typos - nusha ma'nosida/ bosish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan grafik texnikaning alohida

ko'rinishi. Bo'yoqlar silliq tekislikka, dastgohda bosish uchun qoplanadi. Bosib tushirilgan tasvir yagona nusxa bo'lib qoladi.

MONUMENTAL RANGTASVIR - katta o'lchamdagi rangtasvir asarlarining alohida bir ko'rinishi. Arxitektura inshootlarining devor va shiftlarini bezaydi (freska, mozaika, panno). Monumental rangtasvirning yuksakligi, uning asarlardagi ma'lum kattaligi, arxitektura bilan bog'liqligi, oddiylik va kompozitsiyaning qisqa va lo'nda ifodalash usuli, siluet aniqligi va plastik shaklning umumiyligini talab qiladi.

MUSAVVIR /arab – rassom/ - turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

MUTANOSIBLIK - jismlarning yoki ularning bo'laklarini bir-biriga va bir butunlikka bo'lgan munosabati. Rangtasvir yoki qalamtasvirda munosabatlar mutanosiblikka mos ravishda vujudga keladi, ya'ni kattalashish yoki qisqarish bir vaqtning o'zida bir xil ko'rinishda ifoda etiladi. Mutanosiblikni saqlash hal etuvchi ahamiyatga ega, chunki u jismning muhim belgisi bo'lib, to'g'ri va aniq tasvirning asosi hisoblanadi.

MUNOSABATLAR MUTANOSIBLIGI - realistik rangtasvir qonuni. Naturani ko'rish, har bir etyuddagi yorug'lik ranglarining boshqalari bilan bog'liqligi, mutanosibligini belgilab beradi. Tus va ranglar faqatgina birlamchi emas, balki atrof- muhit bilan bog'liq holda, boshqa tus va ranglar bilan birgalikda qabul qilinadi. Shuning uchun rassom naturaning tus va rang farqlarini tasvirning mutanosib moslashtirish usuli bilan jismlarning perspektiv hajmlarini etyudda shakllantiradi. Bular bilan etyudning yoritilish holatiga, bo'rtgan shaklning to'g'ri tuzilishiga, materialligiga, fazoviy chuqurlik va tasvirning boshqa sifatlariga erishiladi.

MULYAJ - frans. haykaltaroshlikda naturadan olingan nusxa, tabiiy mahsulotlar, odam gavdasi qismlarining sun'iy shakli.

MO'JAZ - miniatyuraviy.

MO'YQALAMLAR – qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli. Mo'yqalamlar dumaloq va yapaloq holda bo'lib, olmaxon tukidan yoki qattiq qildan tayyorlangan bo'ladi. Qattiq qildan qilingan mo'yqalamlar moybo'yoqlar bilan ishlashga mo'ljallangan, ammo ulardan tempera yoki guash bo'yoqlarida ham foydalaniladi. Olmaxon mo'ynasidan tayyorlangan mo'yqalamlar akvarelda keng ishlatiladi. Mo'yqalamlar kattaligi raqam bilan belgilanadi. Tekis mo'yqalamlarning raqamlari uning millimetrdagi kengligiga

moslashtiriladi, dumaloq mo'yoqalamlarning esa diametrga (millimetriga ham) mos ravishda bo'ladi.

Moybo'yoqlarda astoydil ishlagandan so'ng, dastlab eritgichlarda, so'ngra mo'yoqalamlar iliq suvda sovunlab yuviladi. Mo'yoqalamlarni atseton bilan yuvish aslo mumkin emas; uning qillari ishdan chiqadi. Akvarel mo'yoqalamlari ishlatilgandan so'ng toza suvda yuviladi. Aslo mo'yoqalamning qotib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Yuqib, tozalangan mo'yoqalamni qog'ozga o'rab qo'ymoq lozim, shunda u o'z shaklini saqlab qoladi.

«N»

NATURA /lot. natura - tabiat/ - rassom, shuningdek, fotograf, kinooperatorga tasvir ob'yekti bo'lib xizmat qiladigan real, borliq /inson, narsalar, manzara va h.k./ Naturni tanlash va tasvirlashda rassomning dunyoqarashi, ishodiy mahorati ko'zga tashlanadi. Portret, manzara, natyurmort, etyud va boshq. naturaga asoslanib bajariladi.

NATURALIZM /lot. naturalis - tabiiy/. San'atda XIX asrning II-yarmida vujudga kelgan oqim va ijodiy metod. Tasviriy san'atda naturalizm aniq shakllangan oqim sifatida ko'zga tashlanmaydi, lekin naturalistik tendensiyalar ko'pgina rassomlarning ijodida hukmronlik qildi, ular fakt va voqealarni fotograflardek aks ettirib, ikkinchi darajali detallarga ko'p o'rin berdilar. Fransiyada E.Mane /ayniqsa, E.Zolya portreti, «Nana» kartinasi /E.Dega, T.Steynlin, Germaniyada M.Liberman, G.Bertels, Italiyada naturalizmga hamohang bo'lgan oqim – verizm vakili V.Vela o'z ijodlarida bir qarashdayoq ko'z ilg'agan hayot lavhalarini aks ettirishga intildilar.

NATYURMORT /frans. nature morte - jonsiz tabiat/ - tasviriy san'at janri. Gul, meva, qushlar, ro'zg'or buyumlari, ayrim mehnat qurollari, to'kin dasturxon tasvirlanadi. Natyurmort asarlari qadimdan ma'lum. Uning paydo bo'lishi tasviriy san'atda realistik uslubning qaror topishi va taraqqiyoti bilan bog'liq. Birinchi namunalari Qadimga Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm mozaikalarida uchraydi. Respublikamizda V.Ufimsev, M.Kurzin, Z.Kovalevskaya, Yu.Elizarov, N.Kashina, R.Ahmedov, Yu.Taldikin kabi o'nlab natyurmort ustalari yetishib chiqqan.

NUSXA /arab. - rasm/ xalq amaliy san'ati – kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarida qo'llaniladigan va ma'lum kompozitsiyaga asoslangan naqsh namunasi. Nusxa xalq ustalari va ularning

ijodiy fantaziyasi asosida vujudga kelib, davr taqozasi bilan o'zgarib, yangilanib boradi.

NYUANS /frans. nyuanse – nozik farq.

«O»

OBRAZ - qiyofa, siymo, ifoda, talqin.

OLEOGRAFIYA /lot. Oleum – moy va ... grafiya/ - moybo'yoq bilan ishlangan kartinalardan bosmaxonada ko'plab nusxa ko'chirish usuli.

ORIGINAL – asli, asl nusxa, asl ko'rinish.

ORNAMENT /lat. Ornamentum - bezak/ - naqsh, bezak. Geometrik shakllar bilan o'simlik yoki hayvonlar olamidanda olingan tasvirlarni qo'shib, uyg'unlashtirib ishlangan bo'yoqli, o'yma yoki chizma naqsh, bezak.

OTTISK /ruscha/ - bosish uchun tayyorlangan matn yoki jadval tasvir /bosma shakl/ning poligrafiya usuli, ya'ni bosim orqali bo'yoq bilan qog'oz yoki boshqa materialga o'tkazish jarayoni va shu jarayon natijasida olingan nusxasi.

OFORT /frans. laau-forte – kislota/ - gravyura /metall o'ymakorligi/ning keng tarqalgan turlaridan biri. Bunda tasvir metall taxtaga kislota ta'sir ettirib hosil qilinadi. Tekis va silliq mis yoki qo'rg'oshin taxta sirti kislotaga chidamli lak bilan bo'yaladi. Keyin gravyura ignasi yordami bilan o'yib tasvir chiziladi. O'yilgan joylar kislota ta'sirida yana chuqurlashadi va u yerga bo'yoq tushib, uning ottiskasida tasvir hosil bo'ladi. Bu usul rangli bosmada ham qo'llaniladi.

«P»

PALITRA /frans. Palette – plastinka, planka/ - rassom bo'yoq qoradigan taxtacha. Metall, chinni, ba'zan yog'ochdan tayyorlanadi. Ma'lum bir rassom, rasm uchun xarakterli bo'lgan rang, bo'yoqlar ham palitra deb yuritiladi.

PANNO /lat. pannus – mato parchasi/ - bino devori yoki shiftning ramkaga olinib, rasm, naqsh, barelef ishlangan qismi. Rasm moyli bo'yoq bilan tempera, freska, mozaika usullarida ishlanadi. A.Navoiy nomidagi Toshkent opera va balet teatri bezashdagi usta Shirin Murodov, Tashpulat Arslonqulovlarning ishlari buning yorqin misoli bo'la oladi.

PANORAMA /pan... va yunon. orama – ko'rinish/ - tevarak – atrofni qamrab olib aks ettiradigan kartina. Panoramada atrofda manzara, ro'y berayotgan voqea to'la aks ettiriladi. Illyuziya yordamida voqea jonli gavdalanmog'i uchun kartinaning oldiga binolar, turli joylarning maketi,

narsalar, kishi, hayvonlarning shakllari ishlab joylashtiriladi. Panorama aylana bino ichidagi devorda bo'lib, tomoshabinlar shu binoning o'rtasida maxsus qurilgan maydonchadan panoramani ko'radilar. Birinchi panoramani 1787-88 yillarda irlandiyalik rassom R.Barker Edinburgda yaratgan.

PAPE-MASHE /frans. papier mashe– ezilgan qog'oz/- to'yib ezilgan qog'oz, karton va boshqa narsalarga yopishqoq moddalar, kraxmal, gips qorishtirib hosil qilinadigan material. Badiiy mahsulotlar, o'yinchoqlar, ayrim ro'zg'or buyumlari, o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalaniladi. Xitoy, Koreya, Yaponiyada miniatyuralar tayyorlashda qadimdan foydalanilgan. Pape-masheni bo'yash, laklash, qabartirib turli tasvirlar ishlash, rasmlar chizish mumkin. Quticha, niqoblar tayyorlashda ko'p foydalaniladi.

PASTEL /ital.pasta– xamir/ - rasm chiziladigan maxsus rangli qalam, shu qalam bilan chizilgan rasm. Grafikada ko'p foydalaniladi. Rassomlar yangi asarlari uchun etyudlar chizishda ham pastelni ishlatadilar.

PEYZAJ /frans. Peuz – joy, makon/ - tasviriy san'at turlaridan biri. Manzara.

PERSPEKTIVA /lot.perspitio– ravshan ko'raman/ - narsalarni tekislikda tasvirlash qonun-qoidalarini o'rganuvchi amaliy fandır. Rasm chizayotgan kishiga nisbatan narsalarning holati, shakli, rangi ularning joylashishiga ko'ra o'zgaradi. Narsaning yaqindagi qismiga nisbatan uzoqdagi qismi qanday o'zgarishini chiziqli perspektiva o'rgatsa, narsalar uzoqlashgan sari rang jihatdan ham o'zgarib borishini havo perspektivasi o'rgatadi. Perspektiva Qadimgi Yunonistonda qo'llana boshlagan. Uyg'onish davrida Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, Perro della Francheska va boshqa rassomlar perspektivadan muntazam foydalangan.

PLAKAT /frans. Plakard – e'lon/ - ko'rgazmali targ'ibot maqsadlariga xizmat qiladigan tasviriy san'at turi. Ko'pincha, qisqa matnli bo'ladi. Kundalik hayotning eng muhim mavzularida diqqatni tortadigan qilib chiziladi va bir yoki ko'p rangli bo'ladi. Plakat tasviriy san'atning eng ommabop turlaridan biri bo'lib, maqsad - vazifasiga ko'ra chaqiriq, xajviy, reklama, tashviqot, ta'lim-tarbiya plakatlariga bo'linadi.

PLASTIKA (yunon. Plastike – muloyim, go'zal) - haykaltaroshlik, bo'rttirib hajmli turli shakllar yaratishda uyg'unlik, ifodalilik tasvirlar yaratish san'ati.

PLASTIK ANATOMIYA – odam tanasining tuzilishi, shakl shamoyili, mushaklar ko'rinishi va ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi munosabatini

o'rganadigan ta'limot. Plastik anatomiya rassomlarga o'rgatiladigan fanlardan biri.

PLENER – frans. (ochiq kenglik) - tabiat, tabiat manzarasi, muhit, tabiat quchog'ida tasvirlash va uning o'ziga xosligini mujassam etuvchining ifodasini yaratish.

PLENER RANGTASVIRI – ochiq havodagi rangtasvir. Ochiq havoda yorug'lik va havo ta'sirida ranglarni turlicha o'zgarishini hisobga olib ishlangan etyud. Bunda asosiy e'tiborni naturaning umumiy tus va rang holatlariga qaratish lozim (yoritishning kuchi va rangi v.b.). Plenerdagi etyudning tus va rang munosabatlarini hal etuvchi jarayon hisoblanadi.

PODMALEVKA (dastlabki surtma ishlanmasi) – moybo'yoq bilan podmalyovka hamda lessirovkadan keyin, matodagi asosiy bosqich. Keng ma'noda propiska so'zini gohida podmalevka deb ham atash mumkin.

PODRAMNIK – chorcho'p, rasm ishlanadigan matoni tortib turadigan qurilma.

PORTRET - (frans. portreit - tasvir) - real borlikda mavjud bo'lgan yolg'iz, ikki yoki bir guruh kishilarning tasviri. Kishilarning boshi, beligacha yoki butun gavdasi to'la aks ettirilishi mumkin. Portret tasviriy san'atning eng muhim janrlaridan, rassom tomonidan chiziladi, haykaltarosh tomonidan o'yib, suvab (barelef, gorelef), yo'nib (marmar, yog'och va boshqa haykallar) tayyorlanadi. Grafikada chizib, bo'yab gravyura, ofort, ksilografiya kabi usullardan tayyorlanadi. Tasvir xarakteri jihatdan monumental, oddiy intim, hajviy portretlarga bo'linadi. Portretning avtoportret xili keng tarqalgan. Rassom yoki haykaltarosh naturadan yoki estalikdan, xotiralar asosida, arxiv materiallariga tayanib portret yaratish mumkin. Antropolog va haykaltarosh M.M.Gerasimov plastik rekonstruksiya asosida (kishilarning bosh suyaklarini ilmiy o'rganib) portretlar yaratishni asosladi (u yaratgan Amir Temur, Shohruh, Ulug'bek, Rudakiy portretlari diqqatga sazovor) hamda Malik Nabiyev tomonidan bajarilgan Amir Temurning rangtasviri etalon sifatida qabul qilindi. Portretning dastlabki namunalari Qadimgi Misrda yaratilgan. Bizgacha saqlangan Ehnaton va Nefertiti portretlari (miloddan avval XIV-XV asrlar), musulmon dini jonli mavjudodni tasvirlashni mutlaqo man etgani tufayli islom aqidalari xukm surgan o'lkalarda portret rassomlik san'atida, haykaltaroshlikda rivojlanmadi. Behzod (Shayboniyxon, XV asr), Maxmud Muzahhib (Alisher Navoiy, XVI asr) kabi mo'yoqalam ustalari faqat miniatyuradagina portret namunalari yaratdilar. O'zbek tasviriy san'atida portret janri, asosan, 30

yillardan boshlab rivojlandi. Portret janrida yorqin obrazlar yaratishdi. A.Abdullayev, S.F.Abdullayev, L.Abdullayev, R.Ahmedov kabi rassomlar samarali ijod qildi. 50-60 yillardan diqqatga sazovor portret namunalarini yaratdilar (Ch.Ahmarov «M.Turg'unboyeva portreti», M.Nabiyev «Abu Rayhon Beruniy», R.Ahmedov «Keksa dehqon portreti», B.Boboyev «Rishtonlik usta Musa Ismoilov o'g'li», A.Abdullayev «Komil Yashin», V.Kaydalov «Alisher Navoiy», R.Choriyev «Kelin, Shohi so'zana», M.Musaboyev «Ulug'bek haykali», N.Qo'ziboyev «Yunus Rajabiy», M.Saidov «Hamza» shuningdek, T.Oganesov, A.Boymatov va boshqa san'atkorlarning ko'p sonli portretlari).

POSTIMPRESSIONIZM – impressionizmdan keyingi badiiy oqim. Tasviriy san'atda rivojlangan kubizm, futurizm, ekspressionizm, primitivizm singari badiiy uslub yo'nalishlarini o'z ichiga olgan yo'nalish.

PROPORSIYA - (lot.proportio – munosabat) – badiiy asarning alohida elementlari va butun asar kattaliklari munosabati.

PROFIL – (ital. Provilò – ko'rinish) – yuz yoki biror narsaning yon tomonidan ko'rinishi.

«R»

RAKURS – (frans. raccoureir - qisqarish ma'nosida) – tasviriy san'atda turli narsalarni qisqartirib aks ettirish. Uning haqqoniy ko'rinishini o'zgarishiga olib keladi: keskin qisqarishlar jismning usti yoki tagidan kuzatganda namoyon bo'ladi.

RANGTASVIR - tasviriy san'atning asosiy ko'rinishlaridan biridir. Jismning ko'rinishini, uning tashqi belgilarini grafik usullar, ya'ni chiziqalar va tush bilan ifoda etish ham mumkin. Lekin atrof-muhitning barcha go'zal go'shalarini turli ranglar jozibasi ila insonga to'la-to'kis tasvirlab berish ham mumkin. Texnik jihatdan rangtasvir quyidagilarga bo'linadi: moy, tempera, freska, mum, mozaika, vitraj, akvarel, guash va pastel. Ushbu nomlar rangtasvir texnikasi usullarini g'ollanishlaridan olingan. Rangtasvir asarining asosiy vazifasi shundaki, u rassomning ichki dunyosini to'la ifodalaydi.

Rangtasvir quyidagi turlarga bo'linadi: dastgohli, monumental, dekorativ, teatr dekoratsiyasi va miniatyura.

Dekorativ rangtasvirning alohida vazifasi shundaki, u faqat binoning interer va ekstererini bezash, uning ko'rinishini kengaytirish yoki aksincha har xil shaklda qisqartirish uchun xizmat qiladi. Dekorativ rangtasvir intererdagi har xil naqshinkor ko'rinishlar, haykaltaroshlik elementlarini bir-biri bilan

bog'lab, ko'rkamligi va chiroyini aniqlashtiradi. Ularni me'morchilik bilan mosligini yorqin namoyon etadi. Dekorativ rangtasvir bilan buyumlarni ham bezash mumkin: (quticha, sandiq va boshqalar). Ularning mavzusi va tuzilishi esa jismning shakli bilan bog'liq.

RANG MUNOSABATLARI – natura ranglarining, rang tuslari, yoritilishi va to'yinganligi bo'yicha farqlari. Naturada rang doimo uni qamrab olgan muhit, unga chambarchas bog'liq bo'lgan atrof, jismlar bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun etyudning rang munosabatlari naturaga mutanosib holda bo'lishi kerak.

RANG NOMLARI – anor-rang – anor guli rangi, asfalt, billuriy, binafsha rang, gulrang – gulgun (pushti), yoqut-rang, jigarrang (qo'ng'ir), zarhal – tillasimon rang, zarg'aldoq, zumrad – yashil rangning bir turi, karmin – qirmizi (qizil rang turi), kobalt - ko'k bo'yoq turi (och havorang, to'q havorang yoki nilobiy), kraplak - qizil lavlagi rangiga yaqin, kulrang - oq va qora rangdan hosil bo'lgan rang, kumushrang – kumush rangiga yaqin, ko'k axzar – osmon rangiga yaqin, lolarang, marvaridrang, nim sariq - och sariq, nim yashil – och yashil, nim qo'ng'ir – och qo'ng'ir, nim qizil, nim zarg'aldoq, nim malla, nim pushti, nim kulrang, nimohang – yorug' bilan soya o'rtasidagi tus, novvot rang, noranjvash – apelsin rangiga yaqin, olov-rang, osmoniy – moviy (lojuvard, nilgun), pistoqi rang – pista rangiga yaqin, sabzarang – yashil rang, somoniy rang – sariq (tillasimon rang), yashil – bargikaram (pistoqi, barg rangiga yaqin), qizil - qon rangiga yaqin, qirmizi - qizil rangning turi.

RANGTASVIR TEXNIKASI - moybo'yog', akvarel, tempera, pastel, freska, mozaikalarda ishlash yo'llari.

RANG XUSUSIYATLARI - rangli tusi yoki tus: qizil, ko'k, sariq, sarg'ish-yashil, yorug'lik va to'yinganlik (uning kulrangdan farqlanish bosqichi, ya'ni toza spektr rangiga yaqinlashish bosqichi). Rangtasvir jarayonida shu uch xil xususiyat bo'yicha naturadagi ranglar solishtiriladi, ularning rangidagi farqlari topiladi va etyudda mutanosib munosabatlarda aks etadi.

RANGLAVHA – yengil va tez ishlangan, uncha katta bo'lmagan o'lchamdagi rangli etyud. Bunday ranglavhaning asosiy vazifasi to'liq ko'ra bilishni shakllantirish, uning asosidagi rang munosabatlarini topa olish va to'g'ri aks ettirish. Ma'lumki, tasvirni rangda ifodalash, naturaning asosiy ranglari jilosi o'rtasidagi farqlarining proporsional yetkazib berish bilan belgilanadi.

RANGTASVIRDAGI RANG – umuman rang – bu jismlarning aks etayotgan nurlarning spektr tarkibi bilan uyg'unlikda ma'lum ko'rish xususiyatini jalb qilish xususiyati. Har kungi hayotda har bir jismda yoki (ob'yektda) qandaydir bir rang mustahkamlanadi. Bunday rangni jisimli yoki lokal deyiladi (o'tlar–yashil, samo–havorang, dengiz suvi – ko'k va h.k.). Rangtasvirda haqqoniy tasvir faqatgina shaklli rangni emas, balki atrof-muhitdagi yoritilishiga qarab o'zgargan rangni tasvirlagandagina aks etishi mumkin. Shaklning rangi yoritilishning kuchayishi yoki sustlashishida o'zgaradi. U yoritilishning spektral tarkibidan ham o'zgaradi. Jism turgan muhit ham rang-barang nurlar taratadi, ular boshqa jismlarda aks etib rangli reflekslar hosil qiladi. Rang kontrast ta'siridan ham o'zgaradi. Shu tariqa jism rangi doimo rangli va yorug'-soyali dog'lar (reflekslar va bliklar)dan tashkil topgan mozaika paydo qiladi. Aynan shu rang, realistik rangtasvirning asosiy tasviriy usullaridan biri hisoblanadi.

Rang o'z-o'zidan insonga nisbatan qandaydir ta'sir ko'rsatadi deb hisoblash odat bo'lib qolgan. Gohida to'q va och tuslar estetik kayfiyat bag'ishlaydi deb o'ylashadi; kulrang va qora ranglar homushlikni belgilaydi va h.k.

RASSOM – tasviriy san'at sohasidagi ijodkor, musavvir, suratgar, mutaxassis. Qog'oz, karton, mato va boshq. Materiallar, shuningdek devor va shiftlarga tasviriy san'atning turli texnikalarida chizib, bo'yab rasm chizuvchi kishi. Rassom inson faoliyati, hayoti uchun zarur bo'lgan har xil narsalarning shaklini, hajmini yaratishga, ularni did bilan bezatishga ham hissa qo'shadi.

REALIZM – voqelikni badiiy ijodning turlariga xos maxsus vositalar bilan haqqoniy, ob'yektiv tarzda aks ettirish. O'zbekiston hududida yuksak darajaga ko'tarilgan miniatyura san'atida realizm elementlari ko'zga tashlanadi.

REKVIZIT – (lot. pегistum-zarur) – natyurmortni tasvirlashda foydalani-ladigan buyumlar majmui.

RENESSANS - uyg'onish.

REPRODUKSIYA (re... va lotn. produko - hosil qilaman) – turli tasvirlar (rasm, chizma, kartina, fotosurat, hujjat va boshqalar)ning nusxasini ko'chirish va ko'paytirish.

RETUSH (frans. retusher – tasvirni tuzatmoq) – tasvir (rasm, fotosurat, naqsh va shu kabilar)ni qalam, bo'yoq bilan tuzatish, yaxshilash. Retusher rasm, fotosurat, negativning ayrim joylarini ravshan ko'rinadigan qiladi,

tuzatadi, dog'larni yo'qotadi. Shu maqsadda qayta chizadi, bo'yardi, qirib tashlaydi.

REFLEKS (lotn. reflexus - qaytgan, aks etgan). Narsalarda shaxsiy soyaning eng chekkasiga uning yonidagi narsadan yoki tekislikdan aks etgan nurlar bilan yoritilgan joy.

RITM – kompozitsiyaning eng kuchli va xarakterli asosi hisoblanadi. Ritm tasvir elementining ma'lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

«S»

SANGINA – (lot. Sangumens - kondek) - qizil va qizg'ish-jigarrang qalam. Yog'och ishlatmay, temir oksidli tuproqsimon jinslardan tayyorlanadi. Tabiiy va sun'iy xillari bo'ladi. Rassomlar etyud, grafika asarlari ishlashda foydalanadilar.

SANOAT GRAFIKASI – amaliy badiiy grafika turi. Sanoat korxonalari, uskuna va mollari uchun zarur bo'lgan emblema, yorliq, qadaq, reklama (katalog, buklet, prospekt va boshqalar), sanoatni boshqarishda ishlatiladigan turli tuman hujjatlar (blanka, konvert va shu kabilar)ni badiiy ishlashga hizmat qiladi. Ularni badiiy bezatish uchun shrift tanlash, naqsh va tasvirlar ishlash, har xil fotosuratlardan foydalanish grafik rassomning ijodiy mehnatini taqozo etadi. Sanoat grafikasi XIX asr oxirlarida grafikaning muhim sohalaridan biri sifatida shakllandi, badiiy oqimlar ta'sirida rivoj topdi, takomillashdi.

SAN'AT – arabcha termin bo'lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy g'ismi. U tasviriy va amaliy san'at, musig'a, me'morchilik, teatr, kino, badiiy adabiyotni o'z ichiga oladi.

SAN'ATSHUNOS – san'at tarixi, nazariyasi va uning taraqqiyoti bo'yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis.

SAN'ATSHUNOSLIK – ilmning san'at bilan uzviy bog'lab shug'ullanuvchi bir bo'lagi.

SEPIYA – jigarrang bo'yoq. Shu bo'yoqda ishlangan badiiy tasvir.

SGRAFITTO – monumental – dekorativ rangtasvir turi bo'lib, Leonardo da Vinchidan davridan boshlab, Italiya uyg'onish davri rangtasviri bilan bog'liq va u ijroning mayinligini belgilab beradi.

SILUET – (frans. Silhouette – XVIII asr fransuz davlat arbobi nomidan) – kishi, hayvon, qush, narsa va boshqalarning soyaga o'xshatib bir rangda

ishlangan tasviri. Tasvir sidirg'a rangdagi qog'ozni kesib ishlab boshqa rangdagi qog'oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiyada va boshqa Sharq mamlakatlarida, XVIII asrdan Ovro'pada rivojlangan. Keng ma'noda – narsa, bino, turli shakllarning xarakterli ko'rinishi.

SIMMETRIYA – grekcha so'z bo'lib, o'lchamlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosibligidir. Simmetriyaning bir qancha turlari bor.

SOVUQ RANGLAR – muzni, qorni, suvni eslatuvchi zangori, ko'kish, yashil, to'q binafsha va havo ranglardir.

SOUS – yumshoq qalam. Shu qalam yordamida ishlangan asar ham «sous» deyiladi.

STILIZATSIYA – soddalashtirish. Tasviriy san'atda, ko'proq dekorativ amaliy san'atda shartli usullar yordamidagi shakl va jismlarni umumiy tasvirlash dizayni, badiiylashtirish. Soddalashtirish, asosan, naqshga xos bo'lib, u tasvir chizmalariga aylantiriladi.

SUPERMUQOVA – ustmuqova, sarmuqova. Kitob muqovasi ustidagi yupqa bezakli qog'oz.

SYUJET (frans. Sujet - predmet) - tasviriy san'at asarida aks ettirilgan ma'lum voqea, vaziyat. Voqea mazmuni o'z aniq ifodasini topgani bilan (ayniqsa maishiy, tarixiy janrga mansub tasviriy san'at asarlarida) ko'zga tashlanib turadi.

«T»

TASVIRIY SAN'AT – san'at turi. Rassomlik san'ati, grafika, haykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud narsalarni ularning tabiiy shakli, o'rni va boshqalarni o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi, predmetlarning hajmi, o'zaro qanday masofada joylashgani va boshqalar to'g'risida tomoshabinda tasavvur hosil qiladi. Tasviriy san'atning eng qadimiy va keng tarqalgan sohasi rassomlik san'ati bo'lib, unda real borliqdagi voqea va predmetlar turli-tuman ranglardagi bo'yoqlar yordamida aks ettiriladi. Rassomlik san'ati vazifasiga ko'ra bir necha turga bo'linadi: monumental rassomlik (panno, freska, devoriy rasmlar), bezak rassomligi (tasvir, naqsh, bezak san'ati predmetlari – mato, buyum, idish, taqinchoqlar, badiiy buyumlarga va boshqalarga ishlanadigan bezaklar), dekoratsiya san'ati (teatr rassomligi), dastgohli rassomlik (mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan asarlar,

miniatyura (qog'ozga, kitob sahifalariga, pergamentga, pape-mashe, bezak buyumlariga, taqinchoqlarga ishlanadigan kichik hajmli rasmlar, tasvirlar)). Asar mazmuniga, tasvirlanayotgan predmet va voqealarning turiga qarab – tarixiy janr, maishiy janr, bataliya janri, portret, animalistika janri, manzara, marina, natyurmort, allegoriya, mifologik va diniy janrlarga bo'linadi.

TEMPERA (ital. temperare - bo'yoqlarni aralashtirish ma'nosi) – rassomlikda keng tarqalgan usullardan biri. Binolarni bezashda, dastgohli san'at asarlarida keng qo'llaniladi. Tempera bilan ishlangan kartinalar, bezaklar quyosh nuri va changdan yaxshi asralsa, o'z rangini, tusini yaxshi saqlab qoladi.

TITUL (lot.titulus – yozuv, izoh) – kitob, jurnal va boshqalarning birinchi sahifasi. Unda muallif ismi va familiyasi, kitob nomi, nashriyot nomi, nashr joyi, yili ko'rsatiladi.

TON – yunonchadan «tonos», «kuchlanish», qalamtasvir yoki rangtasvir ishlash jarayonida buyum tusi yoki rangning yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'ladigan yoritilishi, och-to'qlik darajasi kuchiga aytiladi.

TOREVTIKA (lot.Toreno – qirqaman, zarb qilaman) – metalldan tayyorlangan turli badiiy buyumlar relefini ishlash san'ati. Zarb qilish, bosib naqsh va tasvir ishlash (bunda bir tomoni bo'rtadi, orqa tomoni chuqurlashadi). Quyib tayyorlanadigan metall mahsulotlarni badiiy ishlash ham torevtika deb ataladi.

TORS (ital. Torso – inson tanasi boshsiz, qo'l-oyoqsiz) - tasviriy san'atda tananing haykal tarzida ishlangan yoki chizilgan ko'rinishi.

TRIPTIX (yunon. Triptychos – uch buklangan) – yaxlit umumiy sujet, mazmun va g'oyani ifodalaydigan uch kartina, grafika asari yoki rasmdan iborat san'at asari.

TUS – ohang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.

TUS MUNOSABATLARI - bo'rtgan shakldagi jismlarni moddiyligini bilish, ularning yorug'lik munosabatlarini ko'rishga asoslanadi. Shuning uchun rasmning yorug'lik munosabatlarini rassom o'xshatish usuli bilan yaratishi lozim. Naturaga proporsional bo'lgan jismlarning bo'yalishi (materiali) oraliq'idagi tus munosabatlarining bo'rtgan shakli va tasvirlanishining yorug'-soya gradatsiyasi natijasida rassom shaklni to'g'ri tuslashga, materialligini o'rtirishga, fazoviy chug'urlik hamda yoritilish holatiga erishadi.

TUSH (frans. touche) - vaqt o'tishi bilan rangini o'zgartirmaydigan qora bo'yoq. Suv qo'shib suyultirilsa, kulrang tus oladi. Bo'yoq hosil qiluvchi toshko'mir moddalaridan tayyorlanadigan qizil, yashil, ko'k va boshqalar.

Rangli tush ham bo'ladi. Sharq mamlakatlari, ayniqsa, Xitoy, Koreya, Yaponiyada qadimdan foydalanilgan. XV-XVII asrlarda Ovro'paga tarqalgan. Tush chizmachilikda, grafika asarlari yaratishda, xat yozishda ishlatiladi.

«U»

UYG'ONISH DAVRI – XIV-XV Yevropa tasviriy san'ati rivojidadagi davr.

USTAXONA – rassomning ijodxonasi.

USTOZ – ustod, usta o'z hunarini va san'atini shogirdlariga o'rgatuvchi shaxs.

UFQ, gorizont (yunon. Horizo - chegaralayman) – ochiq joyda yer yuzasining ko'rinadigan chegara qismi yoki yer yuzasining osmon sferasi bilan kesishgan qismi. Tasviriy san'atda ufq chizigi ko'z balandligida joylashgan faraziy tekislik.

«F»

FAKTURA (lot. Factura – ishlov, tuzilish) – badiiy asar sirtining ishlanish yoki tuzilishi xususiyati. Badiiy mohirlikning o'ziga xosligi ham, foydalanilgan material sirtining tabiiy xususiyatlari ham faktura deb yuritiladi.

FAS – /fransuzcha fasade yuz, old tomon ma'nosida/ old ko'rinish, yuz, chehra. Har bir narsaning to'rt tomondan ko'rinishi bor. Old, ikki yoni, tepa va tagi.

FLEYS - katta mo'yqalam, cho'tka.

FON (lot. Fundus – tub, asos), zamin – kartina va grafika asari, relief va naqshda asosiy shaklning orqa ko'rinishi, qo'shimcha tasvir. Buyuk rassomlar portret fonida manzara aks ettirganlar, bu bilan shaxs yashagan muhitni ko'rsatganlar. Relief va naqshda shaklning jozibador chiqishiga yordamchi vosita bo'ladi.

FRONTISPIS (lot. Frons – old, old tomoni va spicio - qarayman) - kitob titul sahifasi chap tomonida berilgan illyustratsiya. Unda asarning asosiy g'oyasi ifodalanadi yoki muhim epizodi tasvirlanadi. Ayrim hollarda muallif portreti beriladi.

«X»

XALQ RASSOMI – rassomchilik ijodiyotida yuqori yutuqlarga erishganlarga beriladigan unvon.

XATTOT - chiroyli yozadigan va naqsh ishlaydigan shaxs.

XATTOLIK - husnixat, chiroyli yozish bilan shug'ullanish san'ati.

«SH»

SHAKL – jismning tashqi ko'rinishi, chizilishi, hajmning konstruktiv tuzilishi, tasviriy san'atda badiiy shakl – qiyofa yaratish, mazmuni yoritib berish uchun xizmat qiladigan badiiy usul.

SHARJ (frans. Charge– bo'rttirish) – biror hodisa, narsa, ayniqsa kishini hajv yoki hazil qilib karikatura shaklida tasvirlash. Kishilar, odatda portretiga o'xshatib, bir jihati bo'rttirib fosh etiladi, hazil qilinadi, ba'zan narsalarga, hayvon, qushlarga o'xshatiladi va h.k. Moybo'yoq, grafika, haykaltaroshlikda sharj qilinadi, ayniqsa grafik sharj keng tarqalgan. Do'stona sharjlari samimiy, yaxshi niyat bilan do'stona hazil mazmunida bo'ladi.

SHAXSIY KO'RGAZMA – birgina ijodkorning asarlarini namoyish etishi.

SHMUTSTITUL (nem. Schmutz– iflos va title – sarlavha, titul) – kitobning titul varog'idan yoki har bir bob hamda qismidan oldin qo'yiladigan ikki sahifali qog'oz varaq. Shmutstitulda kitobning qisqa nomi, ayrim hollarda faqat kitob va nashriyot nomi beriladi. Shmutstitulda kitobning alohida qism va boblari oldidan shu qism yoki bobning nomi, rasm hamda bezaklar joylashtiriladi. Eski kitoblarda shmutstitul asosiy, badiiy titulni ifloslanishdan saqlash uchun xizmat qilgan (nomi shundan kelib chiqqan).

SHTRIX (nem. Strich – chiziq).

«E»

EKSLIBRIS (lot. exlibris – kitoblardan) - kitob belgisi, kitobning egasi ko'rsatilgan tamg'a (belgi) bo'ladi. Muqovaning ichkari tomoniga yopishtiriladi. Gravyura, litografiya usullarida tayyorlanadigan ekslibrislar keng tarqalgan. Rassomlar mahorat bilan ishlab bergan ekslibrislar badiiy qimmatga ega bo'ladi. A.Dyurer, X.Xolbeyn, o'zbekistonlik rassomlardan V.Kaydalov, Q.Basharov va boshqalar ekslibrislar yaratganlar.

EKSPONAT (lot. Expono – ko'rgazmaga qo'yilgan) – muzey va ko'rgazmalarda namoyish qilinadigan narsa.

EMBLEMA (yunon. emblema) – biror tushuncha, g'oyani ifodalovchi shartli yoki simbolik tasvir /masalan, oq kaptar tasviri – tinchlik emblemasi/.

ENKAUSTIKA (yunon. Enkaio - kuydiraman) - keng ma'noda rassomlik san'atining mum bo'yoqlar bilan ishlanadigan sohasi: tor ma'noda bo'yoqning bog'lovchi moddasi mum bo'lgan rassomlik texnikasi (bunda issiq mum bilan ishlanadi, bu asarning namga chidamli bo'lishini va uzoq saqlanishini ta'minlaydi). Milloddan avvalgi XIV asrdan Qadimgi Misrda ibodatxonalarining fasadlarini bo'yashda qo'llanilgan. Milloddan avval V asrda Yunonistonda takomillashgan, mum bo'yoqlarni qaynoq usulda tayyorlash texnikasi rivoj topgan. Fayyum portretlari, Vizantiya ikonolari shu usulda ishlangan. Keyinchalik mum bo'yoqlarni sovuq usulda (skipidarda) tayyorlash usuli tarqalgan, bu usul oson, lekin ancha chidamsiz bo'ladi. Mum rassomligi ko'proq restavratsiyalarda qo'llaniladi.

ESKIZ (frans. esquisse) - xomaki tasvir. Badiiy asar, bino, yaratish jarayonida muallif ko'zda tutgan maqsadini, uning shakli, holati, ko'rinishini gavdalanitiradigan tasvir. Ko'pincha rasm bilan ifodalanadi. Moybo'yoq bilan ishlangan, haykaltaroshlik eskizlari ham bo'ladi.

ETYUD (frans. etude - mashq) - rassom naturani o'rganish jarayonida unga g'arab, kuzatib chizgan tasvir. Moybo'yoq bilan ishlangan, grafik, haykaltaroshlik etyudlari odatda kartina, haykal, grafika asarlari yaratishda tayyorgarlik materiali bo'lib xizmat qiladi.

ETYUDNIK – rasm chizish uchun, mo'yaqalam va bo'yoqlarni, etyud - rasmlarni joylab qo'yishga va etyud ishlashga moslashgan maxsus ko'chma yassi quti.

«YA»

YARIMSOYA – nim soya, narsalarda va tasvirda yorug' bilan soya o'rtasidagi qism.

«O'»

O'ZBEKISTON RASSOMLARI VA HAYKALTAROSHLARI – O'.Tansiqboyev, M.Nabiyev, A.Abdullayev, L.Abdullayev, R.Choriyev, P.Benkov, N.Karaxan, K.Basharov, Ch.Ahmarov, S.Abdullayev, X.Raximova, B.Jalolov, J.Umarbekov, Z.Inog'omov, Y.Tursunnazarov, A.Ikromjonov, A.Nuriddinov, G'.Abdurahmanov, T.Mirtojdiyev, Ya.Salpinkidi, D.Ro'zibayev, I.Jabborov, M.Musaboyev, J.Quttimurodov va boshqalar.

«Q»

QALAM (yunon. kalamos-qamish soʻzidan – koʻmir, qoʻrgʻoshin, grafit, quruq boʻyoqdan qilingan sterjen). Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyoda xattotlar siyoh bilan yoziladigan qamish qalamlardan foydalanganlar. 1790 yili fransuz olimi N.Konte yogʻoch qalam ixtiro qildi. Ayni vaqtda chex olimi Y.Gartmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlari tayyorlashni taklif etdi. Bu metod hozirgi qalam ishlab chiqarish texnologiyasining asosini tashkil etadi. Qalamning maxsus turlari – sangina va pastel. Qattqlik darajasi bir necha xil boʻlgan grafitli qalamlar chiqariladi: qattqlik darajasi M /yumshoq/, T /qattiq/ va MT /qattqligi oʻrtacha/ harflari hamda harflar oldidagi raqamlar bilan belgilanadi.

QOGʻOZ - oʻsimlik tolalaridan yupqa varaq tarzida tayyorlanadigan material. Qogʻoz dastlab (II asrda) Xitoyda olingan. Say Dun oʻsimlik tolalarining suvli suspenziyasini sim turdan oʻtkazib, qogʻoz olishga muayassar boʻlgan. Qogʻoz olishning bu usuli koʻp vaqtlargacha sir saqlab kelindi. VI asr boshlarida bu usul Yaponiyada joriy qilindi. VI-VIII asrlarda qogʻoz ishlab chiqarish Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqaldi. Keyinchalik qogʻoz tayyorlash arablar orqali Eron va Shimoliy Afrika, Kiprga, keyinroq esa Ispaniya, Marokko va boshqa mamlakatlarga yoyildi. Qogʻoz bungacha yozuvda ishlatib kelinayotgan PAPIRUS va boshqa materiallarni siqib chiqardi. Qogʻozning 600 dan ortiq turi bor. Qogʻoz qanday maqsadlarda ishlatilishiga koʻra: qalinligi, kulliligi, namliligi, rangi, oqligi, silliqliqi, singdirish qobiliyati, havo, bugʻ, yogʻ oʻtkazmasligi, dielektrikligi va boshgʻa xossalari bilan xarakterlanadi. Klassifikatsiyaga koʻra qogʻoz II sinfga boʻlinadi: matbuot, yozuv, chizmachilik-rasmchilik, elektr izolyasion, papiros, shimuvchi, apparat, yorugʻlik sezgir, koʻchirish, oʻrov, sanoat – texnika. Hozirgi davrda qogʻozlar matodan emas, yogʻochdan ishlab chiqariladi. Qogʻozni yupqa, qalin, tekis, gʻadir-budir turlari mavjud. Kitob, roʻznoma bosiladigan, jurnal, daftarga moʻljallangan qogʻozlarning turlari boshqa-boshqa boʻladi. Qalam va akvarel buyoqlari bilan chizishda vatman, yarim vatman deyiladigan qattiq, tigʻiz qogʻozlar ishlatiladi.

QOMAT – kishilarning umumiy koʻrinishi.

QOʻSHIMCHA RANGLAR – ranglarni aralashtirganda hosil boʻladigan omuxta rang yoki rangning tusi, ohangi, toʻqligi, ochligi, qizil, sariq zangori ranglarni qoʻshish orqali olingan ranglar.

«H»

HAJM - tekislikdagi shaklning uch o'lovli tasviri. U avvalo jismni konstruktiv va perspektiv qurish bilan amalga oshiriladi. Shaklni bo'rttirishning boshqa muhim usullaridan biri bu yorug'-soyaning uyg'unligi, blik, yorug'lik, yarim soya, shaxsiy soya va tushuvchi soya, refleks. Tasvirlanayotgan tekislikda hajmni sezdirishda chiziq yoki shtrixlarning shakl bo'yicha yo'nalishi ham muhimdir (tekis jismlarda ular to'g'ri va parallel, silindrlilik va aylanalarda - doirasimon).

Mundarija

Kirish	4
Natyurmort rangtasviri– tasviriy san’atning asosiy maktabi.....	5
1– Natyurmort va uning tasvirlash masalalari	12
bob.	
Natyurmortning qalamtasviri.....	12
Rangshunoslik asoslari.....	21
2– Natyurmort rangtasviri xususiyatlari	46
bob.	
Natyurmort ishlashda rangtasvir materiallaridan foydalanish.....	46
Natyurmortda rang va tus nisbatlari.....	61
3– Natyurmortning kompozitsiyasi	68
bob.	
Kompozitsiya.....	68
Kompozitsiya qonuniyatlari.....	77
4– O’quv natyurmortini ishlash metodikasi	90
bob.	
Natyurmortni grizaylda ishlash (akvarel).....	90
Gipsli geometrik shakllardan iborat natyurmortni grizaylda ishlash.	93
Natyurmortni bosqichma-bosqich tasvirlash.....	94
Uy-ro’zg’or buyumlaridan tuzilgan natyurmort.....	97
Ranglari bir-biriga yaqin bo’lgan buyumlardan tuzilgan natyurmortni rangli etyudi.....	101
Bir-biriga qarama-qarshi ranglardagi buyumlardan tuzilgan natyurmortni rangli etyudi.....	102
Uy-ro’zg’or buyumlari va matolar burmalari bilan tuzilgan natyurmortni rangli etyudi.....	105
«Kuz ne’matlari» mavzuidagi natyurmort.....	106
Gipsli milliy naqshdan tuzilgan natyurmortni rangli etyudi.....	108
Turli xil ranglardagi matolardan tuzilgan natyurmortni rangli etyudi...	110
Rangtasvir fanidan innovatsion texnologiyalar tadbig’i	111
Adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro’yxati.....	143
Glossariy.....	145

ISAXOJAYEVA NASIBA

**RANGTASVIR. KOMPOZITSIYA
(NATURMORT)**

(5110800 - tasviriy san'at va muxandislik grafikasi
bakalavr yo'nalish talabalari uchun o'quv qo'llanma)

Adadi 100 nusxa. 11 b/t. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.

